

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRALARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

MARKAZI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY)



“ZAMONAVIY SHAROITDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINI AMALGA
OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH”

moduli bo'yicha
O'QUV-USLUBIY MAJMUА

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **A.V. Vaxabov** – O‘zMU “Makroiqtisodiyot” kafedrasи mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor

Taqrizchi: **H.P. Abulqosimov** – O‘zMU professori, iqtisod fanlari doktori

**O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomasi)**

MUNDARIJA

I. KIRISH	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	14
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	82
V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI	85
VI. GLOSSARIY	87
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	89

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdaga tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg‘un rivojlanishiga qanchalik yo‘naltirilganligi, innovasiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o‘lchanadi. Demak, ta’lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, chet el ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ta’lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. “Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta’mintoni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish” moduli aynan mana shu yo‘nalishdagi masalalarni hal etishga qaratilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta’minotini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish” modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi mutaxassislik fanlari blokidagi asosiy modullardan biri bo‘lib, unda ijtimoiy soxasida erishilgan yangiliklarni, hozirda amal qilayotgan fan dasturiga kirmagan ma’lumotlarni tanlab o‘qitish maqsad qilib qo‘yilgan.

Modulning vazifalari:

- zamonaviy talablarga mos holda oliv ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;
- uzluksiz sosial ta’lim tizimini o‘zlashtirilishini ta’minlash;
- oliv ta’lim muassalari pedagog kadrlarini ijtimoiy soxasida erishilgan yangiliklar bilan tanishtirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Davlat pensiya ta’minoti tizimidagi islohotlar, ularni o‘rganishning zarurligi va asosiy yo‘nalishlarini;
- Ijtimoiy fanlarda foydalaniladigan zamonaviy amaliy dasturlar majmualarini **bilishi** kerak.
- Ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyatda qo‘llash;
- ijtimoiy sohasi bo‘yicha Respublikada ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlarini va ularning mohiyatini;
- o‘z ustida ishlab, fanning yangi tadqiqotlarini o‘qitish tizimini qo‘llash;
- Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta’minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar amaliyoti fanlari bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- axborot kommunikasion texnologiyalari va ularni qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini bilish;
- Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta’minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar amaliyoti fanlarining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish;
- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.
- inklyuziv ta’limni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlarini bilash;
- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

– Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta'minotini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar amaliyotiga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish ***kompetensiyalariga*** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta'minotini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish” moduli materiallari bilan kurs tinglovchilarini tanishtirish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limining zamonaviy usullari, kompyuter texnologiyalari, internet tarmog‘idan olingen yangiliklarni qo'llash usulidan foydalaniladi. Ma’ruza darslarida prezentasiya usulida, amaliy mashg‘ulotlarda aqliy xujum, guruxli fikrlash usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta'minotini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish” moduli o'quv rejadagi birinchi blok va mutaxassislik fanlarining barcha soxalari bilan uzviy bog'langan xolda pedagoglarning umumiyligi tayyorlarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagি o'rni

“Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta'minotini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish” modulini o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lim jarayonini tashkil etishdagi texnologik yondoshuv asoslarini, bu boradagi ilg‘or tajriba va yangiliklarni o'rganadilar, ularni taxlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir kasbiy yutuqlarga ega bo'ladilar.

**Zamonaviy sharoitda davlat pensiya ta'minotini amalga oshirish
mexanizmini takomillashtirish” moduli bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Mavzu nomi	Jami masofa soati	masofa		Jami auditoriya soati	auditoriya		Mustaqil ta'lif
			Nazariy	Amaliy		Nazariy	Amaliy	
1	Pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni				4	2	2	
2	Davlat tomonidan pensiya tizimini tartibga solish.				4	2	2	
3	Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimining tarkibi va rivojlanish yo‘nalishlari.				6	2	4	
4	Davlat pensiya ta'minotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish.				4	2	2	
5	O‘zbekistonda pensiya tizimining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari				4	2	2	
6	O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minotining rivojlanish istiqbollari				4	2	2	
Jami					26	12	14	

NAZARIY VA AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni

Pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni. Pensiyaning iqtisodiy asosi. Pensiya tizimi va uning elementlari. Pensiya turlari. Pensyaning vazifalari. Pensyaning rivojlanish ko‘rsatkichlari: o‘rta oylik pensiya, minimal, o‘rta va maksimal mehnat pensiyalari, qarilik pensiyasining minimal miqdori. Qoplash va bog‘liqlik koeffisiyenti.

1 - amaliy mashg‘ulot:

Pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pensiya ta’moti qanday o‘rin tutadi?
2. Pensiya ta’moti tizimda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning mexanizmi va vositalarini izohlab bering.
3. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimi qanday tamoyillar asoida tashkil etilgan?
4. Jamg‘ariladigan pensiya tizimining ijobjiy va salbiy jihatlarini sanab bering.

2-mavzu: Davlat tomonidan pensiya tizimini tartibga solish.

Davlatning pensiya ta’moti borasidagi siyosatining mazmuni va vazifalari. Davlat tomonidan pensiya tizimini tartibga solish. Pensiya ta’motini xalqaro tartibga solish. Pensiya ta’moti borasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi va dastaklari. Pensiya va ijtimoiy nafaqlar turlari.

2 - amaliy mashg‘ulot:

Davlat tomonidan pensiya tizimini tartibga solish.

1. Pensiya tizimlarini tartibga solish va isloh etish zarurati qanday omillar hisobiga yuzaga keladi?
2. Pensiya tizimini isloh etishning qanday mexanizm va dastaklari mavjud?

3-mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimini isloh etish yo‘nalishlari

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimini isloh etish yo‘nalishlari. AQShda davlat pensiya tizimi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida pensiya ta’mnoti tizimi holati, tarkibi, rivojlanish tendensiyalari va isloh etish yo‘nalishlari. Yaponiya pensiya tizimining xususiyatlari.

3 - amaliy mashg‘ulot:

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimini isloh etish yo‘nalishlari.

1. Pensiya tizimini isloh etish mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari
2. Pensiya ta’mnotini rivojlanirishning jahon tajribasida yuzaga kelgan muammolar.
3. Rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish va pensiya tizimlarini moliyalashtirish shakli va tarkibiy jihatdan qanday guruhlarga ajratish mumkin?
4. Davlat va xususiy pensiya ta’mnoti tizimlarini tashkil etish borasida qanday konsepsiyalarni bilasiz?

Keys topshiriq: Rivojlangan mamlakatlarda umr ko‘rish davomiyligining ortib borishi sharoitida pensiyaga chiqish yoshini davlat tomonidan oshirib borilishi kuzatilmogda.

Bu holat mehnat bozorida keksa ishchilarining ko‘payishiga va ma’lum darajada mehnat unumdorligining pasayishiga olib kelmaydimi?

4-mavzu: Davlat pensiya ta’mnotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish.

Davlat pensiya ta’mnotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini ta’minalash.

4 - amaliy mashg‘ulot:

Davlat pensiya ta’mnotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish.

1. O‘zbekistonda pensiya ta’mnotini huquqiy-institusional asoslari.
2. Davlat pensiya ta’mnotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyoti holati va rivojlanish tendensiyalari.
3. O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’minalash mezonlari, ko‘rsatkichlari va omillari.
4. O‘zbekistonda samarali pensiya tizimini shakllantirish yo‘nalishlari va istiqbollari.

Keys topshiriq: Rivojlangan mamlakatlarda pensiya fondlari mablag‘lari ish beruvchi va ishchi zimmasiga teng taqsimlangan pensiya badallari hisobidan shakllantiriladi. O‘zbekistonda 2017 yil holatiga ish haqi fondidan ish beruvchi 25 % va ishchi 8% miqdorda pensiya ajratmalari to‘laydilar.

Bu holat ish beruvchilar uchun ortiqcha soliq yuki bo‘lmaydimi. O‘zbekistonda ham ish beruvchi va ishchi teng miqdorda pensiya badallari to‘laydigan tizimga o‘tishning qanday ijobiylari salbiy jihatlari mavjud?

5-mavzu: O‘zbekistonda pensiya tizimining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

O‘zbekiston hududidagi dastlabki pensiyalar. Sobiq sovet ittifoqi pensiya tizimi. O‘zbekistonda Mustaqillikdan keyingi o‘tish davrida pensiya tizimining rivojlanishi. Mustaqillik yillarida pensiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar. O‘tmishdan qolgan meros va iqtisodiy islohotlarning zarurligi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida davlat pensiya ta’minotini isloh etish to‘g‘risida. O‘zbekistonda pensiya tizimini isloh etish konsepsiysi va uni amalga oshirish yo‘nalishlari.

5 - amaliy mashg‘ulot:

1. O‘zbekiston pensiya ta’minoti tizimining shakllanish bosqichlariga xos xususiyatlarni sanab o‘ting va izohlang.
2. O‘zbekiston pensiya ta’minoti huquqiy-institusional asoslari
3. O‘zbekiston davlat pensiya ta’minoti tizimi qanday tarkibga ega?
4. O‘zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibini tahlil eting va o‘zgarish yo‘nalishlarini aniqlang.
5. O‘zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi xarajatlari tarkibini tahlil eting.
6. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining amal qilish mexanizmini tahlil eting.
7. O‘zbekiston davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etishning ustuvor yo‘nalishlari sharhlang.

Keys topshiriq: O‘zbekistonda umr ko‘rish davomiyligi oshib bormoqda va davlat pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ko‘rsatishi mumkin. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar bu muammoga pensiya yoshini uzaytirish orqali javob chorasini ko‘rishgan. Pensiya yoshini uzaytirish mehnat resurslari sonining oshishiga va bandkni ta’minlash masalasining yanaa qiyinlashishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonda pensiya yoshini uzaytirish zarurmi? Agar ushbu chora ko‘riladigan bo‘lsa qanday o‘zgarishlarni kutish mumkin? Ishsizlik darajasining oshishini oldini olish uchun pensiya yoshini oshirishda nimalarga e’tibor berish kerak? Aholi umr ko‘rish davomiyligi oshishining pensiya tizimi moliviy barqarorligiga salbiy ta’sirini oldini olish uchun pensiya yoshini oshirishdan tashqari yana qanday choralarini qo‘llash mumkin?

6-mavzu: O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining rivojlanish istiqbollari

Jamg‘arilib boriladigan pensiya tizimining mohiyati, xususiyatlari va shakllari. Majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari. Davlat va xususiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari. Korporativ va individual jamg‘ariladigan pensiya tizimlari. O‘zbekistonda fuqorolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi. O‘zbekistonda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimning rivojlanish xususiyatlari. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari tahlili. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirish istiqbollari.

6 - amaliy mashg‘ulot:

1. O‘zbekiston jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etlishi va rivojlanish bosqichlari.
2. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirish istiqbollari.

Keys topshiriq: O‘zbekistonda fuqorolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkazadigan pul mablag‘lari jismoniy shaxslarning daromad solig‘idan ozod qilingan. Shunday bo‘lsada jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tarkibida fuqorolarning majburiy ravishda o‘tkazgan pul mablag‘lari asosiy ulushni tashkil etmoqda.

Bunday holatda nima uchun berilgan soliq imtivozi fuqorolarni yetarlich raq‘batlantira olmayapti deb o‘ylaysiz? O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaysiz?

MUSTAQIL TA’LIM

Modulning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ishni quyidagi shakllardan foydalangan xolda tayyorlash tavsiya etiladi:

- o‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini chuqurroq o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- Maxsus adabiyotlar bo‘yicha modul bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Amaliy mashg‘ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalilanadi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“AQLIY HUJUM” metodi

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og‘zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. Ta’lim jarayonida qadriyatlar tizimining o‘rnini ko‘rsating?
2. O‘zbekistonda ta’limni tashkil etishining asosiy bosqichlarini olib bering?
3. Ta’lim jarayonining ichki imkoniyatlari va muammolariining muhim jihatlarini ta’riflab bering?
4. Boloniya deklarasiyasining asosiy yutuqlari va kamchiliklari?
5. Ta’limning insonparvarlashuvi va axborotlashuvida falsafaning rolini olib bering?
6. Ta’limning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to‘liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Ta’lim falsafasining mohiyati nimalardan iborat?
2. Dunyo ta’lim makonida gumanitar ta’limni tashkil etish imkoniyatlari?


“LOYIHA” metodi



“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtiroy etadilar. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta’lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o‘z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqgacha)

“Insert jadvali”

Tinlovchilarda ma’ruzalar va mustaqil ta’lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma’lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma’lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog’lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o‘z bilimlari bilan taqqoslaysidi, mavzu bo‘yicha mustaqil ishlab, yangi ma’lumotlar oladi, ularni matnda qo‘yilgan belgilari asosida jadvalga kiritadi.

Namuna:

Insert jadvali

“JAHONDA PENSIYA TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR”

V	+	-	?

“V”- haqidagi bilimlarimga javob beradi;
 “+” haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;
 “-” yangi ma'lumotlar
 “?” mavzuga oid tug'ilgan savollar

“Т-жадвал” методи

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o'ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Namunalar:

Fransiya pensiya tizimining o'ziga xos xususiyatlari

Birdamlik pensiya tizimining afzalliklari va kamchiliklari

Demografik omillarning pensiya tizimiga ta'siri

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-мавзу. Pensiya tizimini Milliy iqtisodiyotdagi o'rni

PEЖA:

- 1.1. Bozor iqtisodiyotida pensiay ta'minotining
- 1.2. Pensiya ta'minoti borasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizimi va vositalari.
- 1.3. Xorij mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari.

Ijtimoiy himoya tamoyili asosida aholining kam ta'minlangan va muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga moddiy yordam ko'rsatish borasida aniq yo'naltirilgan samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoya qilish sohalarida maqsadli umummilliy dasturlarni hayotga tadbiq etish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish pensiya tizimini yanada rivojlantirishni taqazo qilmoqda.

2-rasm. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pensiya tizimining funksiyalari

Pensiya tizimi funksiyalari	<p>Makroiqtisodiy funksiya – milliy iqtisodiyot va jamiyatda ijtimoiy hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash</p> <p>Iqtisodiy funksiya – ishlayotganlar va mehnatga layoqatsizlar, yosh va keksa avlodlar, ko'p va kam daromadli aholi qatlamlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish</p> <p>Ijtimoiy funksiya – yaratilgan YAIMni ijtimoiy adolat tamoyili asosida taqsimlash</p> <p>Siyosiy funksiya – aholi qatlamlari orasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash</p>
------------------------------------	---

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, pensiya tizimini tashkil qilish va aholiga pensiyani uzluksiz ravishda to'lash maqsadida mutaqillikning dastlabki yillaridanoq, respublikamizda aholini ijtimoiy himoya qilishning qonuniy-institusional asoslari yaratildi. Jumladan, yoshga doir pensiya, nogironlik nafaqasi va boquvchisini yoqotganlik nafaqasini tayinlashda "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish

to‘g‘risida”gi Qonunlarda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan nafaqa bilan ta‘minlanish huquqi belgilab qo‘yildi.

1-jadval

O‘zbekistonda pensiya ta’minotini rivojlantirish ko‘rsatkichlari¹

Ko‘rsatkichlar	2001 y.	2005 y.	2010 y.	2022 y.
Aholini ijtimoiy himoya idoralarida hisobda turuvchi pensionerlar soni, ming kishi	3203,8	3229,5	3265,8	3699,1
Yoshga doir tayinlangan minimal pensiya miqdori, so‘m	7233	18605	97300	633000
Tayinlangan o‘rtacha pensiya miqdori, so‘m	10909,9	31710,5	171900	1037101,85
Tayinlangan o‘rtacha pensiya miqdori (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)	147,2	143,5	127,1	125,4

Pensiyalar iqtisodiy maqsadga ko‘ra ijtimoiy sug‘urta sifatida ish haqi yoki oilaviy daromaddan mahrum bo‘lganda ularning o‘rnini to‘ldirishga qaratilgan. Pensiya tizimi sug‘urtalash asosida shakllanriladi va aholi ehtiyojlarini qondirish hamda konstitusion huquqlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari fondidan foydalaniladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan islohotlar barcha jabhalarni, jumladan. Pensiya ta’minotini ham qamrab oladi. Chunki barcha islohotlarning asl maqsadi, insonga munosib turmush sharoitlarini yaxshilashdan iboratdir. Mazkur vazifalarning ijobiy hal etilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlanishiga ham bog‘liqdir. Zamonaviy va samarali pensiya tizimlaridan biri jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi hisoblanadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish va takomillashtirish quyidagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

Pensiya yoshidagi odamlarning daromadlarini samarali va adolatli tarzda saqlanishinita’minlaydi;

To‘lanadigan pensiya badallari va beriladigan pensiya miqdorlari o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi ortadi;

Uzoq muddatli investisiyalarga bo‘lgan talabning qondirilish darajasining oshishiga olib keladi.

Pensiya ta’minoti xususidagi yondashuvning mohiyati shundaki, har bir inson o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan shart sharoitlarni yaratish huquqiga ega. Bu esa, davlat pensiya tizimini fuqarolarning ish haqi va investision daromadlari hisobidan pensiya badallari to‘lashga asoslangan nodavlat strukturalari bilan almashtirishni ko‘zda tutadi.

¹ <https://pfru.uz/uz/pages/ularning-rtacha-pensiya-mqdori-aida-2021-yil-1-yanvar-olatiga-tezkor>

3-rasm. Jamg‘ariladigan pensiya tizimining ijobiy jihatlari

*Jamg‘ariladigan pensiya
tizimining ijobiy jihatlari*

Jamg‘ariladigan asosga o‘tgan pensiya tizimi yalpi milliy jamg‘arish hajmini oshiradi va investisiyalar miqdorining o‘sishiga olib keladi;
Xususiy boshqaruv ostidagi pensiya tizimini raqobat va siyosiy aralashuvdan holi bo‘lganligi tufayli davlat pensiya tizimiga nisbatan samarali bo‘ladi;
Jamg‘ariladigan pensiya tizimi demografik muammolarga bog‘liq bo‘lmaydi;
Jamg‘ariladigan pensiya tizimi pensiyalar miqdorini insonning ish haqiga va pensiya jamg‘armalaridan foydalanish samaradorligiga bog‘liq ravishda tabaqaqlashtirish imkonini beradi.

Lekin yuqorida qayd betilgan ijobiy jihatlar bilan birga, jamg‘ariladigan pensiya tizimi qator muammolarga ham ega (4-rasm)

4-rasm. Jamg‘ariladigan pensiya tizimi muammolari

Muammolari

Aholidan pensiya tizimlarining xususiyati, moliyaviy instrumentlar to‘g‘risida yetarli bilimga ega bo‘lishni talab etadi.
Jamg‘ariladigan pensiya tizimi tashkiliy jihatdan murakkab bo‘lib, aniq tartibga solishni talab etadi.
Jamg‘ariladigan pensiya tizimida muvaffaqiyatsiz investision qarorlar qabul qilinishi yoki aktivlarni boshqarish xarajatlarining ortishi natijasida jamg‘armalar miqdori kamayishi mumkin.

Pensiya tizimida ko‘p sonli risklar mavjud bo‘lib, tizim ishtirokchilari uning muvaffaqiyatsizligi uchun to‘liq javobgarlikni zimmalariga oladilar. Davlat faqatgina ularga minimal pensiya miqdorini ta’minlashda ko‘maklashishi mumkin.

5-rasm. Pensiya tizimining asosiy maqsadlari

Фукароларни кексалик даврида камбағалликдан ҳимоялаш

Мехнат фаолиятининг тугаши билан пенсияга чиқиш олдиндан тўланадиган иш ҳақи миқдорига мутаносиб тарзда белгиланган муайян миқдордаги кафолатланган даромадни таъминлаш

Бу даромадни келажакда турмуш даражасининг пасайишидан ҳимоялаш

Pensiya ta'minoti amal qilishining ilmiy va ijtimoiy jihatlari alohida ahamiyatga ega bo'lib ushbu muammoning dolzarbligi aholi tug'ilishning kamayishi va o'rtacha yashash yoshining ortishi, aholining keksayishi bilan belgilanadi. Demografik prognozlarga ko'ra rivojlangan mamlakatlarda yaqin istiqboldagi ellik yillik mobaynida aholining keksayishi kuchayib borishi jahon taraqqiyotida qator muammolarni keltirib chiqaradi. (2-jadval)

2-jadval

Jahondagi demografik tendensiyalar prognozi (1995-yilda aholi soni -1=100)

	1995	2000	2010	2020	2030	2050	2050-yilda 1995-yilga nisbatan o'sish %da
AQSH aholisi	100,0	104,8	113,0	119,8	124,7	172,2	72,2
demografik yuk	19,2	19,0	20,4	27,6	36,8	38,4	200
Yaponiya aholisi	100,0	101,3	102,2	100,6	97,6	91,6	-8,4
demografik yuk	20,3	24,3	33,0	43,0	44,5	54,0	123
Germaniya aholisi	100,0	100,0	97,2	94,2	90,6	81,2	-18,8
demografik yuk	22,3	23,8	30,3	35,4	49,2	51,9	232
Fransiya aholisi	100,0	102,2	104,9	106,9	107,8	106,1	6,1
demografik yuk	22,1	23,6	24,6	32,3	39,1	43,5	196
Italiya aholisi	100,0	100,1	98,2	95,3	91,9	82,6	17,4
demografik yuk	23,8	26,5	31,2	37,5	48,3	60,0	252
Buyuk Britaniya aholisi	100,0	101,0	102,2	103,5	103,9	102,0	2,0
demografik yuk	24,3	24,4	25,8	31,2	38,7	41,2	170
Kanada aholisi	100,0	105,0	113,2	119,7	123,1	122,7	22,7

demografik yuk	17,5	18,2	20,4	28,4	39,1	41,8	239
Shvetsiya aholisi	100,0	101,8	103,8	105,7	107,0	107,0	7,0
demografik yuk	17,4	26,9	29,1	35,6	39,4	38,6	222

Izoh: demografik yuk 65 va undan katta yoshdagi aholi sonining 15-64 yoshdagi aholi soniga nisbati sifatida aniqlanadi.

Aholining keksayishi, bandlik miqyosi va shakllarining o'zgarishi (band bo'lganlar umumiyl sonining qisqarishi, norasmiy va qisman bandlikning, uy xo'jaligida bandlikning tarqalishi) birdamlikka asoslangan pensiya tizimida keksalarni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushini ortishiga sababchi bo'ladi va jamiyatning mehnatga qobiliyatli a'zolariga tushadigan demografik yuklama ortib boradi.

Biroq pensionerlar daromadini ta'minlashda hal qiluvchi rol davlat taqsimlovchi pensiya tizimiga tegishli bo'ladi. Iqtisodiy o'sish va pensiya yoshidagi shaxslarni moliyaviy ta'minoti masalalarini agar uch pensiya tizimi rivojlantirilsa samarali amalga oshirish mumkin degan xulosa chiqarish mumkin:

1. Keksalar o'rtasida kambag'allikni qisqartirishni maqsad qilib qo'yuvchi va majburiy ishtiroknii talab etuvchi, davlat tomonidan boshqariladigan taqsimlash tizimi.

2. Xususiy boshqaruvda turadigan majburiy jamg'arish tizimi.

3. Ixtiyoriy jamg'arish tizimi. Bundan pensiya yoshidagi shaxslarni moliyaviy ta'minlash tizimining uch asosiy funksiyasini ajratish mumkin bo'ladi – daromadlarni qayta taqsimlash, mablag'larni jamg'arish va sug'urtalash. Bu holatda birinchi tizim daromadlarni qayta taqsimlash, ikkinchi va uchinchi tizimlar esa – mablag'larni jamg'arish funksiyasini bajaradi va bu uch tizim keksaygan yoshdagi risklarning ko'pgina omillaridan qo'shma sug'urtalashni ta'minlaydi.

Yirik miqyosli qamrov va nisbatan keksa aholini ta'minlovchi yirik miqyosli davlat jamg'arish dasturli mamlakatlar uchun davlat pensiya rejasi islohotlarini o'tkazishda birinchi qadam pensiyaga chiqish yoshini oshirish, muddatdan oldin imtiyozli pensiyaga chiqish shartlarini kamaytirish va kechroq pensiyaga chiqishni rag'batlantirish, nafaqa va badallar shartlarini pasaytirish tavsiya etildi. Mazkur islohotlar bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Islohotlarni amalga oshirishdagi ikkinchi qadam ikkinchi majburiy jamg'arish rejasini yaratishni nazarda tutadi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

Badallarni ikkinchi majburiy reja foydasiga qayta taqsimlash yoki davlat nafaqalarini nisbatan doimiy darajada saqlash yo'li bilan birga davlat rejalarini miqyosini doimiy cheklab borish, biroq badallar va ularning qayta taqsimlanish meyorlarini oshirishni ikkinchi rejada amalga oshirishga IXTTning bir qator mamlakatlarida bosqichma-bosqich u yoki bu o'ziga xos xususiyatlari bilan o'tishga kirishildi.

3-jadval

Pensiya tizimlarining qiyosiy ko'rsatkchilari

Mamlakatlар	Moliyalashtirish	Pensiya qo‘shma chiqish yoshi (erkak-ayol)	Sug‘urtalash davri	pensiya tayinlash uchun daromadlar hisobga olinadigan davr	eng yuqori qoplash koefisiyenti	Nafaqalarni indeksatsiyalash
AQSH	qisman jamg‘aruvchi	65-66	35	Butun mehnat davri	41,0	Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha
Yaponiya	qisman jamg‘aruvchi	60-55	40	Butun mehnat davri	30,0	Sof ish haqi
Germaniya	taqsimlovchi	65-65	40	Butun mehnat davri	60,0	Sof ish haqi
Fransiya	taqsimlovchi	60-60	38	Eng nafli 12 yil	50,0	Iste’mol narxlari g‘brutto ish haqi bo‘yicha
Italiya	taqsimlovchi	62-57	40	Oxirgi 5 yil	80,0	Iste’mol narxlari indeksiga muvofiq
Buyuk Britaniya	taqsimlovchi	65-60	50	Butun mehnat davri	20,0	Iste’mol narxlari indeksiga muvofiq
Kanada	taqsimlovchi	65-65	40	Butun mehnat davri	25,0	Iste’mol narxlari indeksiga muvofiq
Shvetsiya	qisman jamg‘aruvchi	65-65	30	Eng nafli 15 yil	60,0	Iste’mol narxlari indeksiga muvofiq

Islohot jarayonida mutlaqo yangi tizimni yaratish bilan bir vaqtida eski tizim doirasida jamg‘arilgan to‘lovlardan bo‘yicha majburiyatlar ham e’tirofetiladi. Chili va Lotin Amerikasining qator mamlakatlari shu yo‘ldan borishgan. Chili hukumati 1980 yilda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, bankrotga uchragan PAYGO pensiya sug‘urtasini, mutlaqo yangi sxemaga almashtirdi. Xususiy tarzda boshqariladigan majburiy pensiya jamg‘armasining milliy tizimi barcha jismoniy shaxslar uchun pensiyalarning eng kam miqdorini kafolatlaydi. Xizmatchilar ijtimoiy ta’minotga soliq ajratmalari qilishlari bilan birga o‘zlarining ish haqlarining 10 %ni 21 ta xususiy pensiya jamg‘armalaridan biriga nomli hisoblariga qo‘yishi mumkin. Dastur ishtirokchilarining pensiyasi ularning oxirgi o‘n yillik ish haqlarining (yillik) o‘rtacha 70 %ini tashkil etishi kerak. 1995-yil ma’lumotlariga ko‘ra Chilidagi 21 pensiya jamg‘armai 3 mln faol jamg‘aruvchiga ega bo‘lgan va 23 mlrd AQSH dollarini miqdoridagi aktivlari boshqargan. Bu miqdor Chili YAIMining yarmini tashkil etadi. Pensiya jamg‘armalari faqat investitsion faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega. Kam risk bilan portfeli har tomonlama kengaytirishni ta’minalash, tovlamachilik va samarasiz boshqaruvni oldini olish maqsadida maxsus hukumat agentligi tomonidan qat’iy davlat nazorati amalga oshiriladi. Jamg‘armalar jamg‘armalarni sir saqlagan holda yilda uch marotaba jamg‘aruvchilar ro‘yxati, jamg‘armalarning moliyaviy faoliyati ko‘rsatkichlari, shuningdek, jamg‘arilgan qoldiqlar va shaxsiy hisoblar bo‘yicha daromad stavkasini e’lon qilib borishi kerak. Hukumat provard

sug‘urtalovchi sifatida maydonga chiqadi, biroq shaxsiy pensiya jamg‘armalari budgetdan ajratilgan va boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas. Chili pensiya tizimi pensiya to‘lovlarining ma’lum miqdorini muayyan jamg‘armaga yo‘naltirgan holda, jamg‘armalar va to‘lovlar miqdori o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni yaratdi.

Nodavlat jamg‘arish sxemasiga e’tiborning kuchayishi va uni pensiya sug‘urtasining kompleks tizimida qo‘llash barcha rivojlangan mamlakatlar uchun xos xususiyat hisoblanadi. Dastlab jamg‘arish tizimining shakllanishi tasodifiy ko‘rinishda, tizimsiz amalga oshirilgan. Pensiya dasturlarini ishlab chiqishda etakchilar asosan firma doirasida fikr yuritishib, hukumatga tartibga soluvchilik rolini qoldirishgan. Bugungi kunda davlat tomonidan tartibga solinadigan va ish beruvchilar hamda xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtiriladigan jamg‘arish pensiya tizimi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunday tizimlar pensionerlar daromadini qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi va korxonalarga inson resurslarini boshqarishning samarali dasturini yaratish imkonini beradi. Nodavlat pensiya rejalariga e’tiborning ortib borishiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda pensiya islohotlarini amalga oshirishdagi ustuvor yo‘nalish taqsimlash chizmasini yangi sharoitlarga moslashtirish bo‘lib qolmoqda. Bu borada Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQShda muayyan qadamlar qo‘yildi. Bu sohadagi moslashtiruvchi chora-tadbirlar qo‘yidagilardan iborat bo‘ldi:

- Pensiyalarni indeksatsiyalash tartibini o‘zgartirish va iste’mol narxlarining o‘sish suratiga asosan indeksatsiya qilish;
- Pensiyaga chiqishning yosh chegarasini oshirish va zaruriy mehnat stagi davomiyligini uzaytirish;
- qoplash koeffitsiyentini pasaytirish;
- majburiy kasbiy jamg‘arish sxemasini kiritish va davlat taqsimlash tizimini muhtojlikni tekshirib ko‘rishga asoslangan pensiya ta’minotiga aylantirish.

Davlat taqsimlash tizimida u yoki bu choralar tartibini tanlashni esa mamlakat pensiya tizimida vujudga kelgan holat, demografik vaziyat tavsifi, jamiyatda amal qilayotganadolatlilik to‘g‘risidagi tushunchalar, siyosiy qarashlar belgilab beradi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash faqat universal xarakterga ega bazaviy pensiya doirasida amalga oshirilishi va bir vaqtning o‘zida xususiy pensiya jamg‘armalari va individul pensiya rejalari miqyosi kengaytirib borilishi kerak.

Pensiya tizimini isloh etishning xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlil etish asosida uch konsepsiyanı alohida ajratish mumkin (4-rasm).

4-rasm. Pensiya tizimini isloh etish konsepsiyalari yo‘nalishlari



Islohotning mazmuni mamlakatning siyosiy tizimi va iqtisodiy shart-sharoitlari bilan bog'liqdir.

Davlat pensiya ta'minoti tizimi – iqtisodiy islohotlar sharoitida fuqarolarni qarilik, kasallik, mehnat qobiliyatini to'la yoki qisman yo'qotish, boquvchisini yo'qotganlik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanishlariga bo'lgan konstitutsion huquqlarini ro'yobga chiqarishni ta'minlashi lozim bo'lgan asosiy ijtimoiy himoya institutlaridan biridir. Olinadigan mablag'lar miqdori sug'urta (mehnat) stoji davomiyligi, ish haqi miqdori, mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga bog'liq bo'ladi va qonun asosida tartibga solinadi.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llaniladigan, ijtimoiy kafolatlar tizimi va moliyaviy institutlarni tashkil qilish vositalari va tamoyillari, atamalari, ijtimoiy va kasbga oid xavf-xatarlar, sug'urta badallari va to'lov larning ekvivalentligi, ijtimoiy xavf-xatar va sug'urta tariflarining bog'liqligi, shuningdek, ushbu tizimning boshqa klassik elementlari – aholini ijtimoiy himoyalashning hayotiy muhim tartibga soluvchisi emas, balki mavhum kategoriylar sifatida tasavvur qilinmoqda.

2-mavzu: Davlat tomonidan pensiyay tizimini tartibga solish.

REJA:

- 2.1. Davlatning pensiyay ta'minoti borasidagi siyosatining mazmuni va vazifalari**
- 2.2 Pensiya ta'minoti borasidagi ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmi va dastaklari.**

Aholining turmush darajasi va farovonligi ko'rsatkichlari uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganlik xolati hamda kishilar ehtiyojining bu ne'matlar bilan qondirilishi darajasi orqali namoyon bo'ladi.

Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi, davlatning pensiyaga oid majburiyatlarni bajarishi uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib mamlakatlar (uzoq muddatli istiqbolda) pensiya tizimi barqarorligini yaxshilashga yo'naltirilgan o'ziga xos siyosat olib boradilar. Pensiya ta'minoti tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

- fuqarolarni keksayganda qashshoqlikdan himoyalash;
- mehnat faoliyati tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan to'lanadigan ish haqiga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;
- kelajakda pensiya tizimi orqali fuqaroni turmush darajasini yaxshilashdan iborat.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasida ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirish va aholining kam ta'minlangan guruhlarini ijtimoiy himoyalashni ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi, bu iqtisodiy islohotlardan biri davlatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi.

Ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatlari hal etish, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo'lishini kuchaytirish respublikamizda islohotlarni o'tkazish uchun mustahkam ijtimoiy tayanch bo'ladi, uning muqarrarligining garovi bo'lib xizmat qiladi. O'tish davri ijtimoiy siyosatning kuchi va ahamiyati uning insonga, uni himoyalashga insonparvarlarcha qaratilishidan iborat.

Ijtimoiy ta'minotning eng muhim iqtisodiy funksiyasi mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bugungi kunda aholi yoshining tarkibiy tuzilishi respublikamizdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, bu sohadagi dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa ijtimoiy masalalarni, jumladan, ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, ta'lim,

sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalarini isloh etishning ustuvor yo‘nalishlar ekanligini belgilab bermoqda.

Milliy iqtisodiyotdagi pensiya tizimi taqsimot munosabatlari mahsuli bo‘lib, mamlakatda muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Uning mablag‘lari firmalar, korxonalar, uy xo‘jaliklari va davlat singari iqtisodiyot subektlari daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida shakllanadi. Xo‘jalik yurituvchi subektlar o‘tish iqtisodiyotining ko‘p ukladli xususiyatiga muvofiq mulkchilikning turli shakllaridagi korxonalardan iborat bo‘ladi.

Bu davrda ijtimoiy himoya sohasining kengayishi obektiv omillar bilan tavsiflanadi. Urushdan keyingi yillarda ko‘pgina g‘arb mamlakatlari iqtisodiyotida sezilarli struktura siljishlari yuz berdi. Mehnatning murakkablashuvi, sanoat ishlab chiqarishi vositalarining qimmatlashganligi ishlovchilar mehnat intizomini mustahkamlash va ular mas’uliyatni oshirishni taqozo eta boshladi. Bu mehnat va mehnatni muhofaza qilish, dam olishni yaxshilash, uy-joy sharoiti va turmush tarzini o‘zgartirish bilan bog‘liq muammolarni keskinlashtiradi. Mehnat 75 unumdarligi, intensivligi va mehnat sifatini oshirishga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni zamonaviy tashkil qilish, ish va hayotning jadal sur’atlar bilan borishi inson organizmining qarishiga, asab va boshqa turli xastaliklar, kasb kasalliklarining ortishiga olib keladi. Yuqorida qayd etilganlardan ko‘pgina g‘arb mamlakatlarida moliyalashtirish ijtimoiy sug‘urta yordamida amalga oshiriladigan mehnat faoliyati sifatini oshirish - ya‘ni mehnat sharoiti va mehnat muhofazasini yaxshilash, tibbiy xizmat tarmoqlarini kengaytirish va sifatini tubdan o‘zgartirish, ishlovchilarning ish haqini yo‘qotish bilan bog‘liq moddiy ahvolini yaxshilash zaruratini yuzaga keltirdi.

Pensiya ta’mnoti amal qilishining ilmiy va ijtimoiy jihatlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib ushbu muammoning dolzarbliji aholi tug‘ilishning kamayishi va o‘rtacha yashash yoshining ortishi, aholining keksayishi bilan belgilanadi. Demografik prognozlarga ko‘ra rivojlangan mamlakatlarda yaqin istiqboldagi ellik yillik mobaynida aholining keksayishi kuchayib borishi jahon taraqqiyotida qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Aholining keksayishi, bandlik miqyosi va shakllarining o‘zgarishi (band bo‘lganlar umumiyligi sonining qisqarishi, norasmiy va qisman bandlikning, uy xo‘jaligida bandlikning tarqalishi) birdamlikka asoslangan pensiya tizimida keksalarini qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushini ortishiga sababchi bo‘ladi va jamiyatning mehnatga qobiliyatli a‘zolariga tushadigan demografik yuklama ortib boradi. Biroq pensionerlar daromadini ta’minalashda hal qiluvchi rol davlat taqsimlovchi pensiya tizimiga tegishli bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish va pensiya yoshidagi shaxslarni moliyaviy ta’mnoti masalalarini agar uch pensiya tizimi rivojlantirilsa samarali amalga oshirish mumkin degan xulosa chiqarish mumkin:

1. Keksalar o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi va majburiy ishtirokni talab etuvchi, davlat tomonidan boshqariladigan taqsimlash tizimi;

2. Xususiy boshqaruvsda turadigan majburiy jamg‘arish tizimi;

3. Ixtiyoriy jamg‘arish tizimi. Bundan pensiya yoshidagi shaxslarni moliyaviy ta’minalash tizimining uch asosiy funksiyasini ajratish mumkin bo‘ladi – daromadlarni qayta taqsimlash, mablag‘larni jamg‘arish va sug‘urtalash. Bu holatda birinchi tizim daromadlarni qayta taqsimlash, 78 ikkinchi va uchinchi tizimlar esa – mablag‘larni

jamg‘arish funksiyasini bajaradi va bu uch tizim keksaygan yoshdagagi risklarning ko‘pgina omillaridan qo‘shma sug‘urtalashni ta’minlaydi.

Yirik miqyosli qamrov va nisbatan keksa aholini ta’minlovchi yirik miqyosli davlat jamg‘arish dasturli mamlakatlar uchun davlat pensiya rejasi islohotlarini o‘tkazishda birinchi qadam pensiyaga chiqish yoshini oshirish, muddatdan oldin imtiyozli pensiyaga chiqish shartlarini kamaytirish va kechroq pensiyaga chiqishni rag‘batlantirish, nafaqa va badallar shartlarini pasaytirish tavsiya etildi. Mazkur islohotlar bugungi kunda barcha rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilmoqda. Islohotlarni amalga oshirishdagi ikkinchi qadam ikkinchi majburiy jamg‘arish rejasini yaratishni nazarda tutadi. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

Badallarni ikkinchi majburiy reja foydasiga qayta taqsimlash yoki davlat nafaqalarini nisbatan doimiy darajada saqlash yo‘li bilan birga davlat rejalarini miqyosini doimiy cheklab borish, biroq badallar va ularning qayta taqsimlanish meyorlarini oshirishni ikkinchi rejada amalga oshirishga IXTTning bir qator mamlakatlarida bosqichma-bosqich u yoki bu ziga xos xususiyatlari bilan o‘tishga kirishildi.

Islohot jarayonida mutlaqo yangi tizimni yaratish bilan bir vaqtida eski tizim doirasida jamg‘arilgan to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar ham e’tirof etiladi. Chili va Lotin Amerikasining qator mamlakatlari shu yo‘ldan borishgan. Chili hukumati 1980 yilda davlat tomonidan moliyalashtiriladigan, bankrotga uchragan PAYGO pensiya sug‘urtasini, mutlaqo yangi sxemaga almashtirdi. Xususiy tarzda boshqariladigan majburiy pensiya jamg‘armasining milliy tizimi barcha jismoniy shaxslar uchun pensiyalarning eng kam miqdorini kafolatlaydi. Xizmatchilar ijtimoiy ta’mintga soliq ajratmalari qilishlari bilan 79 birga o‘zlarining ish haqlarining 10%ni 21 ta xususiy pensiya jamg‘armalaridan biriga nomli hisoblariga qo‘yishi mumkin. Dastur ishtirokchilarining pensiyasi ularing oxirgi o‘n yillik ish haqlarining (yillik) o‘rtacha 70%ini tashkil etishi kerak. 1995 yil ma’lumotlariga ko‘ra Chilidagi 21 pensiya jamg‘armai 3 mln. faol jamg‘aruvchiga ega bo‘lgan va 23 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi aktivlari boshqargan. Bu miqdor Chili YAIMining yarmini tashkil etadi. Pensiya jamg‘armalari faqat investision faoliyatni amalga oshirish xuquqiga ega. Kam risk bilan portfelsi har tomonlama kengaytirishni ta’minalash, tovlamachilik va samarasiz boshqaruvni oldini olish maqsadida maxsus hukumat agentligi tomonidan qat’iy davlat nazorati amalga oshiriladi. Jamg‘armalar jamg‘armalarni sir saqlagan holda yilda uch marotaba jamg‘aruvchilar ro‘yxati, jamg‘armalarning moliyaviy faoliyati ko‘rsatkichlari, shuningdek jamg‘arilgan qoldiqlar va shaxsiy hisoblar bo‘yicha daromad stavkasini e’lon qilib borishi kerak. Hukumat provard sug‘urtalovchi sifatida maydonga chiqadi, biroq shaxsiy pensiya jamg‘armalari byudjetdan ajratilgan va boshqa maqsadlarda foydalananishi mumkin emas. Chili pensiya tizimi pensiya to‘lovlarining ma’lum miqdorini muayyan jamg‘armaga yo‘naltirgan holda, jamg‘armalar va to‘lovlar miqdori o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni yaratdi.

Nodavlat jamg‘arish sxemasiga e’tiborning kuchayishi va uni pensiya sug‘urtasining kompleks tizimida qo‘llash barcha rivojlangan mamlakatlar uchun xos xususiyat hisoblanadi. Dastlab jamg‘arish tizimining shakllanishi tasodifiy ko‘rinishda, tizimsiz amalga oshirilgan. Pensiya dasturlarini ishlab chiqishda yetakchilar asosan

firma doirasida fikr yuritishib, hukumatga tartibga soluvchilik rolini qoldirishgan. Bugungi kunda davlat tomonidan tartibga solinadigan va ish beruvchilar hamda xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtiriladigan jamg‘arish pensiya tizimi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. 80 Bunday tizimlar pensionerlar daromadini qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi va korxonalarga inson resurslarini boshqarishning samarali dasturini yaratish imkonini beradi. Nodavlat pensiya rejalariga e’tiborning ortib borishiga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda pensiya islohatlarini amalga oshirishdagi ustuvor yo‘nalish taqsimlash sxemasini yangi sharoitlarga moslashtirish bo‘lib qolmoqda. Bu borada Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvesiya, Buyukbritaniya, AQShda muayyan qadamlar qo‘yildi. Bu sohadagi moslashtiruvchi chora-tadbirlar qo‘yidagilardan iborat bo‘ldi:

- Pensiyaga chiqishning yosh chegarasini oshirish va zaruriy mehnat stagi davomiyligini uzaytirish;
- Pensiyalarni indeksasiyalash tartibini o‘zgartirish va iste’mol narxlarining o‘sish suratiga asosan indeksasiya qilish;
- qoplash koeffisiyentini pasaytirish;
- majburiy kasbiy jamg‘arish sxemasini kiritish va davlat taqsimlash tizimini muhtojlikni tekshirib ko‘rishga asoslangan pensiya ta’minotiga aylantirish.

Pensiya tizimi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida o‘ziga xos ahamiyat kasb etib, fuqarolarning holatlari davlat pensiya tizimi xizmatlaridan foydalanish to‘g‘risidagi qonunlariga muvofiq talab etiladigan meyorlarga to‘g‘ri kelgan taqdirda, ularning iqtisodiy xavsizligini va jamiyatdagi ijtimoiy maqomini yo‘qotmasligini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlangan oylik to‘lovlanri to‘lab borish mexanizmlarini o‘zida aks ettiradi.

Pensiya tizimini vujudga kelish tarixi qadimgi davlatlarga borib taqaladi. Qadimda pensiya olish huquqi faqatgina xarbiy xizmatchilarga berilgan bo‘lib, xarbiy bo‘lish har bir kishi uchun o‘zi va uning oila a’zolarining kelajakdagi ma’lum bir darajadagi pul yoki natura ko‘rinishidagi daromadlarini kafolatlagan. XVIII asrning oxirlariga kelib, aniqrog‘i, 1775-1799 yillarda AQShda xarbiylar uchun pensiya ta’moti xizmatlarini amalga oshirishning huquqiy-institusional bazasi shakllantirildi. Masalan, 1775-1783 yillardagi mustaqillik uchun bo‘lgan urushlar davrida amerika qurolli kuchlari xarbiylari uchun pensiya dasturlarining qonuniy asoslari yaratildi; 1783 yilning bahorida Kongress tomonidan xarbiylar uchun pensiya nafaqalarini to‘lash tartiblariga o‘zgartirishlar kiritildi; va 1799 yilning mart oyidan boshlab xarbiy sohada faoliyat yuritayotgan barcha ofiserlar uchun pensiya nafaqalarini to‘lanishi qonuniy kafolatlangan.²

Keyinchalik 1889 yilda Germaniyada amalga kiritilgan bo‘lib, nemischa yondashuvning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy ta’mot majburiy bo‘lib, badallar kiritishga asoslangan. Ish beruvchilar va yollanma, ishchilar ham uni moliyalashtirishga mablag‘lar kiritishi lozim bo‘lgan, jumladan, amalyotda joriy etilgan tizim zamirida ilgari mayjud bo‘lgan gildiyalar va ishchilarning birlashmali tomonidan tashkil etiladigan ixtiyoriy o‘zaro yordam jamg‘armalarining ish amaliyoti

² Новиков А. А. Особенности эволюции зарубежных пенсионных систем // Мировая экономика и международные отношения. 2006. № 5.- С. 67

ham yotadi. Yangi tizimda pensiya olish huquqi ilgari to‘langan badallarga asoslagan. Bundan tashqari Daniya (1891) va Yangi Zelandiyada (1898) kambag‘allarga maqsadli yordam ko‘rsatishga mo‘ljallangan pensiya tizimi joriy etildi. Bunda pensiya to‘lovlar umumiy soliq daromadlari hisobidan moliyalashtirilar, muhtojlikni tekshirishni nazarda tutar va to‘lovlarining tekis darajasini kafolatlar edi. Ushbu pensiya tizimlari ko‘p jihatdan kambag‘allar to‘g‘risidagi an‘anaviy qonunchilikdan kelib chiqqan.³

Jahon mamlakatlarda pensiya ta‘minoti tizimining rivojlanish bosqichlarini umumlashtirgan holda tahlil qiladigan bo‘lsak, aholining mehnatga layoqatsiz qismini, qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi kam ta‘minlangan oilalar va ijtimoiy guruhlar, mehnat faoliyati davomida baxtsiz hodisa tufayli ishchining mehnat qobiliyati yo‘qolganda va shu kabi boshqa vaziyatlarda– korporatsiyalar, cherkovlar ham ishchilarga moddiy yordam ko‘rsatishda muhim rol o‘ynagan⁴

Umuman olganda pensiya iqtisodiy kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksalik chog‘ida fonddan foydalanish shakl va usullari yig‘indisini o‘z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.⁵

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijasidan kelib chiqqan holda aytimsh mumkinki, bugungi kunda jahon amaliyotida pensiya tizimi faoliyati samaradorligini makroiqtisodiy darajada baholash uchun uning ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va demografik jihatdan inson omilini takror ishlab chiqarish jarayonining davlat tomonidan qay darajada tartibga solinganligini aniqlash lozim bo‘ladi. Moliyaviy jihatdan pensiya tizimining samaradorligi mablag‘larni jalg qilish va aholini ijtimoiy himoyalashda mazkur mablag‘lardan qay darajada maqsadli foydalilanilayotganligini ifoda etadi.⁶

Ma’lumki, jahon amaliyoti pensiya tizimining quydagi turlari farqlanadi:

– avlodlar birdamligi ya’ni hamkorlikdagi mas’uliyat tizimi, bunda ishlab turgan avlod oldingi avlodga pensiya to‘lovlarini moliyalash uchun badallar to‘laydi (o‘z navbatida keyingi avlod hozirgi ishlab turganlar pensiya to‘lovlarini moliyalashtiradi);

– jamg‘arish tizimi, bunda har bir ishlab turgan kishi o‘zining keksalikdagi ta‘minoti uchun mablag‘larni o‘z mehnat faoliyati mobaynida jamg‘arishi kerak.

Bu ikki pensiya tizimi O‘zbekiston pensiya ta‘minoti tizimining asosiy negizi hisoblanib, fuqarolar pensiya ta‘minoti ushbu pensiya tizimlari bilan qamrab olingan.

³ Pensions Panorama: Retirement-Income Systems in 53 Countries. By The International Bank for Reconstruction and Development /The World Bank. P. 226 <http://www.worldbank.org>

⁴ Ўша манба.

⁵ G. Qosimova, Z. Karimova. Budjetdan tashqari fondlar. Darslik. TMI. 2009 y. 39 b.

⁶ Pensions Panorama: Retirement-Income Systems in 53 Countries. By The International Bank for Reconstruction and Development /The World Bank. P. 226 <http://www.worldbank.org>



1-rasm. Pensiya tizimlarining ko‘rinishlari⁷

Ko‘pgina mamlakatlarda pensiya tizimini moliyaviy barqarorlashtirish muammosining yechimi pensiya yoshining oshirilishidadir, deb qaralmoqda. Bu rivojlangan g‘arb mamlakatlari uchun juda muhimdir, chunki hayotning o‘rtacha davomiyligi anchagina yuqori, aholi keksayib bormoqda, pensionerlar va ishlab turganlar nisbati, ya’ni bog‘liqlik koyefsenti og‘ishmay ortib bormoqda.

Avlodlar birdamligi pensiya dasturi amal qilayotgan mamlakatlarda pensiya to‘lovlarini moliyalashtirish hozirda band bo‘lgan aholi tomonidan to‘lanadigan pensiya sug‘urtasi badallari hisobidan amalga oshiriladi. Iqtisodiy adabiyotlarda mazkur pensiya tizimi qayta taqsimot dasturi ham deb ataladi. Bunda davlat tomonidan u yoki bu choralar tartibini tanlanishi mamlakat pensiya tizimida vujudga kelgan holat, demografik vaziyat tavsifi, jamiyatda amal qilayotgan adolat tushunchalari, siyosiy qarashlar belgilab beradi. Ko‘p vaziyatlarda mazkur pensiya dasturi asosida amal qilayotgan mamlakatlarda ishchi hodimlar uchun qat’iy belgilangan pensiya sug‘urtasi sxemasi amaliyotga tadbiq etilganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bunda davlat pensionerlarni minimal yoki bazis pensiya to‘lovlarini bilan ta’minlashi bilan bir qatorda, universal ijtimoiy nafaqalar ham ajratishi mumkin bo‘ladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amal qilayotgan mamlakatlarda pensiya to‘lovlarini moliyalashtirish fuqarolarning avvaldan jamg‘arib kelgan mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda pensiya to‘lovlarini indeksasiyalash amaliyoti mamlakatdagi o‘rtacha ish haqi yoki inflyasiyani inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini joriy etish va takomillashtirish quydagi vazifalarni hal etish imkonini beradi:

⁷ Вахабов А.В. Пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш муаммолари. “Пенсия тизимининг молиявий барқарорлигини таъминлаш ва самарадорлигини ошириш” мавзусида республика илмий-амалий конференция. - Тошкент.: “Университет”. 2017. 4-11 б.

- Pensiya yoshidagi odamlarning daromadlarini samarali va adolatli tarzda saqlanishini ta'minlaydi;
- To'lanadigan pensiya badallari va beriladigan pensiya miqdorlari o'rtasidagi bog'liqlik darajasi ortadi;
- Uzoq muddatli investisiyalarga bo'lgan talabning qondirilish darajasining oshishiga olib keladi.

Aralash pensiya tizimi avlodlar birdamligi va jamg'ariladigan pensiya dasturlari komponentlarini o'zaro aralashtirgan holda amaliyotga tadbiq etilganligida namoyon bo'ladi.

Kasbiy pensiya tizimi rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga xos bo'lib, sohaviy pensiya tizimi deb ham ataladi. Bu turdag'i pensiya fondlari ish beruvchi tomonidan tashkil etilib, pensiya fondiga sug'urta badallarini to'lash va pensiya to'lovlarni moliyalashtirish tartibi pensiya fondining nizomida ko'rsatilgan shaklda amalga oshiriladi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, kasbiy pensiya fondi faqatgina ish beruvchi yoki ishchi hodim va ish beruvchining teng ishtiroki asosida amalga oshirilishi mumkin bo'ladi. Ish beruvchiga nisbatan bu turdag'i pensiya fondini tashkil etganligi uchun turli soliq imtiyozlari joriy etilgan hisoblanadi.

2-rasm. Pensiya va ijtimoiy nafaqalar turlari⁸

Ёшга доир пенсия

Ногиронлик нафақаси

Боқувчисини йўқотганлик нафақаси

Мехнат стажи билан боғлиқ бўлган пенсия олиш ҳукуқига эга бўлмаган фуқароларга ижтимоий нафакалар

Mamlakat pensiya tizimi qay tarzda tashkil etilmasin, fuqarolar uchun 1.1.2-rasmda keltirib o'tilgan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtiradi.

Tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, jahon mamlakatlarida amal qilayotgan pensiya tizimlari maqsadlari umumiy holda quyidagilarda o'z aksini topadi:

- aholini keksalik davrida kambag'allikdan himoyalash;
- mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldindan to'lanadigan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash
- pensiya va ijtimoiy nafaqalar hisobidan olingan daromad orqali kelajakda pensioner va nafaqaxo'rлarning turmush darajasini pasayishidan himoyalash.

⁸ Pensions Panorama: Retirement-Income Systems in 53 Countries. By The International Bank for Reconstruction and Development /The World Bank. P. 226 <http://www.worldbank.org> маълумотлари асосида тузилган.

Pensiya tizimida ko‘p sonli risklar mavjud bo‘lib, tizim ishtirokchilari uning muvaffaqiyatsizligi uchun to‘liq javobgarlikni zimmalariga oladilar. Davlat faqatgina ularga minimal pensiya miqdorini ta’minlashda ko‘maklashishi mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda pensiya ta’minoti xususidagi yondashuvning mohiyati shundaki, har bir inson o‘z hayoti uchun zarur bo‘lgan shart sharoitlarni yaratish huquqiga ega. Bu esa, davlat pensiya tizimini fuqarolarning ish haqi va investision daromadlari hisobidan pensiya badallari to‘lashga asoslangan nodavlat tarkiblari bilan almashtirishni ko‘zda tutadi.

Pensiya ta’minoti amal qilishining ilmiy va ijtimoiy jihatlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu muammoning dolzarbligi aholi tug‘ilishning kamayishi va o‘rtacha yashash yoshining ortishi, aholining keksayishi bilan belgilanadi. Demografik prognozlarga ko‘ra rivojlangan mamlakatlarda yaqin istiqboldagi ellik yillik mobaynida aholining keksayishi kuchayib borishi jahon taraqqiyotida qator muammolarni keltirib chiqaradi. (1-jadval)

1-jadval
Ayrim mamlakatlarda demografik ko‘rsatkichlar prognozi⁹

	1995	2000	2010	2020	2030	2050	2050-yilda 1995-yilga nisbatan o‘sish %da
AQSH aholisi	100,0	104,8	113,0	119,8	124,7	172,2	72,2
demografik yuk	19,2	19,0	20,4	27,6	36,8	38,4	200
Yaponiya aholisi	100,0	101,3	102,2	100,6	97,6	91,6	-8,4
demografik yuk	20,3	24,3	33,0	43,0	44,5	54,0	123
Germaniya aholisi	100,0	100,0	97,2	94,2	90,6	81,2	-18,8
demografik yuk	22,3	23,8	30,3	35,4	49,2	51,9	232
Fransiya aholisi	100,0	102,2	104,9	106,9	107,8	106,1	6,1
demografik yuk	22,1	23,6	24,6	32,3	39,1	43,5	196
Italiya aholisi	100,0	100,1	98,2	95,3	91,9	82,6	17,4
demografik yuk	23,8	26,5	31,2	37,5	48,3	60,0	252
Buyuk Britaniya aholisi	100,0	101,0	102,2	103,5	103,9	102,0	2,0
demografik yuk	24,3	24,4	25,8	31,2	38,7	41,2	170
Kanada aholisi	100,0	105,0	113,2	119,7	123,1	122,7	22,7
demografik yuk	17,5	18,2	20,4	28,4	39,1	41,8	239
Shvetsiya aholisi	100,0	101,8	103,8	105,7	107,0	107,0	7,0
demografik yuk	17,4	26,9	29,1	35,6	39,4	38,6	222

Izoh: demografik yuk 65 va undan katta yoshdaggi aholi sonining 15-64 yoshdaggi aholi soniga nisbatli sifatida aniqlanadi.

“Bugun sayyoramizda har soniyada o‘rtacha ikki kishi 60 yoshga to‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) bergen ma’lumotlarga ko‘ra, XXI asr o‘rtalariga kelib, yerda 100 yoshdan oshganlar soni 3,2 millionidan ortiq kishini tashkil etadi. Jahonda insonning o‘rtacha umr ko‘rish yoshi 1950 yilda 47 yosh bo‘lgan bo‘lsa, 2010 yildagi bu raqam 69 yoshga yetdi. 2050 yilda mazkur ko‘rsatkich 76 yoshni, 2100 yilga borib esa 85 yoshga yetishi ko‘tilmoqda”¹⁰

⁹ Манба: United Nations DESA (<http://www.un.org/en/development/desa/index.html>) маълумотлари асосида тузилган.

¹⁰National officials, OECD calculation and Turner, Paris.2016. – P. 231.

Aholining keksayishi, bandlik miqyosi va shakllarining o‘zgarishi (band bo‘lganlar umumiyligi sonining qisqarishi, norasmiy va qisman bandlikning, uy xo‘jaligida bandlikning tarqalishi) birdamlikka asoslangan pensiya tizimida keksalarni qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan davlat xarajatlarining YAIMdagi ulushini ortishiga sabab bo‘ladi va jamiyatning mehnat layoqatiga ega bo‘lgan a’zolariga tushadigan demografik yuklama ortib boradi.

Biroq pensionerlar daromadini ta’minalashda hal qiluvchi rol davlat taqsimlovchi pensiya tizimiga tegishli bo‘ladi. Tadqiqotlarimiz natijasidan kelib chiqqan holda, iqtisodiy o‘sish va pensiya yoshidagi shaxslarni moliyaviy ta’moti masalalarini agar uch darajali pensiya tizimi rivojlantirilsa samarali amalga oshirish mumkin degan xulosa chiqarish mumkin:

- Keksalar o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi va majburiy ishtirokni talab etuvchi, davlat tomonidan boshqariladigan taqsimlash tizimi.
- Xususiy boshqaruvda turadigan majburiy jamg‘arish tizimi.
- Ixtiyoriy jamg‘arish tizimi. Bundan pensiya yoshidagi shaxslarni moliyaviy ta’minalash tizimining uch funksiyalarini ajratish mumkin bo‘ladi – daromadlarni qayta taqsimlash, mablag‘larni jamg‘arish va sug‘urtalash. Ushbu holatda birinchi tizim daromadlarni qayta taqsimlash, ikkinchi va uchinchi tizimlar esa – mablag‘larni jamg‘arish funksiyalarini bajaradi va qayd etilgan tizimlar keksaygan yoshidagi risklarning ko‘pgina omillaridan qo‘shma sug‘urtalashni ta’minalaydi.

Tpdqiqotlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlarda pensiya islohotlarini amalga oshirishdagi ustuvor yo‘nalish taqsimlash chizmasini yangi sharoitlarga moslashtirish bo‘lib qolmoqda. Bu borada Germaniya, Fransiya, Italiya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya, AQShda muayyan qadamlar qo‘yildi. Mazkur yo‘nalishdagi moslashtiruvchi chora-tadbirlar qo‘yidagilardan iborat bo‘ldi:

- pensiyalarni indeksatsiyalash tartibini o‘zgartirish va iste’mol narxlarining o‘sish sur’atiga asosan indeksatsiya qilish;
- pensiya yoshi chegarasini oshirish va zaruriy mehnat stagi davomiyligini uzaytirish;
- qoplash koeffisiyentini pasaytirish;
- majburiy kasbiy jamg‘arish sxemasini amaliyotga tadbiq etish va davlat taqsimlash tizimini tekshirilgan muhtojlikka asoslangan pensiya ta’motiga aylantirish.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayangan holda aytish mumkinki, bugungi kunda jahon mamlakatlaridagi demografik vaziyatlarning keskinlashuvi pensiya tizimining rivojlanish bosqichini yangi bosqichga o‘tkazish ehtimoli mavjud.

3-мавзу: Rivojlangan mamlakatlarda pensiyay tizimini isloh etish yo‘nalishlari.

REJA:

- 3.1.Pensiya tizimini isloh etish mohiyati va ustuvor yunalishlari.*
- 3.2.Pensiya ta'minotini rivojlantirishning jahon tajribasi va yuzaga kelgan muammolar*
- 3.3.Rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya tizimining tuzilishi va strategik ahamiyati*
- 3.4.Davlat va xususiy pensiya ta'minoti tizimi kontseptsiyasi*

Mamlakatning aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida pensiya ta'minoti muhim o'rinni tutadi. Demografik omillar ta'sirida aholi tarkibida pensiya yoshidagilar ulushining ortib, mehnatga layoqatli aholi sonining qisqarib borishi barqaror, ishonchli moliyaviy resurslar bilan ta'minlangan pensiya tizimini yaratishning maqbul modelini tanlashni taqozo etadi. Shu munosabat bilan bog'liq holda dunyo mamlakatlarida pensiya tizimining tarkibi, amal qilishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Jahon amaliyotida pensiya ta'minotining quyidagi bazaviy institutlari mavjud bo'lib, ular pensiya tizimi modellarini guruhlashtirish imkonini beradi:

1. Ijtimoiy yordam. Bu aksariyat mamlakatlarda amal qiluvchi pensiya yoshidagi aholi tarkibida kambag'allik ulushini qisqartirish maqsadida amalga oshiriladigan qayta taqsimot dasturi hisoblanadi.

2. Majburiy pensiya sug'urtasi. Ushbu sug'urta mehnatga layoqatli davrda erishilgan turmush darajasining pasayib ketishi bilan bog'liq risklarni sug'urtalash maqsadida yollanib ishlovchilar va o'zini-o'zi ish bilan ta'minlovchi shaxslar tomonidan majburiy sug'urta badallarini to'lashni taqozo etadi. Taqsimot yoki jamg'arish tamoyillariga asoslangan pensiya dasturlari deyarli barcha mamlakatlarda amal qiladi.

3. Shaxsiy pensiya (ixtiyoriy) sug'urtasi. Ushbu sug'urta kengaytirilgan yoki ayrim holatlarda ikkinchi institutning o'rnini bosuvchi sug'urta hisoblanib, fuqarolarning hohish ixtiyori va moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantiriladi. Fuqarolarning mehnat faoliyati tugagandan keyin shaxsiy ixtiyoriy sug'urta ularning turmush darajasiga real ta'sir ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda ixtiyoriy pensiya sug'urtasi ishchilovchilarni mehnat faoliyati tugagandan keyingi davrda o'zini-o'zi himoyalashning muhim mexanizmi vazifasini o'taydi.

Mutaxassislar fikricha, qayd etib o'tilgan institutlarning barchasidan foydalanish nisbatan ishonchli pensiya ta'minoti tizimini tashkil etish imkonini beradi.

Ilk klassik pensiya tizimlari XIX asrning oxirida paydo bo'lgan. Bu sohadagi dastlabki to'laqonli pensiya tizimi Germaniyaga tegishlidir. 1883 – 1884 yillarda Germaniyada kasallar va ishlab chiqarishda nogiron bo'lganlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan. 1889 yildan boshlab esa pensiya ta'minoti tizimi paydo bo'ldi. Keyinchalik pensiya ta'minoti tizimi Yevropaning Daniya (1891 y.), Buyuk Britaniya (1908 y.), Fransiya (1910 y.), Shvesiya (1913 y.), Italiya va Niderlandiya

(1919 y.) kabi mamlakatlarida joriy etildi¹¹.

XIX asrning 20-yillaridan boshlab pensiya ta'minoti barcha taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy ta'minotning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Shu bilan birgalikda pensiyalarni tayinlash va to'lash tartibi ko'p marotaba o'zgargartirildi va takomillashtirildi.

Ayrim mutaxassislar pensiya tizimlarini davlatning iqtisodiyotdagi roli, xususiy va davlat pensiya tizimlari komponentlarining o'zaro nisbatidan kelib chiqib guruhlashga harakat qlishadi. Ularning fikricha pensiya tizimlari evolyusiyasi davlat modellarining aralash modellarga qarab, aralash modellardan esa xususiy modellarga qarab rivojlangan (1-jadval)¹².

1-jadval

Pensiya tizimlarining guruhlanishi

Davlat pensiya tizimlari	Xususiy pensiya ta'minoti bilan to'ldirilgan davlat pensiya tizimlari	Davlat pensiya ta'minoti bilan to'ldirilgan xususiy pensiya tizimlari	Xususiy pensiya tizimlari
Sovet Ittifoqi va boshqa sosialistik mamlakatlar, Italiya, Singapur	AQSH, Kanada, Avstraliya, Germaniya	Buyuk Britaniya, Yaponiya	Chili

Boshqa guruh mutaxassislar pensiya tizimlarini tashkil etishning anglosakson (Beveridj modeli) va kontinental (Bismark modeli) tizimlarini farqlashadi¹³. Ularning fikricha Beveridj modeliga (Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada) xos xususiyatlар quyidagilardan iborat: ish haqi miqdorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining yuqoriligi (60-65%), taqsimot tizimiga ajratilayotgan badallar miqdorining kamligi (ish haqi miqdoriga nisbatan 12-14 % yoki YAIMga nisbatan 6-7 %), qo'shimcha pensiya jamg'armalarining mavjudligi (YAIMga nisbatan 3-4%).

Bismark modeli (Germaniya, Italiya, Avstriya, Fransiya) esa quyidagi xususiyatlarga ega: ish haqi miqdorining YAIMdagi ulushining kamligi (45-50%), badallar miqdorining yuqoriligi (YAIMga nisbatan 15 %gacha), qo'shimcha pensiya jamg'armalarining mavjudligi (YAIMga nisbatan 2-3%).

Boshqa guruh iqtisodchilar pensiya tizimini tashkil etishning quyidagi uch xil turini farqlashadi¹⁴.

Beveridj modeli. Buyuk Britaniya, Avstraliya, Irlandiya, Kanada va Shimoliy Yevropaning qator mamlakatlari uchun xos bo'lib, sobiq sovet pensiya tizimiga xos bo'lgan umumiy tamoyillarga ega.

Xususiy korporativ model. Ushbu model AQSH, Lotin Amerikasi mamlakatlari,

¹¹ Мосейко В. В. Генезис пенсионных систем как проявление социальной функции государства //Центр проблемного анализа и государственно-управленческого проектирования. 2008. <http://www.rusrand.ru/Doklad5/Moseiko.pdf>.

¹² Новиков А. А. Особенности эволюции зарубежных пенсионных систем // Мировая экономика и международные отношения. 2006. № 5.- С. 67

¹³ Роик В.Д. Эволюция пенсионных систем: мировые тенденции и опыт России //Человек и Труд. 2008. № 8. <http://www.chelt.ru/2008/8-08/roik808.html>.

¹⁴ Шатохин И.Г. Пенсионные системы в России и за рубежом: Учебное пособие/Мин-во образования Российской Федерации, Яросл. гос. ун-т им. П.Г. Демидова.-Ярославль: Изд-во ЯрГУ. 2002. -С7.

Portugaliya, Belgiya, Niderlandiya, Finlyandiyaga xos bo‘lib, ustun darajada nodavlat pensiya fondlari faoliyatiga asoslanadi.

Bismark modeli. Germaniya, Avstriya, Lyuksemburg, Fransiya, Italiya, Gresiya, Shveysariyada qo‘llaniladi. Ushbu model pensiya fondlarini shakllantirishda ish beruvchilar va yollanib ishlovchilarning teng qatnashishlariga asoslanadi.

2-jadval

IHHT mamlakatlarida pensiyaga chiqish yoshi va kutilayotgan umr davomiyligi¹⁵

Mamlakat	Pensiya yoshi (yil) e/a	Tug‘ilganda kutilayotgan umr davomiyligi		65 yoshda kutilayotgan umr davomiyligi	
		erkaklar	ayollar	erkaklar	ayollar
Avstriya	65/60	77,5	83,1	17,6	21,0
Belgiya	65/65	77,1	82,6	17,3	21,0
Vengriya	62/61	69,4	77,8	13,7	17,8
Germaniya	65/65	77,4	83,7	17,4	20,7
Irlandiya	66/66	77,4	83,1	17,1	20,1
Portugaliya	65/65	75,9	83,3	16,8	20,2
Slovakiya	62/62	70,6	78,4	13,6	17,5
Sloveniya	63/61	74,7	83,0	15,9	20,2
Buyuk Britaniya	65/60	77,3	81,7	17,4	20,1
Finlyandiya	65/65	76,0	73,1	17,0	21,3
Fransiya	60/60	77,4	84,4	18,2	22,7
Chexiya	63/63	73,8	80,2	15,1	18,5
Shvesiya	65/65	79,0	83,1	17,9	20,8
Estoniya	63/61	67,2	78,8	13,1	18,5
Rossiya	60/55	61,8	74,2	11,7 (60 yoshda - 14,1)	16,0 (55 yoshda - 23,6)

Davlat pensiya tizimining vazifalarini amalga oshirishda quyidagi ikki bir-biridan tubdan farq qiluvchi moliyaviy mexanizm farqlanadi: taqsimot va jamg‘ariladigan. Taqsimot tizimi “avlodlar birdamligi” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, pensionerlarga pensiya to‘lovleri keyingi avlod tomonidan to‘lanadigan badallari hisobidan ta’milanadi. Jamg‘ariladigan tizimda esa badallar pensionerlarga joriy to‘lovlarini amalga oshirish uchun emas, balki kapitallashtiriladi va investisiyalashdan olingan daromadlar bilan birlgilikda keyinchalik jamg‘arishni amalga oshirgan shaxslarning pensiya ta’minoti uchun foydalaniladi. Aksariyat mamlakatlarda pensiya tizimlarida taqsimot va jamg‘ariladigan tamoyillari birontasining ustuvorligi sharoitida aralash qo‘llaniladi.

Dunyo mamlakatlaridagi amal qilayotgan pensiya tizimlarini tahlil etishda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholining kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi va pensiyaga chiqish yoshi kabi ko‘rsatkichlarni hisobga olish lozim va ular pensiya darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadval

IHTT mamlakatlarida aholining yosh va jinsiy tarkibi bo‘yicha guruhlanishi,

¹⁵ Соловьев А.К. Пенсионные системы в контексте страховых принципов. //Журнал НЭА, №3(15), 2012. С.145.

mln. kishi¹⁶

Aholi guruhlari	2005 y.	2050 y.
Aholining umumiy soni	1129,6	1334,0
Erkaklar	554,5	652,0
Ayollar	575,1	681,9
0-15 yoshgacha	231,7	211,5
16-65 yoshgacha	750,5	785,8
65 va undan katta yoshdagilar	147,5	336,7
Boqimandalik ko'rsatkichi*	22%	47%

* 65 va undan katta yoshdagilar sonining 20-64 yoshdagilar soniga nisbati


Pensiyalarni moliyalashtirishning taqsimot modelini shakllanishi va rivojlanishi XX asrning 50-70 yillaridagi demografik portlash davriga to‘g‘ri keladi. Taqsimot tizimining ishonchliligi majburiy sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirayotgan ishlovchilar sonining pensionerlar sonidan ortiqligi hisobiga erishilgan.

Pensiyanı taqsimot tizimi quyidagi afzallikkarga ega:

- taqsimot mexanizmi yuqori daromadga ega bo‘lmagan kishilarning yuqori darajada himoyalanganligini ta’minlab bera oladi;
- iqtisodiy o‘sishga mos ravishda pensiyalar miqdorini real oshirish imkonini beradi;
- pensiyalar ishlayotgan fuqarolarning to‘lovleri hisobidan to‘lanayotgani uchun kishilarning pensiya olish huquqi tezda amalga oshiriladi.

Tahllillar ko‘rsatishicha ushbu tizimning samaradorligi demografik vaziyatning yomonlashuvi sharoitida keskin pasayib ketadi.

Ilmiy adabiyotda pensiya tizimlari moliyalashtirish usullari, badallarni amalga oshirish va to‘lovlnari hisoblash turi, ishchi, xodimlarning pensiya tizimida majburiy yoki ixtiyorli ravishda qatnashishiga qarab guruhlashtiriladi. Mutanosib ravishda pensiya ta’mintoning asosini taqsimot (avlodlar birdamligi), jamg‘arib boriladigan (kapitallashtirilgan) yoki aralash (taqsimot-jamg‘arib boriladigan) pensiya modellari tashkil etishi mumkin. Aralash pensiya tizimining joriy etilishi aholini ijtimoiy himoya qilish sifatini oshirish, pensionerlarni qo’shimcha pensiya bilan ta’minalash va ularning turmush darajasini oshirishni ko‘zda tutadi.



1-rasm. Pensiya tizimlarining turlari

Umumiy tarzda, mavjud pensiya tizimlarini quyidagi ikki guruhga ajratish

¹⁶Соловьев А.К. Пенсионные системы в контексте страховых принципов. //Журнал НЭА, №3(15), 2012. С.146.

mumkin:

1. Pensiya ta'minotining universal (milliy) tizimlari.
2. Sug'urta prinsipiga muvofiq tuzilgan pensiya ta'minotitizimlari.

Pensiya tizimlarini guruhlash jarayonida uning negiziga kuyidagi prinsiplar qo'yilishi lozim:

- aholining pensiya ta'minoti bilan qamrab olingan doirasi;
- pensiya olish huquqi uchun shart-sharoitlar;
- moliyalashtirish manbalari va prinsiplari.

Ana shu prinsiplar asosida yuqoridaq ikki guruhga ajratilgan pensiya tizimlarining har biriga tegishli bo'lgan o'ziga muhim xususiyatlar navbatdagi betda keltirilgan 4-jadvalda o'z aksini topmokda.

4-jadval.

Pensiya tizimlarining o'ziga xos xususiyatlari¹⁷

Mezonlar	Pensiya tizimlari	
	Pensiya ta'minotining sug'urta tizimlari	Pensiya ta'minotining universal tizimlari
Ta'minlanish darajasi	Standart	Minimal
Pensiya ta'minotining turi (ko'rinishi)	Oldingi daromaddan kelib chiquvchi pensiya	Oldingi daromaddan kelib chiqmaydigan bazaviy pensiya
Moliyalashtirish	Sug'urta badallari	Soliqlar
Pensiya ta'minoti huquqini olish uchun shart-sharoitlar	Sug'urta tashkilotiga a'zolik	Mamlakatning o'zida yashash yoki fuqarolik
Tashkil qilish	O'z-o'zini boshqaruvchi sug'urta fondlari	Davlat muassasasi

4-jadvalda o'zida ikki modelni mujassamlashtiruvchi pensiya tizimlarining bir-biridan farqli jihatlari ko'rsatilgan bo'lsa-da, hozirda bir-biridan butunlay farq qiladigan pensiya ta'minoti tizimi xususida gapirish unchalik o'rinli emas. Jahan amaliyoti tahlili ko'rsatishicha pensiya tizimlari real voqelikda sof holda emas, balki aralash holda faoliyat ko'rsatmoqda. XXI asr bo'sag'asida jahon amaliyotida ushbu modellarning yaqinlashuvi sodir bo'lib, jahondagi mamlakatlarning deyarli barchasiga xos bo'lgan demografik va iktisodiy voqeliklar bilan bog'langan hamda pensiya tizimlarini isloq qilishning zarurligini taqozo etmoqda. Bu, xususan, pensiyalarning universalligi prinsipini qo'llab-quvvatlab kelgan mamlakatlarda (masalan, Shvesiyada) oldingi (o'tgan) daromadlar bilan xarakterlanadigan pensiya sug'urtasi tizimini yaratish to'g'risida qonunning qabul qilinganligi yoki qo'shimcha pensiya ta'minoti tizimiga majburiylik xarakterining berilganligi (masalan, Buyuk Britaniyada) orqali namoyon bo'lmoqda. Bir vaqtning o'zida, shu yerda sug'urta pensiya tizimlarining asta-sekinlik bilan universallashib borish jarayoni ham kuzatilmoqda. Ushbu holat barcha pensionerlarga muvofiq keluvchi yashash minimumini ta'minlashga mo'ljallangan sxemalarni qo'llash yoki ularni takomillashtirish orqali ifodalanmokda.

Pensiya ta'minotining universal tizimlari mamlakat hududida yashayotgan barcha aholiga bazaviy pensiyalarning to'lanishini ko'zda tutadi. Odatda, bu tizim doirasida ko'plab bazaviy pensiyalarning mikdori oldingi ish haqining miqdoriga

¹⁷ Ваҳобов Д.Р. “Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида пенсия тизимини такомиллаштириш йўналишлари” –Т.: “Iqtisod-Moliya” 2012, 33-бет.

bog‘liq bo‘lmaydi. Ularning bir qismi sug‘urta badallari hisobidan moliyalashtirilsa, boshqa qismi esa davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Pensiyani olish uchun barcha shartlar to‘liq bajarilgandagina, pensiya to‘liq to‘lanishi mumkin. To‘liq bajarilishi lozim bo‘lgan bunday shartlar qatoriga fuqaroning mamlakatda o‘rnatilgan muddat doirasida yashaganligi, belgilangan vaqt davomida sug‘urta. badallarining to‘langanligi va boshqalar kiradi.

Pensiya ta’minotining universal tizimi dunyoning Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya, Shvesiya kabi mamlakatlari uchun xos. Ushbu mamlakatlarda pensiya tizimlarini tashkil qilishning umumiy prinsipial qoidalari mavjud bo‘lishiga qaramasdan, bu tizimlarga tegishli bo‘lgan prinsiplarning birortasi ham sof holda amalga oshirilmagan. Shuning uchun ushbu mamlakatlarda aksariyat pensiya tizimlari birinchi va ikkinchi modellarning prinsiplari asosida aralash tarzda faoliyat ko‘rsatmoqda. Pensiya ta’minoti universal tizimining ma’lumkamchiligi mavjud bo‘lib, u pensiya to‘lanmalarining yetarli darajada pastligi bilan xarakterlanadi.

Pensiya ta’minotining universal tizimidan farqli o‘laroq sug‘urta tizimlari quyidagi prinsiplarga tayanadi:

- iqtisodiy faol aholining ustuvor tarzda sug‘urta qilinishi;
- pensiya to‘lanmalarining, sug‘urtalanganlar va ish beruvchilarning badallari hisobidan moliyalashtirilishi;
- taqdim etilayotgan pensiya to‘lanmalarining sug‘urta stajiga va sug‘urtalanganning oldingi daromadi mikdoriga bog‘liqligi.

Ushbu prinsiplarga suyangan pensiya ta’minotining sug‘urta tizimlari Yevropa Ittifoqining Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya kabi mamlakatlarida amal qilmoqda. Bu mamlakatlardagi pensiya ta’minotining tizimlari uchun yagona konsepsiya xos bo‘lishiga qaramasdan, ularni moliyalashtirishda, tashkil qilishda va amalga oshirishda mamlakatlar o‘rtasidagi ayrim farqlar mavjud. Bu mamlakatlardagi pensiya ta’minotining sug‘urta tizimlari (modellari) o‘zida aralash sxemalarni mujassam etib, ular bir vaqtning o‘zida moliyalashtirishning taqsimlash metodlarini (majburiy pensiya sug‘urtalari) va ishlab chiqarish ta’minotining qo‘sishimcha pensiya dasturlaridan ham foydalanadilar. Juhon amaliyotida taqsimlash prinsipidan tashqari badallarni kapitallashtirish prinsipidan ham foydalanildi. Pensiya ta’minotining sug‘urta tizimlari uchun sug‘urta stajidagi uzilishlar mavsumiy bandlik bilan bog‘liq ayrim muammolar mavjud. Bu muammolarni qisman hal etishning yo‘llaridan biri pensiyalarning miqdorini Yevropa Ittifoqidagi boshqa mamlakatlardagi minimal darajagacha ko‘tarish hisoblanadi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, har bir mamlakatning pensiya tizimi o‘zining tarixiy rivojlanishiga ega. Bu tizim har bir mamlakat iqtisodiy tizimining rivojlanishiga muvofiq rivojlanadi va mutanosib ravishda yangi xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi. Dunyoda pensiya tizimi o‘zining davlat va nodavlat sektoriga ega bo‘lib, katta miqdordagi moliyaviy resurslarni mujassamlashtirgan.

Pensiya tizimi taraqqiyotining tahlili ular uchun xos bo‘lgan quyidagi belgilarni aniqlash imkonini beradi:

1.Har bir mamlakatda pensiya tizimini joriy etish iqtisodiy rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq. Pensiya ta’minoti umumiy ijtimoiy sug‘urta dasturining bir qismi

hisoblanadi. Pensiya ta'minoti tizimining asosiy ishtirokchilari davlat va xususiy pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari hisoblanib, ular xodimlar va ish beruvchilarning to'lanmalar shaklidagi (ko'rinishidagi) badallarini, bir tomonidan to'plagan holda boshqa tomonidan, taqsimlaydilar. Bir vaqtning o'zida, davlat o'z daromadlarining katta bir qismini pensiya ta'minoti dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirishi mumkin;

2.Davlat nodavlat pensiya ta'minotini tartibgasolib turadi. Bunda, ba'zi bir istisnolar bilan birgalikda,pensiya ta'minotining (tizimining) davlat va xususiy tizimlari bir-birini o'zaro to'ldiruvchilar sifatida foydalaniladi. Ushbu holat taraqkiyotning ijtimoiy maqsadlariga erishishda bozor bilan birgalikda taqsimlash davlat mexanimlarining ishtirok etishidan kelib chiqadi. Agar o'tgan davrlarda bu jarayonda davlat qayta taqsimlash mexanizmlaridan foydalanish ustuvorlik kasb etgan bo'lsa, keyingi yillarda esa pensiya tizimini o'z-o'zini moliyalashtirish prinsipiiga o'tkazishning zarurligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilmoqda;

3.Pensiya tizimini isloh qilish zarurligining globallashuvi islohotlar strategiyasining umumiyligi bilan xarakterlanadi;

4.Demografik va makroiqtisodiy omillarga muvofiq va ularning bevosita ta'siri ostida pensiya tizimlari o'zgarib boradi. Shu munosabat bilan ularga ma'lum muddatlarda tegishli o'zgartirishlarni kiritish zarur va tabiiy hisoblanadi;

5.Pensiya ta'minoti umumiyligidan xususiylikka qarab rivojlanib bormoqda. Bunda u pensiya ta'minoti ishtirokchilarida qo'shimcha moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlar shakllanishiga muvofiq ravishda tabaqlananadi.

Ta'kidlash lozimki, pensiya tizimi pensiya badallarini hisobga olish, to'plash, ularni investisiyalash, pensiyalarning miqdorini hisob-kitob qilish va ularni to'lash mexanizmi hisoblanadi. Umumiylar tarzda, pensiya tizimining daromadlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ish beruvchilar va xodimlarning sug'urta badallari;
- investisiyalashtirilgan kapitaldan olingan dividendlar;
- fuqarolarning ixtiyoriy ravishda o'tkaziladigan jamg'armalariga boshqalar.

O'z navbatida, pensiya tizimining xarajatlari umumiyligi ko'rinishda, pensiya to'lanmalari va ma'muriy boshqaruv xarajatlaridan tashkil topadi.

Xalqaro amaliyotda pensiya ta'minoti (tizimi)ning samaradorligi «daromadlarning qoplash koeffisiyenti» orqali o'lchanadi. Xalqaro Mehnat tashkiloti tavsiyasiga ko'ra qoplash koeffisiyenti 40 %dan kam bo'lmasligi lozim. Bir vaqtning o'zida, ushbu holatni aniqlashni boshqa mezoni «bog'liqlik koeffisiyenti» ham amaliyotda qo'llaniladi. Ushbu koeffisiyent pensionerlar sonining band bo'lgan xodimlar soniga nisbatli orqali hisoblanadi.

Fikrimizcha, pensiya tizimlarini guruhashda ularni moliyalashtirish usullari muhim belgi sifatida e'tirof etilishi lozim. Shunta kura, qayta taqsimlash tizimi birdam hisoblanadi va u pensionerlarning hayot kechirishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning hozirda ishlayotgan avlodlar hisobidan moliyalashtirilishini anglatadi. Ushbu tizim, odatda, davlat tizimi hisoblanib, o'zida ijtimoiy yo'naltirilgan pensiya ta'minotini mujassam etadi. Moliyalashtirishning qayta taksimlash prinsipi boyalar daromadlarining kambag'allarga, mehnatga qobiliyatilardan mehnatga qobiliyatsizlarga guruhlararo "qayta taqsimlanish"iga olib keladi.

Qayta taqsimlash tizimi uchun xos belgi ham mavjud. Bu belgi “yashirin qarzning” mavjudligi bilan belgilanadi. “Yashirin qarzning” ko‘lami esa “bog‘likdik koeffisiyenti”ning darajasiga to‘g‘ri proporsional hisoblanadi. Ushbu tizimni kamchiligi shundaki, avlodlarning birdamligiga muvofiq aholining qarishi tufayli ishlovchilar sonining qisqarishi pensiya tizimi daromadlarining qisqarishiga olib keladi.

Qayta taqsimlash tizimidan farqli o‘laroq, jamg‘ariladigan pensiya tizimlari qarilikda har bir shaxsning u tomonidan ilgari jamg‘arilgan kapitalning iste’mol qilinishini taqozo etadi. Bu tizimda pensiyalar moliyaviy jihatdan to‘la qoplangan bo‘lib, aholi yosh tarkibiy tuzilmasining ta’siridan xolis hisoblanadi. Jamg‘ariladigan pensiya tizimida kapital qo‘srimcha daromad olish maqsadida investisiyalashtiriladi. Bu tizim o‘zining iqtisodiy tabiatiga ko‘ra bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lib, iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi va uzining yuki bilan mamlakatning YAIMiga bosim o‘tkazmaydi.

Pensiya tizimlarini turkumlarga ajratishning muhim belgisi pensiya to‘lanmalarini hisob-kitob qilishning tipi va qo‘llanilayotgan soliqqa tortishning ko‘rinishidir. Agar pensiyani qayta taqsimlash tizimida soliqqa tortishning roli minimumga keltirilgan bo‘lsa, jamg‘ariladigan tizimda esa moliyaviy taraqqiyot strategiyasi nuqtai-nazaridan soliqqa tortish rejimini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, soliqqa tortish rejimi o‘tkazilayotgan pensiya ta’minoti islohotlarning sur’atlariga o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sirini ko‘rsatadi. Bunday to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish o‘ziga xos tarzdagi to‘siq shaklida namoyon bo‘ladiki, unga muvofiq pensiya badallari zaruriy to‘lanmalarni moliyalashtirish uchun yoki investisiya maqsadlariga foydalanishi mumkin. Jamg‘ariladigan pensiya tizimida moliyaviy resurslar badallarni o‘tkazish bosqichida, investision daromadni hisob-kitob qilish, mablag‘larning o‘sishi va to‘lanmalarni to‘lash bosqichida soliqqa tortiladi.

Umuman pensiya tizimining taraqqiyoti ziddiyatli xarakterga ega. Bu, bir tomonidan, xodimlarning keksalik yoshi, mehnat qobiliyati, bokuvchisini yo‘qotganda daromadlardan mahrum bo‘lishdan himoya qiluvchi va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi tizim bo‘lsa, ikkinchi tomonidan esa, pensiya tizimi mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida uning moliyaviy resurslarini qayta taqsimlashda ishtirok etadi.

Pensiya tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishida kuyidagi ikki omil, ya’ni 1) ishlovchilarning motivasiysi, 2) ularning sug‘urta badallarini to‘lashdan manfaatdorliklari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, pensiya tizimining samaradorligi uning a) makroiqtisodiy, b) moliyaviy, v) tashkiliy, g) funksional jihatlariga bevosita bog‘liq.

Pensiya tizimini samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini aniqlashda quyidagi ilmiy xulosalar olindi:

1.Ijtimoiy sug‘urta, bir tomondan, institutlar tizimi bo‘lsa, ikkinchi tomondan aholini ijtimoiy himoya shakllaridan biridir. Shuningdek, ijtimoiy sug‘urta turli ijtimoiy xatarlardan muhofaza qilish bo‘yicha hukuqiy, iqtisodiy, tashkiliy tadbirlar majmui hisoblanadi;

2.Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy sug‘urtaga nisbatan ikkita yondashuv mavjud: a) ijtimoiy sug‘urta aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat tizimining bir qismi bo‘lib,

uning o‘ziga xos xususiyati – ishlaydigan fuqarolarni qonun bilan belgilangan tartibda moddiy va ijtimoiy holatida ehtimoli bo‘lgan o‘zgarishlardan, shu jumladan, ularning o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlar bo‘yicha sug‘urtalashdir; b) ijtimoiy sug‘urta - davlat tomonidan tashkil etiladigan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy tadbirlar tizimi bo‘lib, ishlaydigan fuqarolarning moddiy va ijtimoiy holatida yuz bergen o‘zgarishlarni qoplash yoki minimallashtirishga qaratilgan;

3.Ijtimoiy sug‘urta ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida milliy daromadni qayta taqsimlash bo‘yicha munosabatlар tizimi bo‘lib, xodimlar va ish beruvchilarning majburiy sug‘urta badallari hisobiga maxsus sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va bu jamg‘arma mablag‘larini muayyan universal ijtimoiy risklarga uchrush oqibatida yo‘qotilgan mehnat daromadlarini qoplash yoki saqlash uchun foydalanishdir;

4.Hozirgi kundagi ijtimoiy sug‘urtaning fundamental asoslari Yevropa mamlakatlarida fuqarolik jamiyatini shakllantirish doktrinasi va real amaliyoti doirasida yaratilgan. Uning tarkibiy elementlariga quyidagilar kiradi: a) shaxsning erkin rivojlanishi – shaxsiy xavfsizlik va biror-bir tarafdan kishi erkinligiga tajovuz qilishga yo‘l qo‘ymaslik; xususiy mulk va shaxsiy hayot xuquqi; yakka shaxslar o‘rtasida, yakka shaxslar va turli hamjamiyatlar o‘rtasida erkin shartnomalarni munosabatlari; individual farkdarni e’tirof etish va boshqa shaxslarga hurmat ko‘rsatish; b) o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zaro yordam, hamkorlik,adolat, kasb va guruh sha’ni prinsiplari asosida jamiyatning o‘zini-o‘zi tashkil etish mexanizmlari yordamida kishilar turli guruhlari, tuzilma va birlashmalarining erkin rivojlanishi;

5.Har qanday mamlakatning pensiya tizimi, shu jumladan O‘zbekiston pensiya tizimi sug‘urta asosida shakllantiriladigan va aholining ma’lum bir ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lari fondini Pensiya fondini shakllantirish va undan foydalanishga asoslanadi;

6.Umuman mavjud pensiya tizimlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- a)pensiya ta’mintoning universal (milliy) tizimlari;
- b)sug‘urta prinsipiga muvofiq tuzilgan pensiya ta’mintonitizimlari.

7. Pensiya tizimi ushbu guruhlarga ajratilayotgandaquyidagi prinsiplarga asoslanishi lozim:a) aholining pensiya ta’moti bilan qamrab olingan doirasi; b) pensiya olish huquqini shart-sharoitlari;v) moliyalashtirish manbalari va prinsiplari;

8. Pensiya tizimi taraqqiyotining tahlili uning uchun xos bo‘lgan qator xarakterli belgilarni aniqlash imkonini berdi. Ularning muhimlari quyidagilardan iborat: a) har bir davlatda pensiya tizimini joriy etish mamlakatni iqtisodiy rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq; b) davlat nodavlat pensiya ta’mintoni tartibga solib turadi; v) pensiya tizimini isloh qilish zarurligini globallashuvi islohotlar strategiyasining umumiyligi bilan xarakterlanadi; g) demografik va makroiqtisodiy omillarga muvofiq pensiya tizimlari o‘zgarib boradi; d) pensiya ta’moti (tizimi) umumiylikdan xususiylikka qarab rivojlanib bormoqda;

9.Pensiya tizimlarini turkumida moliyalashtirish usullari muhim belgi sifatida e’tirof etilishi lozim;

10.Pensiya tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishida kuyidagi ikki omil, ya’ni ishlovchilarning motivasiysi va ularning sug‘urta badallarini to‘lashdan manfaatdorliklari alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda, pensiya tizimining samaradorligi uning makroiqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va g) funksional jihatlariga

bevosita bog‘liq.

Xorijiy mamlakatlardagi modellarda pensiya tizimi byudjetdan tashqari pensiya fondlari, jamg‘arib boriladigan xususiy pensiya tizimi, davlat ijtimoiy sug‘urta fondlari, majburiy tibbiy sug‘urta fondlari, aholi bandligi fondlari ko‘rinishida ifodalanadi. Jahon mamlakatlari pensiya tizimini islox kilishning tajribalari taxlili asosida uch konsepsiyanı alohida ajratib kursatish mumkin. Birinchi konsepsiya – davlat pensiya tizimini korxona doirasida, kasbiy va individual tizimlar bilan to‘ldirishni nazarda tutadi. Ikkinci konsepsiya – pensiya tizimining sug‘urtaviy ekvivalentligini ta’minlashga yo‘naltirilganligi. Uchinchi konsepsiya – pensiya ta’minotini davlat nazorati va qo‘llab-quvvatlash asosida xususiy sug‘urta kompaniyalariga yuklashni nazarda tutadi.

Tahlillar, ijtimoiy sug‘urtani rivojlantirish samaradorligini oshirishda tarixan va hozirda hal qiluvchi o‘rnini pensiya tizimi o‘ynayotganligini aniqlashimiz mumkin. Shu munosabat bilan boshqa mamlakatlarning pensiya tizimi kabi O‘zbekiston pensiya tizimi ham sug‘urta asosida shakllantiriladigan va aholining ma’lum bir ehtiyojlarini qondirish uchun yo‘naltirilgan Pensiya fondini shakllantirish va undan foydalanishga asoslanadi. Shu ma’noda, ijtimoiy sug‘urtani rivojlantirish samaradorligini oshirishda pensiya tizimining o‘rnini baholash, Pensiya jamg‘armasiining mazmun-mohiyatini aniqlab olish alohida ahamiyat kasb etadi.

XXI asr boshlarida jahonda birdamlik va jamg‘arilish tizimlariga asoslangan pensiya tizimlari amal qilmoqda. Birdamlik pensiya tizimi avlodlar, ish beruvchilar va ishlovchilar, yuqori va past ish haqi oluvchi xodimlar birdamligiga asoslangan va u birdamlik tamoyili asosida moliyalashtiriladi. Birdamlik pensiya tizimi davlatga tegishli bo‘lib uni korxona va tarmoq miqyosida tashkil etish mumkin emas va umuman pensiyaning yuqori darajasini nisbatan qadrsizlanishiga olib kelmoqda. Birdamlik tizimining muhim jihat shundaki u qayta taqsimlash tamoyiliga asoslanganligi uchun pensionerlar o‘rtasida kambag‘allikni, qashshoqlikni jiddiy kamaytiradi. XX asrning 70-yillariga kelib birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimida pensiya fondlarining moliyaviy beqarorligi kuchayib pensiya fondiga to‘lanadigan to‘lovlarni oshirish ehtiyoji kuchayib byudjetdan transfertlarni ajratish zarurati vujudga keldi. Birdamlik pensiya tizimining salbiy jihatlariga davlatning pensiya tizimining monopol holatga ega bo‘lishi, tenglashtirish elementlarini kuchayishi, ijtimoiy boqimandalikni ortishi va aholini jamg‘arishga bo‘lgan moyilligini susayishini kiritish mumkin. Masalan AQShning YAIMda aholi shaxsiy jamg‘armalarining ulushi XX asrning 60-70-yillarida 8%ni tashkil etgan bo‘lsa, 90-yillarga kelib ushbu ko‘rsatkich 5% gacha tushdi.

Jahon amaliyoti ko‘rsatishicha samarali faoliyat yurituvchi davlat pensiya tizimlari quyidagi xalqaro talablarga javob berishi lozim:

- majburiy ishtirok – pensiya tizimi majburiy to‘lovlari hisobiga shakllanadi;
- moliyaviy barqarorlik – pensiya fondiga to‘lanadigan badallar to‘lanadigan pensiya summasini to‘liq qoplashi kerak;
- pensiya bilan ta’milanganlik – pensiya olish huquqiga to‘langan badallar hisobiga erishiladi va uning qiymati pension badallar qiymatiga va to‘lov davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi;

pensiya tizimi barqarorligini muntazam baholash.

4-mavzu: Davlat pensiya ta'minotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish.

REJA:

- 4.1. O'zbekistonda pensiya ta'minotini huquqiy-institutsiyal asoslari.
- 4.2. Davlat pensiya ta'minotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyoti holati va rivojlanish tendentsiyalari.
- 4.3. O'zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mezonlari, ko'rsatkichlari va omillari.
- 4.4. O'zbekistonda samarali pensiya tizimini shakllantirish yo'nalishlari va istiqbollari.

Pensiya qariganda, nogiron bo'lib qolganda, boquvchisini yo'qotganda fuqarolarga pul shaklida beriladi. O'zbekistonda 1928 yildan sanoatning alohida sohalarida ishlaydigan ishchilarga, keyinchalik barcha ishchilarga qarilik pensiyasini berish vujudga keldi. 1937 yilda esa xizmatchilarga ham pensiya berish amalga oshirila boshladi. Mamlakatimizda qishloq aholisiga pensiya va nafaqalar to'lash joriy qilindi. Shu tariqa mamlakatimizda butun mehnatkashlar hamda ularning oila a'zolarini o'z ichiga olgan yagona pensiya ta'minoti tizimi vujudga keldi va aholining pensiyalari ma'lum muddatlarda oshirib borildi. Ammo pensionerlarning pensiyalari miqdori faqat respublikamiz mustaqillikka erishgandan boshlab pensiya hajmida bosqichma-bosqich oshirib borilishi aholiga yordam tariqasida hozir amalga oshmoqda.

Davlat pensiyalari dunyodagi ko'plab mamlakatlarda mavjud bo'lib hozirda ham amal qilib kelmoqda. Bizning mamlakatimizda davlat pensiyalari qarigan hamda mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki butunlay yo'qotgan fuqarolarni, boquvchisini yo'qotgan oila a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlab turish uchun davlat tomonidan beriladigan moddiy ta'minot 1993 yil 3 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun asosida, "o'zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga ega bo'ldilar".

O'zbekiston hududida amal qilayotgan, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida "Yoshga doir pensiya olish huquqiga: erkaklar 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lganda, ayollar esa 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar" deb ko'rsatilganligi mamlakatimizda pensiya yoshi dunyodagi boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha farqli ekanligini guvohi bo'lish mumkin.

Amaldagi qonunchilikka asosan, yoshidan qat'iy nazar quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

1) Kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo‘lgan hodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 20 yil ishlagan bo‘lsalar (1-sonli ro‘yxat, I qism);

2) Bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida (shu jamladan, kon qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko‘mir, ma’danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan hodimlar – basharti, ular ana shu ishlarda kamida 25 yil ishlagan bo‘lsalar (1-sonli ro‘yxat, II qism);

3) Uchuvchilar va uchuvchi sinovchilar tarkibiga kiruvchi hodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo‘ysunuvidan qat’iy nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (1-sonli ro‘yxat, III qism); yuqorida qayd etib o‘tilgan hodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko‘ra uchish ishlarida bo‘shatilgan taqdirda, belgilangan xizmat muddatini – erkaklar 20 yil, ayollar 15 yil ado etgan bo‘lsalar;

4) Teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari: a) ijodiy ish staji kamida 20 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, IV qism); b) ijodiy ish staji kamida 25 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, V qism); v) ijodiy ish staji kamida 30 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, VI qism);

5) Sportchilarning ayrim toifalari – ish staji kamida 20 yil bo‘lganda (1-sonli ro‘yxat, VII qism).

Nogironlik pensiyalari qonun xujjalarda belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog‘ligini yoki mehnat qobiliyatini yoqotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek, nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tasdiqlaydigan ular to‘g‘risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan aniqlanadi. Mehnatda jarohatlanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat’iy nazar tayinlanadi. Umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to‘xtatilgandan keyin nogiron bo‘lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat’iy nazar tayinlanadi. Mehnatda jarohatlanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasiga o‘tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

Ijtimoiy pensiya quyidagilarga belgilanadi: 1 va 2 guruh nogironlariga, shu jumladan, bolalikdan nogironlarga, shuningdek, 3-guruh nogironlariga; 18 yoshgacha bo‘lgan ota-onasidan birini yoki ikkisini yo‘qotgan bolalarga, 60 va 55 yoshdagilarga (mos ravishda erkak va ayollarga).

Pensiya olish huquqiga ega oila a’zolari – boquvchisi vafot etganda uning qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari. Bunda vafot etgan boquvchining qaramog‘ida (O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 19 va 20-moddalari) bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a’zolari boquvchisini yoqotganlik pensiyasi olish huquqiga ega

bo‘ladi. Bunda farzandlarga va 19-moddaning “v” bandida ko‘rsatib o‘tilgan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog‘ida turgan-turmaganidan qat’iy nazar tayinlanadi. Marhumning qaramog‘ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag‘ manbaidan mahrum bo‘lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar. Quyidagilar oilaning mehnatga qobiliyatsiz a’zolari hisoblanadi: a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to‘lмаган bo‘lsa yoki 16 yoshdan katta bo‘lsa ham 16 yoshga to‘masdan nogiron bo‘lib qolgan bo‘lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onasi bo‘lmasa; b) ota, ona, o‘gay ota, o‘gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to‘lgan yoki nogiron bo‘lsalar; v) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat’iy nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka yoki opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralarini, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta’tilda bo‘lish huquqini beradigan yoshga to‘lunga qadar boqish bilan mashg‘ul bo‘lsa va ishlama; g) buva va buvi – agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo‘lgan kishilar bo‘lmasa, o‘quvchilar 18 yoshga to‘lunga qadar boquvchisini yoqotganlik pensiyasi olish huquqlariga egadirlar.

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlrida ham ushbu huquqni saqlab qoladilar. O‘gay o‘g‘il va o‘gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo‘lsalar, haqiqiy farzanlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar. O‘gay ota va o‘gay ona, agar vafot etgan o‘gay o‘g‘ilni (qizni) 18 yoshga to‘lunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo‘lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar. Ushbu Qonunning vafot etganlar oilalariga taalluqli barcha qoidalari bedarak yo‘qolganlarning oilalariga ham, agar boquvchisining bedarak yo‘qolganligi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lsa, tegishli ravishda joriy qilinadi (O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi Qonuning 19-moddasi).

Respublikamizda “Fuqarolarning davlat pensiya ta’mnoti to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingandan keyin o‘tgan davr mobaynida jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar hamda pensiya ta’mnotini moliyalashtirishda vujudga kelgan muammolar ushbu tizimni isloh qilish zarurligini taqazo etmoqda.

Pensiya ta’mnotini isloh qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- pensiya ta’motini bozor munosabatlari talablariga yanada moslashtirish;
- pensiyalarni moliyalashtirishdagi mavjud muammolarni hal qilish;
- pensiya ta’moti xarajatlarini kamaytirish, ularning maqsadli sarflanishi va pensiya to‘lovlarini amalga oshirish ustidan nazoratni kuchaytirish;
- pensiya ta’motini zamonaviy texnik usullar orqali boshqarish;
- davlat tasarrufida bo‘lмаган xususiy pensiya ta’moti tizimini yaratish.

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda pensiya ta’motini bozor munosabatlariga

moslashtirish va mehnat staji davomiyligining ahamiyatini yanada oshirish muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Pensiya to‘lashda faqatgina sug‘urta badallari to‘langan davrlarni inobatga olish zarur. Bularni hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- fuqaro ishlamagan, lekin hozirgi kunda stajga qo‘shiladigan davrlarni asta-sekin kamaytirish va keyinchalik umuman bekor qilish;
- imtiyozli tarzda stajga qo‘shiladigan davrlarni bekor qilish;
- pensiyalar tayinlashda ish haqi cheklovlarini qayta ko‘rib chiqish;
- pensiyalar miqdorini bevosita fuqaroning butun mehnat faoliyati davomida to‘lagan sug‘urta badallari miqdoriga bevosita bog‘lash fuqaro ishlamagan davri stajga qo‘shish yoki stajni imtiyozli tarzda hisoblashga ehtiyoj qoldirmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 42 ta Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan 2 mln. 941 ming nafardan ortiq fuqaroga har oyda 502,2 mlrd. so‘m, yil davomida 6026,7 mlrd. so‘m mablag‘ sarflanadi.¹⁸ Moliya vazirligining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tarkibida byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalanimishi ustidan nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘limmalarida tegishli bo‘limlar tashkil qilinib, ular tomonidan pensiya va nafaqalarning hisoblab chiqilishi ustidan tekshiruvlar amalga oshirilmoqda.

1-jadval

Respublikamizda 2004-2022 yillarda yagona ijtimoiy to‘lov va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari stavkalari, %da¹⁹

Yillar	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2022
Yagona ijtimoiy to‘lov	33	31	25	24	24	24	25	25	12/25
Majburiy sug‘urta badali	2,5	2,5	2,5	2,5	2,5	3,58	4,0	4,5	-

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, yuridik shaxslardan olinadigan yagona ijtimoiy to‘lov stavkalari 2004 yilda 33%, 2005 yilda 31% bo‘lgan bo‘lsa, 2006 yildan ushbu ko‘rsatkich pasayib, so‘nggi yillarda 12% va 25%ni tashkil qilmoqda. Fuqorolarning pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari 2019 yildan bekor qilindi.


1-grafik

Pensiya oluvchilarining tarkibi, 2022 yil 1 avgust holatiga, %da²⁰

¹⁸Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг маълумотлари.

¹⁹Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг маълумотларига асосан муаллиф томонидан тузилган.


²⁰Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида



2014 yilda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari 9700,0 mlrd. so‘m va xarajatlari 9056,7 mlrd. so‘m miqdorida belgilandi. Fuqarodlarning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy sug‘urta badallari stavkasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2013 yil 25 dekabrdagi PQ-2099-son Qarori asosida 6,5 foiz miqdorida belgilandi. 2015 yilda esa ushbu ko‘rsatkich 7,0 foizni tashkil qilishi belgilab qo‘yildi. 2019 yildan ushbu majburiy to‘lovni to‘lash tartibi bekor qilindi (2-grafik).

2-grafik.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan fuqarolar sug‘urta badallari meyori (jismoniy shaxslarning mehnatga to‘lov tarzidagi daromadlariga nisbatan %da)²¹



²¹ Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида

2011-2014 yyllarda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi faoliyati profisit bilan yakunlanib kelmoqda va ushbu davrda profisit miqdorining yuqori sur’atlarda o‘sganligi kuzatilgan. Bu yesa, Pensiya jamg‘armasining daromad bazasini mustahkamlash nuqtai nazaridan ijobiy holat hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari²²

Ko‘rsatkichlar	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2021 y.
Darormadlar mlrd. so‘m	6178	7583	9742	9700	38170
Xarajatlар mlrd. so‘m	6055	7474	9055	9056	36487
Profisit (defisit), mlrd. so‘m	123,4	109,5	686,6	643,3	1683

Mamlakatimizda pensiya ta’mnoti tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta’minlangan fuqarolarni tur mush darajasini ta’minalashga va qo’llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy xarakterga ega bo‘lgan qator chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirilishini nazarda tutadi. O‘zbekistonda ushbu tizim 3,3 mln.dan ortiq fuqarolarni o‘z ichiga olib, mamlakat aholisining taxminan 10 foizini qamrab oladi. Bunda, yoshga doir pensiya oluvchilari – 2 502,6 ming nafar, nogironlik pensiya oluvchilari – 360,3 ming nafar, boquvchisini yo‘qotganlik pensiya oluvchilari – 168,5 ming nafar va ijtimoiy nafaqa oluvchilari – 294,1 ming nafarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat pensiya ta’mnoti tizimini takomillashtirishga doir muayyan ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, umumqabul qilingan pensiya sug‘urtasi tamoyilini joriy etish bilan bog‘liq tizim modernizasiyasi amalga oshirilgan. So‘ngi yillarda ijtimoiy to‘lov larning yagona ish haqi bazasi shakllantirilgan, pensiya miqdorini hisoblab chiqish uchun hisobga olinadigan ish haqini bugungi kun holatiga keltirish (zamonaviylashtirish) mexanizmi qo’llanmoqda hamda fuqarolarga hisoblangan sug‘urta badallari yakka tartibdagi hisobini yuritish tizimi joriy etilgan.


Biroq, shu bilan birga, hanuzgacha munosib pensiya miqdorlariga erishishning aniq meyorlari joriy etilmasdan qolmoqda. Yetarli darajada yuqori ish haqi va ish stagi davomiyligiga ega bo‘lganlar hisobiga, sug‘urta badallari bilan qoplanmagan xarakterdagи pensiyalar to‘lanib kelinmoqda, hozirgacha aniq asoslarga ega bo‘lmagan imtiyozlar amalda bo‘lib, pensiya miqdori va sug‘urta badali o‘rtasidagi o‘zarobog‘liqlik tobora zaiflashmoqda.

²²Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасининг маълумотлари.

Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi yaqin keljakda kutilayotgan nomutanosiblik, o‘z navbatida, pensiya va boshqa ijtimoiy to‘lovlarini moliyalashtirishga to‘sinqilik qilishi quyidagi asosiy omillar bilan bog‘liq.

Demografik o‘zgarishlarning pensiya ta’mnoti tizimiga ta’siri. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo‘yicha yuklama tobora oshmoqda. Demografik bashoratlarga ko‘ra, 2018-2025 yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln. kishiga) oshishi kutilmoqda, bu esa, o‘z navbatida, Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.²³

2016 yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasida pensiya tayinlash uchun yillik murojaatlar sonini ortib borishi (yillik o‘rtacha o‘sish – 16 ming nafar fuqaro) kuzatilmoqda va 2025 yilga borib 300 ming nafarga ortishi kutilmoqda. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaatlarning asosiy o‘sishi, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan (50-60-yillardagi “Bebi-bum”) davrda tug‘ilgan fuqarolarning umumiyligi belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog‘liqdir²⁴.



2.3.1-rasm. Pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan fuqorlar soni²⁵.

Mamlakat aholisining qarib borishi ko‘rsatkichi shuni ko‘rsatadiki, pensiya yoshidagi aholining soni o‘sish tendensiyasiga ega (2010 yildagi aholining umumiyligi soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018 yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9 foizdan ortadi va 2025 yilga borib 11 foizga yetadi (2011 yildagi 6,2 foizga nisbatan).

²³ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.


²⁴ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.



2.3.2-rasm. Jami aholidan pensiya yoshidagi aholi ulushi (ming kishi)²⁶.

Shu bilan birga, fuqarolar pensiya ta'minoti tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu pensiya yoshi hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etadi, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun –58 yosh. Qozog'istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga yetkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo'li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi.



2.3.3-rasm. Ayrim mamlakatlarda pensiyaga chiqish yoshi²⁷.


Ijtimoiy sug'urta tizimini moliyalashtirishda aholining mutanosib ishtirokini ta'minlash zaruriyatি. Ijtimoiy badallar miqdori va to'lovlar o'rtasida mutanosiblilikka rioya etish, band bo'lган aholining pensiya ta'minotini sug'urtalanganlik xarakterini ta'minlovchi asosiy prinsip hisoblanadi hamda pensiya tizimini moliyalashtirishda o'zining moliyaviy ishtirokini rag'batlantiruvchi ta'sir mexanizmi sanaladi.

Fuqarolarning ijtimoiy sug'urta tizimida uzlucksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag'batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo'lmasdan qolmoqda, buning

²⁶ Ўзбекистона Республикаси статистика қўмитаси. <http://stat.uz/>.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги Бюджетдан ташкири Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.

natijasida mehnatga layoqatli aholining deyarli 60 foiz (qariyb 17 mln. kishi), tahminan 10,2 mln. kishi davlat ijtimoiy sug‘urtasi bilan qamrab olinmagan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy ajratmalarini amalga oshirmayapti.



2.3.4-rasm. Ish stajiga muvofiq o‘rtacha pensiya miqdori²⁸.

Halqaro mehnat tashkilotining talabariга muvofiq, fuqarolarning pensiya ta’moti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 1 : 4 darajada bo‘lishi ko‘rsatilgan. Biroq, bugungi kunda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1: 1,5 ga teng. Ta’kidlash joizki, pensionerlar sonining ishlovchi aholiga nisbati 2009 yildagi 61 foizdan 2017 yilda 66 foizga o‘sgan²⁹.

Moliyaviy mablag‘larni taqsimlashdagi samarasiz instrumentlar va ijtimoiy sug‘urtadagi rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sezilarli qismi imtiyozli pensiyalarini moliyalashtirishga sarflanadi. Imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizni tashkil etib, shundan, yoshga doir pensiyalar 23,7 foizni tashkil etadi. Yiliga o‘rta hisobda 39,8 mingta imtiyozli pensiyalar tayinlanmoqda. Shu bilan birga imtiyozli pensiyalarning o‘rtacha miqdori yoshga doir pensiyalarning o‘rtacha miqdoridan (543,2 ming so‘m) yuqori bo‘lib, 3 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha pensiyalar 742,6 ming so‘mni, 2 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha pensiyalar 951,3 ming so‘mni va 1-sonli Ro‘yxat bo‘yicha pensiyalar 1 025,4 ming so‘mni tashkil etadi³⁰.

Shuningdek, pensiya miqdori va xodimning mehnat davomiyligi ulushi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham sezilarsiz. Amaldagi pensiya ta’moti tizimi, 7 yildan kam bo‘lmagan stajga ega bo‘lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi.

Ushbu huquq faqatgina 7 yil ishlab va o‘zining butun mehnatga layoqatlilik davri uchun Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishda eng kam hissa qo‘sghan shaxslarga pensiya olish imkonini beradi.

²⁸ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.

²⁹ Ўзбекистона Республика статистика қўмитаси. <http://stat.uz/>.

³⁰ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.

Halqaro mehnat tashkilotining “Ijtimoiy ta’minotning minimal meyorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiq, yoshga doir pensiyani tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish stoji 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko‘plab davlatlari, shu jumladan MDH davlatlarida talab etilgan eng kam ish stoji 10 – 15 yil darajasiga yetkazilgan.

Ish stajiga nisbatan 7 yil davomiylikdagi minimal talabning mavjudligi fuqarolarning davlat ijtimoiy sug‘urtasidagi ishtirokida salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Masalan, hozirgi vaqtida ish haqining o‘rtacha darajasida 30 yil ish stajiga (talab etilgan – 25 yil) ega bo‘lgan erkak kishining pensiya miqdori bilan 10 yillik ish stajiga ega bo‘lgan (minimal talab etilgan – 7 yil) erkak kishining pensiya miqdori o‘rtasidagi farq taxminan 200 ming so‘mni tashkil etadi.



2.3.5-rasm. Ayrim davlatlarda pensiya uchun talab etiladigan eng kam ish stoji³¹.


Ishlovchilarning ijtimoiy sug‘urtadagi uzoq muddat va uzluksiz ishtirokini rag‘batlantirishdagi zaif mexanizmlar ularni sug‘urta badallarini to‘lamaslikning yangi usullarini qidirishga majbur etadi.

Bularning barchasi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining pensiya ta’minti sohasidagi asosiy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni va bu borada jahon tajribasini chuqur tahlil qilgan holda tizimli islohotlar o‘tkazishni taqozo etadi. Jumladan, Yaponiyada pensiya ta’minti tizimini isloh etishda usutvor qilib belgilangan yo‘nalishlar, amalga oshirilgan chora-tadbirlarning O‘zbekiston amaliyoti uchun mos keladigan shakllarini aniqlash muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda demografik vaziyat Yaponiya demografik holati darajasida salbiy bo‘lmadasa yuqorida keltirib o‘tilganidek pensiya tizimi xarajatlarining muntazam oshib borishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 73.8 yoshga yetdi. Jumladan, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 76.2 yoshni, erkaklar umr ko‘rishg davomiyligi esa 71.4 yoshni tashkil etmoqda.

³¹ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги Бюджетдан ташкари Пенсия жамғармаси <http://pfru.uz/>.



2.3.6-rasm. O‘zbekistonda kutilayotgan umr davomiyligi³².

Honadonlarimizning ko‘rki bo‘lgan keksalarimizni moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning o‘zida 2 mln. 750 ming nafr otaxon va onaxonlarimizning pensiya miqdori 20 foizdan ziyod ko‘paytirilib, ularga davlat byudjeti hisobidan 12 trln. 888 mlrd. so‘m pensiya to‘langani, o‘z vaqtida va uzluksiz yetkazib berilganini alohida ta’kidlash joiz. Bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag‘ning miqdori dunyodagi kamdan-kam davlatlar qatoriga o‘rtacha oylikning 41 foizidan ziyodini tashkil etadi³³

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, fuqarolarga pensiya ta’minlashning amaldagi tizimini takomillashtirish, mavjud ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishni davrning o‘zi taqazo qilmoqda. Mamlakat iqtisodiy salohiyati va aholi ijtimoiy muhofazasi bilan bog‘liq ushbu masalada belgilangan qonun-qoidalarga qat’iy amal qilinishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

³² Ўзбекистона Республикаси статистика қўмитаси. <http://stat.uz/>.

³³ Каримов И.А. асосий вазифамиз – жамиятимизни ислоҳ этиш ва демократлашириш, мамлакатимизни модернизация килиш жараёнларини янги боскичга кўтаришдан иборат. Халқ сўзи, 6.12.2015 й. №236 (6419)

5- mavzu: O'zbekistonda pensiya tizimining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

REJA:

- 1.1. O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlari va huquqiy-institutsional asoslari***
- 2.2. O'zbekiston pensiya tizimining tarkibi va moliyaviy manbalari***
- 3.3. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya tizimining joriy etilishi va amal qilish mexanizmi***
- 4.4. O'zbekiston davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning ustuvor yo'nalishlari.***

1. O'zbekiston pensiya ta'minoti tizimining shakllanish bosqichlari va huquqiy-institutsional asoslari

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida milliy pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish milliy pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasini samarali boshqarishga bevosita bog'liq.

Pensiya ta'minotining ijtimoiy nuqtai nazaridan muhimligi fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, inson manfaatlarini ko'zlaydi. Islohotlar jarayonida respublikamizda aholining ijtimoiy himoyasi, uni qo'llab-quvvatlash, inson huquqlari va erkinliklarining huquqiy asoslarini shakllantirish va amalga oshirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi.

Pensiya tizimining o'rta va uzoq istiqboldagi maqsadi pensionerlarning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratishdir. Fuqarolar pensiyaga chiqqanidan so'ng o'zini himoyalangan his qilishi uchun pensiyaning eng kam miqdorini, yosh bo'yicha va nogironlik pensiyalarini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq mauammolar shundaki, 2030 yilga borib mamlakatimizda pensionerlar soni ikki baravar ko'payadi³⁴. Shuningdek, mehnatga layoqatli aholining jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga qamrab olishni kengaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng sobiq ittifoqdan meros qolgan va 1993 yilga qadar amalda bo'lgan pensiya tizimiga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. 1993 yilda SSSR Pensiya fondining respublika bo'limi bazasida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy sug'urta fondi tashkil etildi va Fuqarolarning pensiya to'lovlarini to'g'risidagi Qonuni qabul qilindi.

³⁴ <http://podrobno.uz/cat/obchestvo/uzbekistan-chislo-pensionerov/>

Bu esa mablag‘lar yetishmasligiga qaramasdan Pensiya jamg‘armasining moliyaviy holatini barqarorlashtirish va mustaqillikning dastlabki yillarda pensiya ta’minoti tizimining barqaror ishlashiga erishish imkonini berdi. Ushbu davrda Respublikada 3,0 milliondan ortiq pensionerlar, 600 mingga yaqin nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtojlar har oy pensiya va nafaqa olishgan³⁵. Hukumat tomonidan qabul qilingan chora-tadbirlar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va jamiyatda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy keskinliklarning oldini olishga ko‘maklashdi. Shu bilan bir vaqtda mustaqillikning ilk yillarda ishlab chiqarishning pasayishi, aholi real daromadlarining qisqarishi, inflayasiyaning o‘sishi va daromadlarni taqsimlash, qayta taqsimlashda bozor mexanizmining mavjud emasligi pensiya ta’minoti tizimini tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarish tamoyillarni qaytadan ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bozor munosabatlari markazlashgan davlat ijtimoiy va pensiya sug‘urtasi tizimlarining quyidagi kamchiliklarini yuzaga chiqardi:

- soliq to‘lovchilar uchun moliyaviy yukni ilmiy asoslangan holda baholash amaliyotining mavjud emasligi;
- jamg‘armalarni boshqarish jarayonida sug‘urtalanuvchilarning qatnashmasligi;
- ijtimoiy, kasbiy risklar va sug‘urta badallari miqdori o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik va baholashlarning mavjud emasligi;
- pensiya miqdorini shakllantirish mexanizmi va mehnat faoliyati natijalari o‘rtasida uzilishning mavjudligi;
- ayrim guruh pensionerlar uchun asoslanmagan imtiyozlar va ustamalarning mavjudligi.

Bu vaqtga kelib sobiq SSSR Pensiya Fondi tomonidan mablag‘lar kelishi to‘xtatilgan bo‘lib, to‘lovchilardan tushadigan tushumlar asosan mustaqil O‘zbekiston tomonidan milliy lashtirilgan sobiq korxonalar tomonidan beriladigan tushumlardan shakllantirdilar. Bundan tashqari ijtimoiy sug‘urta Fondiga vaqtinchalik ishga layotqatsizlik, xomiladorlik va tug‘ish, bola parvarishi va dafnga beriladigan to‘lovlarga ajratilgan mablag‘larning bir qismi ham berilgan edi.

Davlat ijtimoiy sug‘urtasi va pensiyalar uchun mablag‘larning yig‘ish va to‘plash bo‘yicha ishlar sezilarli darajada yaxshilandi, to‘lovlarga qaratilgan harajatlarni nisbatan to‘liq moliyalashtirish barqarolrlashdi, tashkilotlardan hamda hodimlardan sug‘urta to‘lovlarning to‘lanishi intizomi va mu’suliyati oshdi. Chet el kapitali ishtirokidagi qo‘shma korxonalar va fuqarolarning yakka hamda jamoaviy mehnat faoliyati shakllari birinchi bor majburiy to‘lovlar bilan jalb qilindi.

Pensiya fondining barcha viloyat va tumanlardagi ma’muriy bo‘linmalari qayta tashkil etilib, ular asosida ijtimoiy sug‘urta Fondining vakolatli bo‘limlari tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy sug‘urta Fondining tuzilishi bilan bir vaqtda 1993 yil sentabrida yangi «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining pensiya ta’minoti to‘g‘risida» Qonuni qabul qilindi. Unda fuqarolarning pensiya ta’midotidagi konstitusion kafolatlari, asosiy qonuniy asoslari hamda tamoyillari belgilab berildi.

Tashkil etilgan ijtimoiy sug‘urta Fondining yangi tizimi mablag‘larning yetishmasligi, inflayasiyaning o‘sishi va ishlab chiqarishning kamayishi, fuqarolarning

³⁵ Умурзаков Б. Х. Совершенствование пенсионного обеспечения Узбекистана в условиях модернизации национальной экономики //ЭКОНОМИКА РЕГИОНА № 1/2011. С.218.

daromadlari pasayishi kuzatilayotgan og‘ir sharoitida davlatning aholining ximoyaga muhtoj qatlamlari oladigan ijtimoiy vazifalarini bajarishiga imkoniyat berdi.

18.1.1-jadval

O‘zbekiston pensiya tizimining shakllanish bosqichlari

Yillar	Institut	Huquqiy asosi
1991	SSSR Pensiya fondining O‘zbekiston Respublikasi bo‘limi	O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 14 yanvardagi 9-son Qarori
1993	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi	Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston kasaba uyushmalari federasiyasi Kengashining 1993 yil 4 avgustdagi 391- son Qarori
1996	O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabrdagi 459- son Qarori
2001	O‘zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi 444-son Qarori
2005	O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi	O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004 yil 21 oktabrdagi 490- son Qarori

Biroq, iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi, yangi mulkchilik shakllari va erkin xo‘jalik munosabatlarining vujudga kelishi yo‘sinda ijtimoiy sug‘urta Fondiga sug‘urta mablag‘larini yig‘ish, to‘lovlarning to‘liqligi va o‘z vaqtida amalga oshirilishi, pul mablag‘larini to‘g‘ri va samarali ishlatilishini nazorat qilish barasidagi asosiy vazifalarni bajarish borgan sari qiyinlashib bordi. Pensiya va to‘lovlarning to‘lash uchun mablag‘larining yetishmasligi ancha sezilarli darajada bilina boshladи.

Dastlabki bosqichda sug‘urta to‘lovlarning ijtimoiy sug‘urta Fondiga yig‘ilishi bo‘yicha ma’suliyat faqat Fondning o‘zida bo‘lgan bo‘lsa, harajatlarining hajmi, taqsimlash va qayta taqsimlash mexanizmlari, pensiya va to‘lovlarning qonuniy rasmiylashtirilishini asoslab berish, ularni hisobga olish, hisobotlarini tayyorlash va yetkazib berishga 5 – 6 ta teng kuchli vazirliklar va muassasalar javobgar bo‘lib, ularning yo‘riknomasi va ko‘rsatmalari ba’zi xolatlarda bir-biriga zid bo‘lar edi. Pirovard natijada fuqarolarga pensiya va to‘lovlarni rasmiylashtirish va amalga oshirishdagi tezkorlik, nazorat va samaradorlik yo‘qolar edi.

Natijada 1996 yil 27 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi qoshida Pensiya Fondini tashkil etish to‘g‘risida”gi №459 sonli Qarori qabul qilindi

1996 yilda Ijtimoiy sug‘urta fondi mustaqil moliya tashkilotiga aylantirildi va O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari

Pensiya fondi shaklida pensiya ta'minotini tartibga solish vakolatiga ega bo'ldi. 1997 yildan boshlab fond mablag'lari davlat byudjeti doirasida jamg'arila boshlandi va faqat oldindan belgilab qo'yiladigan maqsadlar uchun ishlatila boshlandi.

Pensiya ta'minoti uchun majburiy to'lovlarning kelib tushishi va pensiya hamda to'lovlarning o'z vaqtida ishlatilishi O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligiga yuklatildi, Ijtimoiy ta'minot vaziri bir vaqtning o'zida Pensiya fondining Raisi vazifasini bajarishi belgilandi. Bu O'zbekistonda pensiya ta'minotinig tashkiliy tuzilishi va ishslash tamoyillarini tubdan o'zgartirdi. Birinchidan, pensiya to'lovlarini moliyalashtirishning hajmlari va buyurtmalarini shakllantishirning ko'p bosqichli jarayonidan voz kechilib, pensiyalarni rasmiylashtirish va to'lash bitta idora - Ijtimoiy ta'minot vazirlikning vakolatiga o'tkazildi, bu esa pul mablag'larining harakatlarish jarayonini vaqt o'lchamida ancha qisqartirdi, hisobot ma'lumotlarining hakikiylik darajasini ko'tardi va to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minladi.

Hukumatning ushbu qarori bilan Pensiya fondining mablag'lari ko'payishining quyidagi manbalari va kelib tushuvchi to'lovlarning qo'shimcha shakllari belgilab berildi: pensiya tizimini islohoti bilan bog'lik xalkaro shakldagi munosabatlarni amalga oshirishga va yolg'iz, nogiron hamda boshqa toifadagi fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash buyicha davlat dasturlarini shartnomaga asosida mablag'lashtirishdagi tushumlar. Ushbu manbalar yolg'iz, keksa va nogironlarning sanitar-kurort davolanishi bilan bog'lik turli tadbirlarga qo'shimcha mablag'larni ko'paytirishga imkon yaratdi. Chet el nodavlat fondlari tomonidan taqdim etilgan mablag'lar hisobiga pensiya fondi va ijtimoiy ta'minot tizimlarining kompyuterlashtirish dasturlari amalga oshirildi.

Pensiya fondiga korxonalar tomonidan ularning mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar ish haqi fondidan to'lanadigan sug'urta to'lovlari birinchi bor 36 foizdan 37,3 foizgacha, fuqarolardan esa 1 foizdan 2,5 foizgacha ko'tarildi. Bundan tashqari, Pensiya fondining xarajatlaridagi defisitni yopish uchun 1997 yil 1 yanvar kunidan boshlab mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar barcha korxona, tashkilot va muassasalardan ularning sotgan maxsuloti (xizmati)ning xajmidan, ulguji va chakana apteka muassasalaridan esa qo'shimcha umumi daromaddan 0,5 foizli majburiy to'lovlar joriy qilindi. Shu bilan birga muddatdan avval nafaqaga chiqish uchun korxonalar tomonidan qoplanadigan mablag'larni, to'lov va nafaqa badallarini o'z vaqtida o'tkazmaslik uchun jarima sanksiyalari (peni) ko'tarildi. Bu tadbirlar Pensiya fondining pul mablag'larini sezilarli darajada to'planishiga olib kelib, nafaqa pullari va muxtojlarga to'lovlarini vaqtida mablag'lashtirishni ta'minladi.

Birinchi bor 1997 yil 1 yanvardan boshlab Pensiya fondining pul mablag'lari ushbu fondning mablag'larini maqsadli shakllantirilishi va ishlatirishi saqlangan holda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga ko'shilishi belgilab ko'yildi.

Pensiya fondi tarkibiy tuzilishining reorganizasiyasi hududiy miqyosida ham amalga oshirilib, Fondni boshqarish tizimini soddallashtirdi.

Bundan tashqari Pensiya fondini faoliyati uchun harajatlari kamaytirilib, bir-birini qaytaradigan xizmatlar tugatildi.

2000 yilda sohaviy tizimlarining boshqaruvning yuqori bo'g'inlarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'p vazirlik va idoralari tugatilib, ularning vakolatlari hududiy boshqarish idoralari umumi va tashkiliy-yo'riqnomaviy yordam

ko‘rsatuvchi agentlik va assosiasiyalarga berildi. Boz ustiga Xalkaro valyuta fondi va Butunjahon Banki 1993 yildan 1999 yilga qadar davr ichida O‘zbekiston hukumati va uning iqtisodiy muassasalariga bir necha bor Davlat byudjetining bo‘lingan qismlarini shakllantirishning sifatli va malakali nazoratini amalga oshirish uchun davlatning fiskal funksiyalarini bajaruvchi yagona muassasiga birlashtirish haqida tavsiyalar berdi.

Xalkaro valyuta tashkilotlarining bunday tavsiyalarini ijro etib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000 yil 15 noyabr kuni «O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorini qabul qildi. Unga binoan O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi qoshidagi Pensiya Fondi 2001 yil 1 yanvaridan O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya Fondiga qaytadan tashkil etildi. Ushbu vaqtdan boshlab Pensiya fondining mablag‘larning to‘liq to‘planishi va byudjetdan tashqari Pensiya fondiga kelib tushishi bo‘yicha nazorat vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lik qo‘mitasiga, byudjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarish, nafaqa to‘lovlarining tushum va xarajatlarining yillik va chorak prognoz balanslarini shakllantirish, aholiga nafaka va to‘lovlarini uz vaqtida hisoblash va amalga oshirish esa qaytadan tashkil etilgan Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Mehnat va ijtimoiy himoya vaziri O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya Fondining mablag‘larini bosh boshqaruvchisi, ushbu vazirlikning joylardagi hududiy idoralarining rahbarlari esa Pensiya fondining hududiy bo‘limlarining mablag‘larining boshqaruvchisi maqomiga ega bo‘ldilar. Byudjetdan tashqari Pensiya fondiga tushum hajmlarini shakllantirish bo‘yicha umumiyo koordinasiyani olib borish, fond mablag‘larining maqsadli va o‘z vaqtida ishlatalishi yuzasidan nazorat O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

Majburiy pensiya to‘lovchilarini qamrovini kengaytirishga qaratilgan maqsad va vazifalar to‘laligicha ijro etilmadi. Bu sharoitda majburiy to‘lovlarini yig‘ish bo‘yicha vakolatlarini Pensiya fondidan Soliq qo‘mitasiga o‘tkazilishi o‘zini oqlamadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 21 oktabr kunidagi «Byudjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondiga o‘tkazildi.

Pensiya fondiga majburiy ajratmalar va badallar yig‘ish huquqi bilan bir qatorda ixtiyoriy ravishda to‘laniladigan dehqon xo‘jaligi sug‘urta badallarini yig‘ish va birinchi marta soliqdan ozod bo‘lib kelgan moliya bozoridagi Pensiya fondining ortiqcha mablag‘larini joylashtirilishidan prosent ko‘rinishidagi foydaga ega bo‘lish kabi qo‘shimcha huquqlar ham yuklatildi. Bu Pensiya fondiga Moliya Vazirligi bilan kelishilgan holda Fondning pul mablag‘larini boyitishda qo‘shimcha mablag‘ bo‘la oladigan bo‘sh pul mablag‘larini mustaqil joylashtirish huquqini berdi. Ushbu Qaror bilan, shuningdek, Pensiya fondining barcha xarajat va daromadlari O‘zbekiston Respublikasi konsolidar byudjet qismiga kiritilishi belgilab berildi.

Umuman, O‘zbekiston Respublikasi pensiya tizimi islohotidagi islohotlar bosqichlarida 1996 – 2004 yillar oralig‘ida ijtimoiy siyosatning ushbu sohasida

samarali islohotni olib borish uchun zaruriy moliyaviy, qonuniy huquqiy va tashkiliy baza yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning jamg‘arish pensiya taminoti to‘g‘risida”gi Qonuni muhim hisoblanadi. Unga ko‘ra, 2005 yildan boshlab O‘zbekistonda amaldagi davlat pensiya taminoti tizimiga qo‘srimcha ravishda jamg‘arish pensiya sug‘urta taminoti ham kiritilgan. Shuni qayd etish lozimki, davlat va jamg‘arish pensiya tizimlari bir birini to‘ldirib bormoqda³⁶.

2005 yilga kelib mamlakatimizda ‘Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi” dasturi amaliyatga joriy qilindi. Bizning fikrimizcha mazkur davrdan keyingi yillar mamlakatimiz pensiya tizimining rivojlanishida o‘ziga xos burilish yasadi. Shuni inobatga olgan holda 2005 yildan keyingi davrni O‘zbekiston pensiya tizimining rivojlanishining yangi bosqichi, deb aytish maqsadga muvofiq. Mazkur tizimning mamlakatimizda qo‘llanilishi jarayonida quyidagilarning amal qilishi ko‘zda tutilgan:

- jamg‘arib boriladigan pensiyaning umumiy va majburiy xarakteri, ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirishdagi imtiyozlar kishining ijtimoiy himoyalanish xuquqining ta’milanishi;
- jamg‘arib boriladigan pensiya majburiy va ixtiyoriy shakllarning birligi teng xuquqliligi shaxsning ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan zaruriy darajasi ta’minlanadi va uning keksalik chog‘ida yaxshi yashashi uchun ta’sir ko‘rsatishi;
- turli xil pensiya tizimining bir vaqtning o‘zida amal qilishidagi mustaqilligi va o‘zini-o‘zi idora qilish sharoitida majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya bo‘yicha to‘lovlar darajasi va tizimni barqarorligining davlat tomonidan kafolatlanishi.

2. O‘zbekiston pensiya tizimining tarkibi va moliyaviy manbalari

O‘zbekiston davlat pensiya ta’minoti tizimi tashkiliy jihatdan ikkiga bo‘linadi (1-rasm).

³⁶ Ўзбекистон Республикаси вазирлар Маҳкамасининг 2005й. 11 февралдаги “Нобюджет Пенсия фондини бошқаришининг келажакдаги такомиллашуви тўғрисида”ги Қарорига мувофик.



Манба: Маматов Б.С. Пенсия жамғармаси фаолияти. Ўкув қўлланма. - Т.: «ИКТИСОД-МОЛИЯ», 2017. - 82-б.

1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta’minoti tizimi

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra ushbu tizim bo‘yicha davlat pensiyalarining yoshga doir pensiya, nogironlik pensiyasi, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi kabi turlari mavjud. Fuqarolar yoshga doir pensiya olish huquqiga: erkaklar – 60 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo‘lgan taqdirda; ayollar – 55 yoshga to‘lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda ega bo‘ladilar. Lekin fuqarolar pensiya olish huquqiga ularning haqiqatda ishlagan ish stoji kamida 7 yil bo‘lganda ega bo‘ladilar, ya’ni fuqarolar kamida 7 yil Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badali to‘lagan bo‘lishlari kerak.

Pensiyaning miqdori fuqaroning o‘rtacha oylik ish haqi miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. O‘rtacha ish haqi ishdagi mavjud tanaffuslardan qat‘i nazar, fuqaroning pensiya olish uchun murojaat qilgandan oldingi oxirgi o‘n yillik mehnat faoliyati davomidagi fuqaro tomonidan tanlangan ketma-ket keluvchi besh yildagi umumiy ish haqi hisobidan olinib, tuzatish koeffisiyentlari inobatga olingan holda hisoblangan yig‘indini 60 (5 yildagi oylar soni)ga bo‘lish orqali hisoblab chiqariladi.

Agar fuqaroning ish stoji umuman bo‘lmasa yoki 7 yildan kam bo‘lsa, bunday hollarda ayollarga 60 yoshga va erkaklarga 65 yoshga to‘lganda yoshga doir nafaqa tayinlanishi mumkin.

Avlodlar birdamligiga assoslangan davlat pensiya ta’minoti bo‘yicha: harbiy xizmatchilarning, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarining, sudyalarning va prokuratura organlari darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo‘lgan xodimlarining pensiya ta’minoti; imtiyozli

shartlardagi pensiyalar; yoshidan qat'i nazar imtiyozli pensiya olish huquqi; umumiyl belgilangan yoshni 1, 5 va 10 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi; liliputlar va pakanalarga pensiyalar; yoshga doir pensiyalarni muddatidan oldin tayinlash; pensiyalarni va ish haqini hisoblab chiqish tartibi; pensiyalarga ustama haqlar; boshqa davlatlardan ko'chib kelgan fuqarolarga pensiyalar hisoblab chiqarish; chet elda ishlangan davr uchun ish haqini hisoblab chiqarish; pensiyalarni qayta hisoblash va to'lash tartiblari O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentabrdagi «Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi 252-sonli Qarori va boshqa qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Respublikamizda jamg'arib boriladigan pensiya tizimi 2004 yil 2 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni asosida joriy qilingan. Bundan maqsad fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda, ish beruvchilarning pensiya yoshiga yetgan xodimlari moddiy ahvolini yaxshilash, shu asosda pensionerlarga amaldagi pensiya to'lovlariga qo'shimcha ravishda daromad olish manbalarini yaratish, keksalik chog'ida fuqaroning o'z farovonligi uchun shaxsiy javobgarligini oshirishdir. Ushbu tizimda fuqarolarning ajratmalar ular pensiyaga chiqqunlariga qadar jamg'arib boriladi va pensiyaga chiqqanidan keyin to'lab beriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning jamg'armalari ixtiyoriy va majburiy pensiya badallaridan shakllanadi. 2005 yildan boshlab fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobraqamlariga majburiy har oylik badallar jismoniy shaxslarning qonun hujjatlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan daromad solig'i summasidan tegishli ravishda chiqarib tashlangan holda xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning 2 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ajratilayotgan yagona ijtimoiy to'lov va majburiy sug'urta badallari stavkasining o'zgarishi³⁷

Yillar	Pensiya jamg'armasi			Ishbilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma	Kasaba uyushmalari Federasiyasi Kengashi	Yagona ijtimoiy to'lov
	Ish beruvchi	Ishlovchi	Ish beruvchi			
	Ish haqi fondidan	Tovar va hizmatlar realizasiyasidan	Ish haqi miqdoridan	Mehnatga haq to'lash fondi		

³⁷Ўзбекистон Республикаси пенсия жамғармаси ва Вазирлар Махкамасининг 2002-2022 йиллардаги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисидаги карорлари асосида тузилди.

	(A)	(B)	(V)	(G)		(A+G)
2002	37,5	0,7	2,5	1,5	1,2	40,2
2003	35	0,7	2,5	1,5	0,7	37,2
2004	31,6	0,7	2,5	0,9	0,5	33
2005	30	0,7	2,5	0,5	0,5	31
2006	24,2	0,7	2,5	0,5	0,3	25
2007	23,5	0,7	2,5	0,3	0,2	24
2008	2,5	1	2,5	0,3	0,2	24
2009	23,6	1	3,5	0,2	0,2	24
2010	24,8	1,5	4	0,1	0,1	25
2011	24,8	1,6	4,5	0,1	0,1	25
2012	24,8	1,6	5,5	0,1	0,1	25
2013	24,8	1,6	6	0,1	0,1	25
2014	24,8	1,6	6,5	0,1	0,1	25
2015	24,8/14,8	1,6	7	0,1	0,1	25/15
2016	24,8/14,8	1,6	7,5	0,1	0,1	25/15
2017	24,8/14,8	1,6	8	0,1	0,1	25/15
2018	24,8/14,8	1,5	8	0,1	0,1	25/15
2019	24,8/11,8	0	0	0,1	0,1	25/12
2020	24,8/11,8	0	0	0,1	0,1	25/12
2021	24,8/11,8	0	0	0,1	0,1	25/12
2022	24,8/11,8	0	0	0,1	0,1	25/12

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 martdagи “Pensiylar va nafaqalar to‘lash mehanizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **2826-sonli** Qarorga asosan 2017 yil 1 iyuldan boshlab O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida pensiyalar va nafaqalarni to‘lash faqat Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Avlodlar birdamligi tamoyili amal qiladigan davlat pensiya ta’minoti tizimida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi asosiy institut hisoblanadi. Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari ishlaydigan va ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensasiya to‘lovleri va boshqa to‘lovlarни moliyalashtirish uchun sarflanadi.

Pensiya jamg‘armasining daromadlarini shakllantirish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ majburiy to‘lovlar va badallar:
 - yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari;
 - alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;
 - fuqarolarning sug‘urta badallari;
 - jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari;
 - korxona va tashkilotlar mahsulot (ish, xizmat) sotish hajmidan
 - majburiy ajratmalar;
- ✓ boshqa to‘lovlar:

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari
pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibining o‘zgarishi³⁸**

	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Jami daromadlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
YAIMga nisbatan % da	7,9	8,1	8,2	8,1	7,1	7,0	6,5
Shundan (jami daromadga nisbatan %da):							
1. Soliq tushumlari	99,7	99,7	99,8	99,8	99,8	99,8	99,8
1.1. Yagona ijtimoiy to‘lov	61,0	60,9	61,2	62,3	60,7	59,8	59,2
1.2. Majburiy sug‘urta badali	11,2	13,9	16,4	17,3	20,7	21,3	23,1
1.3. Sotilgan mahsulot hajmidan ajratma	20,1	17,9	14,7	12,8	9,6	9,2	8,3
1.4. Boshqa daromadlar	7,4	7,0	7,5	7,5	8,8	9,5	9,2
2. Jami soliqsiz tushumlar	0,3	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
3. Davlat byudjetidan qoplanishi	0	0	0	0	0	0	0

Tahlillar ko‘rsatishicha, 2002 yilda yagona ijtimoiy to‘lov tarkibida pensiya jamg‘armasiga ish beruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan ajratmalar **37,5%** ni va majburiy sug‘urta badali **2,5%** ni tashkil etgani holda, 2018 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich **24,8%ni** (imtiyoz tariqasida ayrim soha vakillari **14,8%ni**), majburiy sug‘urta badallari esa **8%** ni tashkil etmoqda. 2015 yildan boshlab nodavlat sektor xo‘jalik subektlari ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov **25%** dan **15%** ga tushirildi. Bu xo‘jalik hisobidagi korxona va tashkilotlar uchun katta imkoniyat yaratadi (18.2.1-jadval).

Pensiya jamg‘armasi daromadlari miqdori 2017 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 6,5%ni tashkil etdi. Jamg‘armaning jami daromadlarida soliq tushumlari ulushi 99,8%ni, soliqsiz tushumlar esa 0,2%ni tashkil etadi. Tahlillar, jami daromadlar tarkibida yagona ijtimoiy to‘lov ulushi 2011-2017 yillarda 61,0%dan 59,2%ga qadar qisqarib, majburiy sug‘urta badali ulushi 11,2%dan 23,1%ga qadar ortganligini ko‘rsatmoqda (18.2.2-jadval).

Ushbu holat ish beruvchilar tomonidan to‘lanadigan yagona ijtimoiy to‘lov va yollanma ishchilar tomonidan to‘lanadigan majburiy sug‘urta badallari stavkalari o‘rtasidagi tafovutni qisqarib borayotganligidan dalolat beradi.

Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tarkibiga pensiyalar, ijtimoiy nafaqlar, kompensasiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish tartibi belgilab berilgan.

1. Ishlamaydigan fuqarolarga:

–davlat pensiyalarining barcha turlari;

–dafn marosimi uchun nafaqlar;

–davlat pensiya ta’minotiga huquqi bo‘lmagan keksa va mehnatga

layoqatsiz fuqarolarga nafaqlar;

³⁸ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги бюджетдан ташқари пенсия жамғармаси хисоботлари асосида тузилган.

—qonun hujjatlariga muvofiq Jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan kompensasiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni to‘lash uchun.

2. Ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga, ya’ni vasiyga bir oyda qo‘sishimcha dam olish kuni uchun to‘lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg‘arma mablag‘laridan moliyalashtiriladigan kompensasiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar uchun sarflanadi.

Pensiya jamg‘armasi xarajatlari tarkibida ishlamaydigan pensionerlarga to‘lanadigan pensiya to‘lovlari salmoqli o‘rin tutib, 2016 yilda jami xarajatlarning 96,0%iga teng bo‘ldi (18.2.3-jadval).

18.2.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi xarajatlarining tarkibi va o‘zgarishi, jamiga nisbatan foiz hisobida³⁹

	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.
Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlari	94,6	96,2	96,6	96,6	9,7	96,0	96,0
Ishlaydigan pensionerlarga pensiya to‘lovlari	5,0	3,7	3,2	3,1	3,0	3,0	3,0
Boshqa to‘lovlar (nafaqalar, dafn marosimi uchun nafaqalar va boshqalar)	0,3	0,1	0,3	0,2	0,3	1,0	1,1

Milliy pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri Pensiya jamg‘armasi daromadlar bazasini yanada mustahkamlash hisoblanadi. Bundan tashqari fuqarolar uchun keksayganda munosib turmush tarzini ta’minalashda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimini rimojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining joriy etilishi va amal qilish mexanizmi

³⁹ Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги хузуридаги бюджетдан ташқари pensiya жамғармаси ҳисоботлари асосида тузилган.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida qatnashish huquqigaega⁴⁰. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimiga quyidagi tartibda a’zo bo‘lish mumkin:

- ish beruvchilar va mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi orqali amalgalashuvchi fuqarolar majburiy tarzda;
- yakka tartibdagagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yuritayotgan dehqon xo‘jaliklari a’zolari, boshqa fuqarolar ixtiyoriy tarzda.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-varaqalari ochiladi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘limgan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanmaydi. Halq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining alohida hisobini yuritadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini ko‘paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag‘lardan investisiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalaniishi mumkin.

Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i — fuqaroning Halq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag‘i bo‘lib, badal yurituvchilarning jamg‘arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-varag‘idagi mablag‘larga hisoblab qo‘yilgan foizlar ana shu hisob-varaqqa kelib tushadi hamda unda hisobga olinadi.

Halq banki jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilardan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish va ularni yuritish uchun zarur ma’lumotlarni oladi. Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mablag‘larini investisiyalashdan olingan daromaddan marja olish huquqiga ega. Halq banki oladigan marja miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida to‘plangan mablag‘lar uchun hisoblangan foizlar hamda bu mablag‘lar hisobiga berilgan pensiyalar soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti olish huquqiga ega. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisoblarida to‘plangan pul mablag‘lari faqat ana shu hisob egalari bo‘lgan fuqarolarga tegishlidir. Ularning o‘zlari, ishonch bildirgan boshqa shaxslar yoki merosxo‘rlardan boshqa hech kim pul mablag‘ini olish huquqiga ega emas.

Fuqarolar shaxsiy jamg‘arma pensiya mablag‘larini olishlari davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lingan paytdan boshlab bir vaqtida yoki oyma-oy teng ulushlarda olishlari mumkin, uning shakli oluvchi tomonidan belgilanadi. Hisobvaraq egasi vafot etgan holda unda to‘plangan badallar qonunda belgilangan tartibda merosxo‘rga o‘tadi.

⁴⁰Ўзбекистон Республикасининг “Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида” ги Конуни 02.12.2004 йил.Н702- II 5-модда

Bunda meros qolgan mablag‘ bir vaqtda to‘la hajmda to‘lanadi. Shuningdek, mamlakatdan tashqariga ko‘chib ketadigan fuqarolar uz jamg‘armalarini Davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘lari saqlanishi hamda to‘lanishini kafolatlaydi. Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larining saqlanishi va to‘lanishi Davlat tomonidan kafolatlanadi. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida to‘plangan mablag‘larga daromad hisoblash foizi inflyasiya darajasida yuqori bo‘lishi lozimligi ko‘rsatilgan.

Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minotini amalga oshiruvchi Xalq bankining so‘nggi yillardagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari barqaror sur’atlarni qayd etmoqda. Jumladan, 2016 yilning 1 yanvar holatiga Xalq bankining kredit qo‘yilmalari hajmi 1 trln. 883 mlrd. so‘mni tashkil qildi. 2015 yilda bank tomonidan 12109 ta kichik biznes va hususiy tadbirkorlik vakillariga 1 trln. 6,9 mlrd. so‘mlik kreditlar ajratilib, 2014 yilga nisbatan 134,8 foizga o‘sishi ta‘minlandi. Jumladan, 7 581 ta tadbirkorga ajratilgan mikrokreditlar hajmi 305,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2014 yilga nisbatan 1,4 barobarga yoki 138 foizga o‘sishi ta‘minlandi⁴¹.

Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Hisobvaraq egasi vafot etgan holda unda to‘plangan badallar qonunda belgilangan tartibda merosxo‘rga o‘tadi. Bunda meros qolgan mablag‘ bir vaqtda to‘la hajmda to‘lanadi. Shuningdek, mamlakatdan tashqariga ko‘chib ketadigan fuqarolar o‘z jamg‘armalarini bordaniga olishlari mumkin.

“Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investisiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, JBPT mablag‘lari quyidagi obektlarga joylashtirilishi mumkin:⁴²

- O‘zbekiston Respublikasi davlat qimmatbaxo qog‘ozlariga;
- Ipoteka obligasiyalariga;
- Amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o‘tgan korporativ qimmatbaxo qog‘ozlarga;
- Banklardagi milliy va chet el valutasidagi muddatli depozitlarga;
- Qonunchilikda belgilangan, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan xar bir xolat uchun aloxida tasdiqlangan va “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investisiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 27-bandi talablariga javob beradigan boshqa obektlarga.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingan daromad, xalq banki oladigan marja summasi chegirib tashlangandan so‘ng, xar yili yil yakunida fuqorolarning jamg‘arib boriladigan pensiya xisobvarag‘lariga, ulardagi mavjud bo‘lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda o‘tkaziladi. JBPT mablag‘larini

⁴¹

⁴²Вахабов А.В., .Мажидов Н.М Монография Жамғариб бориладиган пенсия жамғармасининг Ўзбекистонда инвестиция сиёсатини амалга оширишдаги роли. Монография Тошкент “Университет” 2017. Б118.

joylashtirishdan olingan marjani Xalq banki va filiallari orasida taqsimlash tartibi Xalq banki tomonidan belgilanadi.

JBPT mablag‘lari sud jarayonidan oldingi sanasiya choralari ko‘rilayotgan yoki O‘zbekiston Respublikasining bankrotlik to‘g‘risidagi qonun xujjaligiga asosan bankrotlik jarayoni qo‘zg‘atilgan yoki oxirgi ikki yil mobaynida ushbu jarayonlar qo‘llanilgan emitentlarning qimmatbaxo qog‘ozlarini sotib olish uchun ishlatilishi mumkin emas.

4. O‘zbekiston davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etishning ustuvor yo‘nalishlari

O‘zbekistonda davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etish zaruriyati demografik o‘zgarishlar, ijtimoiy sug‘urta tizimini moliyalashtirishda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish darajasini oshirish, pensiya tizimi moliyaviy mablag‘larni taqsimlash mexanizmini takomillashtirish kabi omillar bog‘liq hisoblanadi.

Davlat pensiya ta’minoti tizimi 2017 yilda 3,3 mln.dan ortiq fuqarolarni o‘z ichiga olib, mamlakat aholisining taxminan 10 foizini qamrab oladi. Bunda, yoshga doir pensiya oluvchilari – 2 502,6 ming nafar, nogironlik pensiya oluvchilari – 360,3 ming nafar, boquvchisini yo‘qotganlik pensiya oluvchilari – 168,5 ming nafar va ijtimoiy nafaqa oluvchilari – 294,1 ming nafarni tashkil etadi.

Demografik o‘zgarishlarning pensiya ta’minoti tizimiga ta’siri. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo‘yicha yuklama tobora oshmoqda. Demografik bashoratlarga ko‘ra, 2018-2025 yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi (1,2 mln. kishiga) oshishi kutilmoqda, bu esa, o‘z navbatida, Pensiya jamg‘armasi xarajatlarining mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, 2016 yildan boshlab, O‘zbekiston Respublikasida pensiya tayinlash uchun yillik murojaatlar sonini ortib borishi (yillik o‘rtacha o‘sish – 16 ming nafar fuqaro) kuzatilmoqda va 2025 yilga borib 300 ming nafarga ortishi kutilmoqda. Yoshga doir pensiya tayinlash uchun murojaatlarning asosiy o‘sishi, tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan (50-60-yillardagi “Bebi-bum”) davrda tug‘ilgan fuqarolarning umumiyligi belgilangan pensiya yoshiga yetishi bilan bog‘liqidir.

Mamlakat aholisining qarib borishi ko‘rsatkichi shuni ko‘rsatadiki, pensiya yoshidagi aholining soni o‘sish tendensiyasiga ega (2010 yildagi aholining umumiyligi soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018 yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma’lumotlariga ko‘ra, 2019 yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9 foizdan ortadi va 2025 yilga borib 11 foizga yetadi (2011 yildagi 6,2 foizga nisbatan).

Shu bilan birga, fuqarolar pensiya ta’minoti tizimining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bu pensiya yoshi hisoblanadi. Dunyoda o‘rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh).

Ijtimoiy sug‘urta tizimini moliyalashtirishda aholining mutanosib ishtirokini ta’minlash zaruriyati. Ijtimoiy badallar miqdori va to‘lovlar o‘rtasida mutanosiblilikka rioxha etish, band bo‘lgan aholining pensiya ta’minotini sug‘urtalanganlik xarakterini ta’minlovchi asosiy prinsip hisoblanadi hamda pensiya

tizimini moliyalashtirishda o‘zining moliyaviy ishtirokini rag‘batlantiruvchi ta’sir mexanizmi sanaladi.

Fuqarolarning ijtimoiy sug‘urta tizimida uzlucksiz va uzoq muddatli ishtirokini rag‘batlantirish mexanizmi murakkab va shaffof bo‘lmasdan qolmoqda, buning natijasida mehnatga layoqatli aholining deyarli 60 foiz (qariyb 17 mln. kishi), tahminan 10,2 mln. kishi davlat ijtimoiy sug‘urtasi bilan qamrab olinmagan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy ajratmalarни amalga oshirmayapti.

Halqaro mehnat tashkilotining talabariga muvofiq, fuqarolarning pensiya ta’mnoti tizimini barqaror rivojlanishi uchun badal to‘lovchilar sonining pensiya oluvchilarga o‘zaro nisbati 1 : 4 darajada bo‘lishi ko‘rsatilgan. Biroq, bugungi kunda O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1 : 1,5 ga teng. Ta’kidlash joizki, pensionerlar sonining ishlovchi aholiga nisbati 2009 yildagi 61 foizdan 2017 yilda 66 foizga o‘sgan.

Moliyaviy mablag‘larni taqsimlashdagi samarasiz instrumentlar va ijtimoiy sug‘urtadagi rag‘batlantiruvchi mexanizmlarning zaifligi. Pensiya jamg‘armasi mablag‘larining sezilarli qismi imtiyozli pensiyalarini moliyalashtirishga sarflanadi. Imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizni tashkil etib, shundan, yoshga doir pensiyalar 23,7 foizni tashkil etadi. Yiliga o‘rtacha hisobda 39,8 mingta imtiyozli pensiyalar tayinlanmoqda. Shu bilan birga imtiyozli pensiyalarning o‘rtacha miqdori yoshga doir pensiyalarning o‘rtacha miqdoridan (543,2 ming so‘m) yuqori bo‘lib, 3 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha pensiyalar 742,6 ming so‘mni, 2 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha pensiyalar 951,3 ming so‘mni va 1 – sonli Ro‘yxat bo‘yicha pensiyalar 1 025,4 ming so‘mni tashkil etadi⁴³.

Shuningdek, pensiya miqdori va xodimning mehnat davomiyligi ulushi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ham sezilarsiz. Amaldagi pensiya ta’mnoti tizimi, 7 yildan kam bo‘limgan stajga ega bo‘lgan shaxslarga pensiya tayinlanishini nazarda tutadi.

Ushbu huquq faqatgina 7 yil ishlab va o‘zining butun mehnatga layoqatlilik davri uchun Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishda eng kam hissa qo‘sghan shaxslarga pensiya olish imkonini beradi.

Halqaro mehnat tashkilotining “Ijtimoiy ta’mnotning minimal meyorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiyasiga muvofiq, yoshga doir pensiyani tayinlash uchun talab etiladigan eng kam ish stoji 15 yil qilib belgilangan. Dunyoning ko‘plab davlatlari, shu jumladan MDH davlatlarida talab etilgan eng kam ish stoji 10 – 15 yil darajasiga yetkazilgan.

Ish stajiga nisbatan 7 yil davomiylikdagi minimal talabning mavjudligi fuqarolarning davlat ijtimoiy sug‘urtasidagi ishtirokida salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Masalan, hozirgi vaqtida ish haqining o‘rtacha darajasida 30 yil ish stajiga (talab etilgan – 25 yil) ega bo‘lgan erkak kishining pensiya miqdori bilan 10 yillik ish stajiga ega bo‘lgan (minimal talab etilgan – 7 yil) erkak kishining pensiya miqdori o‘rtasidagi farq taxminan 200 ming so‘mni tashkil etadi.

⁴³ http://www.pfru.uz/uz_Cyril/page/518#_ftn1

Ishlovchilarning ijtimoiy sug‘urtadagi uzoq muddat va uzluksiz ishtirokini rag‘batlantirishdagi zaif mexanizmlar ularni sug‘urta badallarini to‘lamaslikning yangi usullarini qidirishga majbur etadi.

Bularning barchasi aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining pensiya ta’minoti sohasidagi asosiy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh konsepsiysi ishlab chiqiqlib, u quyidagi ustuvor yo‘nalishalar bo‘yicha amalga oshirilishi nazarda tutilmoxda⁴⁴:

birinchidan, quyidagi yo‘llar bilan fuqarolarni ijtimoiy sug‘urtalash tizimida ishtirok etishini rag‘batlantirish mexanizmlari tadbiq etish:

- o‘rtacha oylik ish haqining miqdorini oshirish, pensiya tayinlash uchun eng kam ish haqining 8 barobaridan 10 barobarigacha oshirish, bu tartibni avval tayinlangan pensiyalarga ham tadbiq etishni ko‘zda tutish;
- erkaklar uchun 35 yil, ayollar uchun 30 yil mehnat stajidan keyin ishlagan har bir yili uchun eng kam ish haqining 10% miqdorida pensiyalariga ustamalar to‘lash orqali ularning pensiyalari miqdorlarini oshirish;
- 54 yoshidan pensiyaga chiqish huquqi bo‘lgan ayollar umumiyl belgilangan yoshda pensiya rasmiylashtirgan taqdirda ularning pensiyalariga eng kam ish haqining 10% miqdorida ustama belgilashni joriy etish;

ikkinchidan, ijtimoiyadolatni ta’minalash maqsadida barcha ishlayotgan pensionerlarga pensiya to‘lovlarni to‘liq olish huquqini berish;

zarur mehnat stajiga ega bo‘lmagan keksalar va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga to‘lanayotgan nafaqa singari, III guruh nogironlari uchun ham nafaqa tayinlash mexanizimini joriy etish;

keksalar uyi (pansionat)da yashovchi yolg‘iz pensionerlar tayinlangan pensiya miqdorining 50% to‘lash huquqini belgilash;

uchinchidan, pensiya ta’minoti tizimini, shu jumladan jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimida ixtiyoriy ishtirok etish tadbiralarini rag‘batlantirish;

zarur mehnat stajiga ega bo‘lmagan fuqarolarga davlat pensiyalarini hisoblashda stajning har bir yetishmayotgan oyi uchun Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari summasini bir martalik tartibda to‘lash huquqini berish;

ishlovchi er (xotin)ning mehnatga haq to‘lash ko‘rinishidagi daromadlari hisobidan ishlamayotgan oila a’zolari uchun ixtiyoriy ravishda har bir oy uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida sug‘urta badallari to‘lash huquqini berish.

jismoniy shaxslarning jamg‘arib boriladigan hisob raqamlariga o‘tkazib boriladigan mablag‘lar hisobidan jozibador oraliq bonusli pullik to‘lovlarni sxemalarini qo‘llash.

to‘rtinchidan, zamonaviy va halqaro talablarga javob beradigan pensiya ta’minoti tizimi shakllantirish, bunda:

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоит тизимини янада такомиллаштириш чоралари тўғрисида” –сон Қарори

- pensiya tayinlash uchun talab etiladigan minimal staj davomiyligini har yili 2020 yildan boshlab bir yildan oshirib, talab etilgan eng kam ish stajini 10 yilga yetkazish;
- halqaro hamda MDH mamlakatlari tajribasini chuqur o'rgangan holda bosqichma-bosqich pensiya yoshini oshirish.

6- mavzu: O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga o'tish istiqbollari

REJA:

6.1. O'zbekiston jamg'arib boriladigan pensiya tizimi.

6.2. O'zbekistonda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini rivojlantirish istiqbollari

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 28 iyundagi «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish va texnika bilan jihozlash borasidagi qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi 110-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu Qarorda jamg'arib boriladigan pensiya badallarining to'lik hisoblanishi va o'z vaqtida o'tkazilishi, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini afzalliklari to'g'risida tushuntirish ishlarini kuchaytirish, ushbu tizim barqaror ishlashi uchun Xalq bankini bosqichma - bosqich zamonaviy kompyuter texnikasi hamda dasturlari bilan ta'minlash tadbirlarini amalga oshirishni belgilab berildi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki Boshqaruvining 2006 yil 7 oktabrdagi 88- son va 282-v son Qarorlari bilan «Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investisiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom tasdiqlandi. Ushbu Nizom jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini investisiya va kredit resurslari sifatida, shu jumladan moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibini belgilab berdi.

JBPT mablag'lari quyidagi obektlarga joylashtirilishi mumkin:
– O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlariga:

– ipoteka obligasiyalariga;

– amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasida muomalaga chiqarilgan va listingdan o'tgan korporativ qimmatli qog'ozlarga;

– banklardagi milliy va chet el valyutasidagi muddatli depozitlarga;

– qonunchilikda belgilangan, muvofiqlashtiruvchi Kengash qarori bilan har bir holat uchun alohida tasdiqlangan va Nizomning 27 - bandi talablariga javob beradigan boshqa obektlarga.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi (JBPT) mablag'larini samarali joylashtirishni tashkil etish maqsadida Jamg'arib boriladigan pensiya mablag'larini joylashtirish va daromadlarini shakllantirish siyosatini belgilash bo'yicha Muvofiglashtirish Kengashi tashkil etildi. Muvofiglashtiruvchi kengash vazifalari quyidagilardan iborat:

– muddatlilik, qaytarishlilik, daromadlilik va diversifikasiyalash

tamoyillari asosida JBPT mablag‘larini joylashtirish obektlarini belgilash:

– JBPT mablag‘larining xar bir joylashtirish obektiga joylashtiriladigan eng ko‘p hajmini aniqlash:

– JBPT mablag‘larini joylashtirish obektlarini risklar bo‘yicha guruhlarga ajratish:

– JBPT mablag‘larini joylashtirish va investisiya kilishdan olingan daromaddan Xalq banki oladigan marja miqdorini belgilash va fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga hisoblanadigan foiz stavkasini belgilash.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshkaruvining qo‘shma karoriga asosan “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investisiya va kredit resurslari sifatida joylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini samarali joylashtirishni tashkil etish, Xalk bankining JBPT mablag‘larini joylashtirish bo‘yicha majburiyatlari, Xalk bankida JBPT mablag‘larini hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari, JBPT mablag‘larini joylashtirish, JBPT mablag‘larini joylashtirish obektlariga ko‘yiladigan talablar, JBPT mablaglarini joylashtirishdan olinadigan mablag‘larini taqsimlash qoidalari o‘z ifodasini topgan. Nizom O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Konunga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Jamgarib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investisiya va kredit resurslari sifatida, jumladan moliya vositalarga joylashtirish tartibini belgilab beradi.

Mazkur Nizomga asosan, Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari va mablag‘larni joylashtirish tushunchalari quyidagicha izohlab berilgan:

• Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari – Xalk bankdagi shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamlanadigan mablag‘lar yig‘indisi;

• mablag‘larni joylashtirish – Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan investisiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek, moliyaviy vositalarga joylashtirishda foydalanish.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi majburiyatlarini joylashtirish tartibini ko‘rib chiqamiz:

– Jamg‘arib boriladigan pensiya badallari shaklida o‘tkazilgan mablag‘lar Xalk banki filiali tomonidan maxsus tranzit hisob rakamida xisobga olinadi va keyinchalik Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan 22628 - «Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqdagi mablag‘lar» balans hisob raqamida jamlanib boriladi;

– Xalq bankining Markaziy amaliyotlar filiali tomonidan jamlangan JBPT mablag‘larining umumiy summasiga hamda kalender yil davomida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining mo‘ljallangan

hajmidan kelib chiqqan holda
 joylashtirish uchun yo‘naltiriladigan bo‘sh mablag‘lar hajmi
 belgilanadi;

- Xalk banki filiallarida maxsus hisobvaraklardagi JBPT
 mablag‘lari qoldig‘i jamg‘arib boriladigan pensiya
 hisobvaraqlardan bir oy davomida amalga oshirish uchun zarur
 bo‘lgan to‘lovlar summasidan kam bo‘lmasligi lozim;
- JBPT mablag‘larini joylashtirish Muvofiqlashtiruvchi Kengash
 tomonidan tasdiqlangan kvotalarga muvofiq Xalk banki tomonidan
 amalga oshiraladi;
- JBPT mablag‘larini obektlari bo‘yicha joylashtirish kvotalari
 har chorakda Muvofiqlashtiruvchi Kengash qarorlari bilan
 tasdiqlanadi;
 Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investision
 yo‘nalishida foydalinishda mavjud bo‘lgan risklarni kamaytirishda
 quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:
- kredit tashkilotining faoliyat olib borish bo‘yicha lozim bo‘lgan
 kasbiy tajribaga egaligi;
- aktivlarning minimal miqdori, tarkibi va strukturasi bilan
 bog‘liq bo‘lgan kasbiy faoliyatning amalga oshirish tajribasiga ega
 ekanligi;
- kredit tashkilotining yoki xo‘jalik yurituvchi subektni xususiy
 kapitalining minimal miqdori;
- korporativ qimmatli qog‘ozlar emitentlaring rentabelliliqi,
 moliyaviy barqarorligi, ish yuritish va bozordagi faolligi hamda
 amaldagi qonunchilik va Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan
 belgilangan boshqa talablar;

Nizomda nazarda tutilgan, xo‘jalik yurituvchi subektlar
 hisoblanadigan boshqa obektlarga joylashtirishda ularning moliyaviy
 hisobotlarning ishonchliligi to‘g‘risidagi tasdiqlangan auditorlik xulosasi, soliq
 inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan moliyaviy hisoboti,
 Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirish
 to‘g‘risidagi ariza berishdan oldingi uch yil uchun foyda va zararlar
 to‘g‘risidagi hisobotni xamda JBPT mablag‘larini joylashtirish
 masalasini bat afsil ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan boshqa
 hujjatlarni taqdim etishi lozim.
 Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan
 olingan daromadlarini taqsimlash Nizom bo‘yicha quyidagicha amalga
 oshiriladi:

- ✓ Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini
 joylashtirishdan olingan daromad Xalq banki oladigan marja
 summasi chegirib tashlangandan so‘ng, har yili yil yakunida
 fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga,
 ulardagи mavjud bo‘lgan qoldiq miqdoriga mutanosib ravishda
 o‘tkaziladi;

✓ Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olingen daromad, Xalq banki marjasи miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan Muvofiglashtiruvchi Kengash tavsiyasiga asosan dastlab – avans qismi yil boshida 1 fevralgacha, uzil kesil – dekabrning oxirgi 10 kunligida belgilanadi; ✓ Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini joylashtirishdan olinadigan marjani, Xalk banki va filiallari orasida taqsimlash tartibi Xalk banki tomonidan belgilanadi.

Pensiya fondining investision siyosati xatarning eng past eng yuqori daromad olishga qaratilishi zarur. Kutilayotgan ololmaslik xatarini ikki qismga ajratish - bozor xatari, bunda daromadning o‘zgarishlari barcha qog‘ozlarning daromadliligiga bir paytning o‘zida ta’sir iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqadi;

78

- o‘ziga xos xatar, bunda daromadning o‘zgarishi, kompaniyagagina taalluqli bo‘lgan hodisalardan kelib chiqadi. Qayd etilganidek, qimmatli qog‘ozlarning xarakterli shundaki, daromad qanchalik yuqori bo‘lsa, xatar shunchalik yuqori bo‘ladi, eng yuqori daromadga erishish uchun bank o‘z portfel investisiyalarga qimmatli qog‘ozlarni har xil turlarini kiritadi;

- xatar darajasi past va barqaror daromadli davlat obligasiyalari;
- aksiyalar;
- depozit sertifikatlari, veksellar;
- hosilaviy qimmatli qog‘ozlar (fyucherslar, opsonlar).

Tijorat banklari mutaxasislari ularning o‘zaro nisbati taxminan quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydilar:

- 50 % - davlat obligasiyalari;
- 25 % - banklarning depozit sertifikatlari;
- 10 % - aksiyalar;
- 10 % - veksellar;
- 5 % - fyucherslar, aksionlar.

Qimmatli qog‘ozlarga investisiyalash uchun pensiya fondi pul mablag‘lari rezervlarini vujudga keltiradi. Bu mablag‘lar uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarga, qisqa muddatli operasiyalarga ham yo‘naltirilishi mumkin. Investisiyalar uchun mo‘ljallangan mablag‘larni qanday yo‘naltirilishi investisiya siyosatidagi ustuvor maqsadga bog‘liq . Xatarning eng past darajasini ta’minlangan holda eng yuqori daromadga erishish murakkab vazifadir, uni hal etishda investor o‘z investision portfelinii har kuni qayta ko‘rib chiqishi va zarur o‘zgarishlarni kiritishi lozim. Buning uchun qimmatli qog‘ozlar bozori holatini, iqtisodiy konyunkturani va mamlakatdagi hamda jahondagi siyosiy vaziyatni uzluksiz tahlil etib borish talab qilinadi.

Iktisodchilardan YE. Smirnova riskni yuzaga kelishini quyidagicha ta’riflab o‘tadi: risk – bu dinamik holatda paydo bo‘lib, u doim

harakatda va rivojlanishda bo‘ladi. Bunday rivojlanishni “risk mexanizmi” deb ataladi, mazkur mexanizm riskni o‘zgarishini va vaqtini belgilab beradi. Demak, Pensiya fondi o‘z investision siyosatini ishlab chiqishi va pensiya tizimini takomillashtirib borishi talab etiladi. Bu siyosat Fuqarolik kodeksiga, Byudjet kodeksiga, «Investision faoliyat to‘g‘risida», «Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasи to‘g‘risida», «Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatining mexanizmi to‘g‘risida» qonunlarga, shuningdek investorlarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ hujjalarga asoslanadi.

Pensiya fondining investision siyosati fond faoliyati barqarorligini ta’minalash, operasiyalaridan foydani ko‘paytirish, xatar darajasini pasaytirish, fond balansi likvidligini ta’minalab turish maqsadlarida fondning portfel investisiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratiladi. Investision siyosat pul mablag‘larini fondning moliyaviy ehtyojlarini

80

qondirishga safarbar etadi. Pensiya fondi faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag‘lari kelib tushishi va mablag‘lar sarflanishini vaqt bo‘yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, to‘lovlarni bajarishi muddatlari yetib kelganda fond pul mablag‘larining bir qismini portfel investisiyadan bo‘shatib oladi. Bu maqsadda fond investisiyalarni ham, jalb etilgan mablag‘larni ham vaqt va hajmi bo‘yicha diversifikasiyalaydi. Masalan, fond resurslari muddatlariga mos ravishda, portfeli ham mablag‘larni shu muddatlarda daromadlarini boy bermasdan portfeldan bo‘shatib olishni rejalashtirib shakllantirishi lozim. Soliqqa tortiladigan bazani kamaytirish maqsadida Pensiya fondi bo‘s sh pul mablag‘larini turli moliyaviy dastaklarga joylashtiradi. Bu dastaklar orasida soliqqa tortilmaydiganlari ham bo‘ladi, masalan, davlat obligasiyalari. Binobarin portfel investisiyaning bir qismini davlat obligasiyalardan shakllantirish soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradi.

Qimmatli qog‘ozlardan daromadlar qanchalik darajada maqbul ekanligini aniqlash uchun Pensiya fondi ularni boshqa qo‘yilmalar bilan taqqoslaydi. Daromadlilik qo‘yilgan mablag‘lar bir yilga aylantirib hisoblanganda qancha foiz foyda keltirayotganligini bildiradi. Turli moliyaviy dastaklarga qo‘yilmalardan sof daromadni taqqoslash natijasida daromadlilik nuqtai nazaridan eng afzal moliyaviy dastaklarni aniqlash mumkin. Hozirgi paytda mamlakatimiz iqtisodiyotining moliyaviy mablag‘lari.

Respublikamizda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta’moti iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. “Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi” moliyaviy

kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarni shakllantirish va keksalik chog‘ida foydalanishning shakl va usullari yig‘indisini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi – fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg‘armalardan pensiyalarni moliyalashtirilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. “Jamg‘arib boriladigan pensiya” kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarini shakllantirib, keksalik chog‘ida foydalanish shakl va usullarini yig‘indisini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchining talabnomasiga muvofiq mazkur fuqarolarning asosiy ish joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyorilik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya daftarchasini berish.


Xalq banki jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda yuritadi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida fuqarolarning shaxsiy hisobini yuritishga doir hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga taalluqli ma’lumotlar Xalq bankining yagona ma’lumotlar elektron bazasida shakllantiriladi va saqlanadi.⁴⁵

Jamg‘arib boriladigan pensiya iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlardan moliyalashtirilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti keksalik, kasallik, baxtsiz hodisa tufayli, mehnat qobiliyatini yo‘qotish holatlarini oldini olishga qaratilgan jamg‘armadir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Pensiya fondi davlat byudjetidan tashqari fondlari tarkibidagi eng yirik fondlardan biri hisoblanadi. Uning taraqqiy etish tarixi ijtimoiy ta’mindagi sodir bo‘lgan asosiy o‘zgarishlar bilan bog‘lanib ketadi.

Pensiya fondi tarkibiy tuzilishining reorganizasiyasini hududiy miqyosida ham amalga oshirilib, Fondni boshqarish tizimini soddallashtirdi (3.1.3.-rasm).

⁴⁵“Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида”ги қонуни 2004 йи.



3.1.3.-rasm. 2000 yildan 2005 yilga qadar O‘zbekiston pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi⁴⁶.

Bundan tashqari Pensiya fondini faoliyati uchun harajatlari kamaytirilib, bir-birini qaytaradigan xizmatlar tugatildi.


2000 yilda sohaviy tizimlarining boshqaruvning yuqori bo‘g‘inlarida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ko‘p vazirlik va idoralari tugatilib, ularning vakolatlari hududiy boshqarish idoralari umumiyligi va tashkiliy-yo‘riqnomaviy yordam ko‘rsatuvchi agentlik va assosiasiyalarga berildi. Boz ustiga Xalkaro valyuta fondi va Butunjahon Banki 1993 yildan 1999 yilga qadar davr ichida O‘zbekiston hukumati va uning iqtisodiy muassasalariga bir necha bor Davlat byudjetining bo‘lingan qismlarini shakllantirishning sifatli va malakali nazoratini amalga oshirish uchun davlatning fiskal funksiyalarini bajaruvchi yagona muassasiga birlashtirish haqida tavsiyalar berdi.

Xalkaro valyuta tashkilotlarining bunday tavsiyalarini ijro etib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000 yil 15 noyabr kuni «O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorini qabul qildi. Unga binoan O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’minot vazirligi qoshidagi Pensiya Fondi 2001 yil 1 yanvaridan O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya Fondiga qaytadan tashkil etildi. Ushbu vaqtidan boshlab Pensiya fondining mablag‘larning to‘liq to‘planishi va byudjetdan tashqari Pensiya fondiga kelib tushishi bo‘yicha nazorat vazifalari O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lik qo‘mitasiga, byudjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarish, nafaqa to‘lovlarining tushum va xarajatlarining yillik va chorak prognoz balanslarini shakllantirish, aholiga nafaka va to‘lovlarni uz vaqtida hisoblash va amalga oshirish esa qaytadan tashkil etilgan Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi zimmasiga yuklatildi. Mehnat va ijtimoiy himoya vaziri O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya Fondining

⁴⁶Б.Х.Умурзаков. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Ташкент-2005. «Фан». С.89.

mablag'larini bosh boshqaruvchisi, ushbu vazirlikning joylardagi hududiy idoralarining rahbarlari esa Pensiya fondining hududiy bo'limlarining mablag'larining boshqaruvchisi maqomiga ega bo'ldilar. Byudjetdan tashqari Pensiya fondiga tushum hajmlarini shakllantirish bo'yicha umumiyo koordinasiyani olib borish, fond mablag'larining maqsadli va o'z vaqtida ishlatalishi yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yuklatildi.

Majburiy pensiya to'lovchilarini qamrovini kengaytirishga qaratilgan maqsad va vazifalar to'laligicha ijro etilmadi. Bu sharoitda majburiy to'lovlarни yig'ish bo'yicha vakolatlarini Pensiya fondidan Soliq qo'mitasiga o'tkazilishi o'zini oqlamadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 21 oktabr kunidagi «Byudjetdan tashqari Pensiya fondini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya fondiga o'tkazildi (3.1.4.-rasm).



3.1.4.-rasm. 2005 yildan boshlab Pensiya fondining boshqarish tizimi sxemasi⁴⁷.

Pensiya fondiga majburiy ajratmalar va badallar yig'ish huquqi bilan bir qatorda ixtiyoriy ravishda to'laniladigan dehqon xo'jaligi sug'urta badallarini yig'ish va birinchi marta soliqdan ozod bo'lib kelgan moliya bozoridagi Pensiya fondining ortiqcha mablag'larini joylashtirilishidan prosent ko'rinishidagi foydaga ega bo'lish kabi qo'shimcha huquqlar ham yuklatildi. Bu Pensiya fondiga Moliya Vazirligi bilan kelishilgan holda Fondning pul mablag'larini boyitishda qo'shimcha mablag' bo'la oladigan bo'sh pul mablag'larini mustaqil joylashtirish huquqini berdi. Ushbu Qaror bilan, shuningdek, Pensiya fondining barcha xarajat va daromadlari O'zbekiston Respublikasi konsolidar byudjet qismiga kiritilishi belgilab berildi.

⁴⁷Б.Х.Умурзаков. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Ташкент-2005. «Фан». С.91.

Pensiya fondining barcha joriy hisoblari tiklandi va Ijtimoiy himoya mehnat Vazirligi hisobidagi mablag‘lar Pensiya fondi hisobiga o‘tkazildi.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi pensiya tizimi islohotidagi islohotlar bosqichlarida 1996 – 2004 yillar oralig‘ida ijtimoiy siyosatning ushbu sohasida samarali islohotni olib borish uchun zaruriy moliyaviy, qonuniy huquqiy va tashkiliy baza yaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya taminoti to‘g‘risida”gi Qonuni muhim hisoblanadi. Unga ko‘ra, 2005 yildan boshlab O‘zbekistonda amaldagi davlat pensiya taminoti tizimiga qo‘srimcha ravishda jamg‘arish pensiya sug‘urta taminoti ham kiritilgan. Shuni qayd etish lozimki, davlat va jamg‘arish pensiya tizimlari bir birini to‘ldirib bormoqda⁴⁸.

Pensiya Fondidagi majburiy ajratmalar pul massasi pensioner hamda nafaqa oluvchilarga yetgunga qadar besh turdag'i o‘nta asosiy va tranzit hisoblardan o‘tadi: Soliq Komiteti, Moliya Vazirligi, Mehnat va Ijtimoiy Himoya Vazirligi, Bank tizimi va “O‘zbekiston Pochtasi” tuzilmasidan.

Bundan tashqari, Moliya Vazirligi va Mehnat va ijtimoiy himoya Vazirligi tomonidan tranzit hisoblari orqali viloyat va rayonlar aro doimiy moliyaviy yordamga muhtojlarga pul mablag‘larini operativ taqsimlanadi.

Har oyda yig‘ish, taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlari uchun 23 kundan 30 kungacha vaqt ketadi, bu davr orvlig‘ida esa pensiya to‘lovlarini vaqtida yetkazilishini taminlash maqsadida besh vedomostning 60 mingdan ziyod ishchilari yuqoridagi moliyaviy operasiyani amalga oshiradi⁴⁹.

Ushbu operasiyalarning ozgina ushlanishi yoki muayyan noaniqliklar pensiya to‘lovlarini 10 – 20 kungacha kechikishiga olib keladi.

Hozirda pensionerlar o‘zlarining hujjalarni byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi tuman bo‘limlariga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaroriga asoslangan Yo‘riqnomaga binoan taqdim etishadi (6-Ilovaga qarang).

Prezidentimizning 2009 yil 30 dekabridagi “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o‘z vaqtida, to‘liq miqdorda moliyalashtirish, tovarlar ustidan monitoring yuritish, pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘larning maqsadliligi va nazoratni kuchaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari, 2010 yildan boshlab, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to‘lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur jamg‘arma – uning Ijro etuvchi apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta

⁴⁸Ўзбекистон Республикаси вазирлар Махкамасининг 2005й. 11 февралдаги “Нобюджет Пенсия фондини бошқаришининг келажақдаги таомиллашуви тўғрисида”ги Қарорига мувофиқ.

⁴⁹Ўзбекистон Республикаси Ижтимоий химоя Вазирлигининг 2004 йилга берган молиявий хисоботи маълумотлари. Тошкент, 2005 й.

hududiy boshqarmasi hamda 196 ta tuman (shahar) bo‘limidan iborat tashkiliy tuzilmaga ega. Bu tizimda hozirda 4 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi. Shuningdek, jamharmaga tibbiy-mehnat ekspertizasi faoliyatini tashkil etish vazifasi ham yuklatilgan bo‘lib, respublika tibbiy ijtimoiy ekspertizasi tizimini

takomillashtirish maqsadida 108 ta Bosh, tumanlararo, tuman (shahar) TMEKlari tashkil etildi hamda ular yuqori malakali kadrlar bilan butlandi⁵⁰.



3.1.5-rasm. Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi daromadlari bo‘yicha xarajatlarining qoplanishi⁵¹.

1993 yilda qabul qilingan “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni pensionerlarning moddiy farovonligini oshirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur Qonunga 2011 yil 1 yanvardan tegishli o‘zgartirishlar kiritilib, o‘z ahamiyatini yo‘qotgan ayrim imtiyozlar va mehnat faoliyatining alohida davrlarini ish stajiga hisoblash mexanizmlari optimallashtirildi. Endilikda yoshga doir pensiyalarni tayinlashda mehnat stajining eng kam quyi chegarasi belgilab qo‘yildi.

Xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, Jamg‘ariladigan Pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq operasiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag‘larini uzoq muddatga joylaydi, xususiy va davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operasiyalari asosini korporasiya va korxonalardan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat. Ekspertlarning hisob-kitobi bo‘yicha qimmatli qog‘ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to‘lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag‘lar o‘sha qimmatli

⁵⁰Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги хузуридаги Бюджетдан ташқари pensiya жамгармаси фаолияти натижалари ва фуқароларнинг давлат pensiya таъминоти тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида маълумот. Т.- 2012й.

⁵¹Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги хузуридаги Бюджетдан ташқари pensiya жамгармаси фаолияти натижалари ва фуқароларнинг давлат pensiya таъминоти тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари тўғрисида маълумот. Т.- 2012й.

qog‘ozlarni hozirgi real qiymati bo‘yicha sotilgandan so‘ng fuqarolarga pensiya ko‘rinishida qaytariladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli sarmoya yetishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjud sharoitda xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi byudjetning ijtimoiy ta’milot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan tizimining mablag‘lari xalq bankida yig‘ib boriladi. Shu jixatdan kelib chiqib xalq bankining O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari oldida quyidagi xuquq va majburiyatlar belgilangan.

Xalq banki:

- jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchilardan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish vaularni yuritish uchun zarur ma’lumotlarni olish;
- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mablag‘larini investisiyalashdan olingan daromaddan marja olish huquqiga ega. Marja miqdori O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Xalq banki:

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochishi vayuritishi;
- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga kiritilayotgan badallar vahisoblab chiqarilgan foizlarni shaxslar bo‘yicha hisobga olib borishi;
- jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining hamda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larga hisoblab chiqarilgan foizlarning o‘z vaqtida vato‘la hajmda o‘tkazilishini ta’milashi;
- jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarining miqdori o‘z vaqtida vato‘g‘ritayinlanishini, shuningdek ular bunday to‘lovlarini oluvchilarga to‘liq berilishini ta’milashi;
- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining mablag‘larini moliyaviy vositalarga joylashtirish hamda bunday mablag‘lardan investisiya vakredit resurslari sifatida foydalanish yo‘li bilan shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larning saqlanishini, ko‘paytirilishini vapul qadrsizlanishidan himoya qilinishini ta’milashi;
- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari holati to‘g‘risida fuqarolarni haryili, shuningdek ularning murojaatiga asosan xabardor qilishi;
- shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga aloqador hujjatlar hamda yozuvlarning saqlanishini ta’milashi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq, Xalq banki boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. Jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini kafolatlangan investisiyalarga jalb etish. Bunda Xalq banki tomonidan boshqa tijorat banklariga Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasidan past bo‘lmagan shartlarda investisiya qilish.

Ta’kidlash kerakki, mustaqillik yillarda O‘zbekiston Respublikasida pensiya tizimi amal qilishiga xizmat qiluvchi barcha tashkiliy-huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, 2005 yilning 1 yanvaridan boshlab amaldagi pensiya tizimidan tashqari jamg‘ariluvchi pensiya tizimi joriy etila boshlandi. Unga ko‘ra individual pensiya

fuqaroning ide tifikasiyon nomeri asosida amalga oshirilmoqda. Pensiya ta'minoti tizimini isloq qilish sohasidagi asosiy vazifa pensiya jamg'armasiga to'lanadigan badallar va pensiya to'lovlari miqdori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rnatishdir. Bu ishchilarning badallar to'lashdan manfaatdlrligini oshirish, byudjetga og'irlikni kamaytirish maqsadida davlat tizimi miqdorini qisqartirish, ishchilar va ish beruvchilar to'laydigan badal stavkasini pasaytirish va kelajakda jamg'arish tizimini amalga oshirishga zamin tayyorlash uchun zarurdir. Bunday holatga birdamlik taqsimlash darajasini shartli-jamg'arish chizmasiga aylantirish yoki ish haqiga bog'langan, belgilangan to'lovli chizmani o'zgartirish va qisqartirish orqali erishiladi.

Mamlakatlarning ko'p darajali pensiya tizimiga o'tishiga muvofiq, xususiy pensiya jamg'armalarini boshqarishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish, hisob-kitlolarni olib borish, badallarni yig'ish, hususan, pensiya jamg'armalari faoliyati ustidan nazorat yuritish va tartibga solish bo'yicha institusional salohiyatni shakllantirish kabi muammolarni hal etish bo'yia ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1 - amaliy mashg‘ulot:

Pensiya tizimining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida pensiya ta’mnoti qanday o‘rin tutadi?
2. Pensiya ta’mnoti tizimda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning mexanizmi va vositalarini izohlab bering.
3. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimi qanday tamoyillar asoida tashkil etilgan?
4. Jamg‘ariladigan pensiya tizimining ijobjiy va salbiy jihatlarini sanb bering.

2 - amaliy mashg‘ulot:

Davlat tomonidan pensiya tizimini tartibga solish.

1. Pensiya tizimlarini tartibga solish va isloh etish zarurati qanday omillar hisobiga yuzaga keladi?
2. Pensiya tizimini isloh etishning qanday mexanizm va dastaklari mavjud?

3 - amaliy mashg‘ulot:

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimini isloh etish yo‘nalishlari.

1. *Pensiya tizimini isloh etish mohiyati va ustuvor yo‘nalishlari*
2. *Pensiya ta’mnotini rivojlantirishning jahon tajribasida yuzaga kelgan muammolar.*
3. *Rivojlangan mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish va pensiya tizimlarini moliyalashtirish shakli va tarkibiy jihatdan qanday guruhlarga ajratish mumkin?*
4. *Davlat va xususiy pensiya ta’mnoti tizimlarini tashkil etish borasida qanday konsepsiyalarni bilasiz?*

Keys topshiriq: Rivojlangan mamlakatlarda umr ko‘rish davomiyligining ortib borishi sharoitida pensiyaga chiqish yoshini davlat tomonidan oshirib borilishi kuzatilmoqda.

Bu holat mehnat bozorida keksa ishchilarining ko‘payishiga va ma’lum darajada mehnat unumdarligining pasayishiga olib kelmaydimi?

4 - amaliy mashg‘ulot:

Davlat pensiya ta’mnotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish.

1. O‘zbekistonda pensiya ta’mnotini huquqiy-institusional asoslari.
2. Davlat pensiya ta’mnotini boshqarish va moliyalashtirish amaliyoti holati va rivojlanish tendensiyalari.
3. O‘zbekistonda pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta’mnlash mezonlari, ko‘rsatkichlari va omillari.
4. O‘zbekistonda samarali pensiya tizimini shakllantirish yo‘nalishlari va istiqbollari.

5 - amaliy mashg‘ulot:

O‘zbekistonda pensiya tizimining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

1. O‘zbekiston pensiya ta’minoti tizimining shakllanish bosqichlariga xos xususiyatlarni sanab o‘ting va izohlang.
2. O‘zbekiston pensiya ta’minoti huquqiy-institusional asoslari
3. O‘zbekiston davlat pensiya ta’minoti tizimi qanday tarkibga ega?
4. O‘zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibini tahlil eting va o‘zgarish yo‘nalishlarini aniqlang.
5. O‘zbekiston Respublikasi Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi xarajatlari tarkibini tahlil eting.
6. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining amal qilish mexanizmini tahlil eting.
7. O‘zbekiston davlat pensiya ta’minoti tizimini isloh etishning ustuvor yo‘nalishlari sharhlang.

Keys topshiriq: O‘zbekistonda umr ko‘rish davomiyligi oshib bormoqda va davlat pensiya tizimining moliyaviy barqarorligiga salbiy ko‘rsatishi mumkin. Ko‘plab xorijiy mamlakatlar bu muammoga pensiya yoshini uzaytirish orqali javob chorasini ko‘rishgan. Pensiya yoshini uzaytirish mehnat resurslari sonining oshishiga va bandkni ta’minlash masalasining yanaa qiyinlashishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonda pensiya yoshini uzaytirish zarurmi? Agar ushbu chora ko‘riladigan bo‘lsa qanday o‘zgarishlarni kutish mumkin? Ishsizlik darajasining oshishini oldini olish uchun pensiya yoshini oshirishda nimalarga e’tibor berish kerak? Aholi umr ko‘rish davomiyligi oshishining pensiya tizimi moliviy barqarorligiga salbiy ta’sirini oldini olish uchun pensiya yoshini oshirishdan tashqari yana qanday choralarni qo‘llash mumkin?

6-mavzu: O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotining rivojlanish istiqbollari

Jamg‘arilib boriladigan pensiya tizimining mohiyati, xususiyatlari va shakllari. Majburiy va ixtiyoriy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari. Davlat va xususiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimlari. Korporativ va individual jamg‘ariladigan pensiya tizimlari. O‘zbekistonda fuqorolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etilishi. O‘zbekistonda shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya tizimning rivojlanish xususiyatlari. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimidagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari tahlili. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirish istiqbollari.

6 - amaliy mashg‘ulot:

1. O‘zbekiston jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining tashkil etlishi va rivojlanish bosqichlari.
2. O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minotini rivojlantirish istiqbollari.

Keys topshiriq: O‘zbekistonda fuqorolarning jamg‘arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga ixtiyoriy ravishda o‘tkazadigan pul mablag‘lari jismoniy

shaxslarning daromad solig‘idan ozod qilingan. Shunday bo‘lsada jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi tarkibida fuqorolarning majburiy ravishda o‘tkazgan pul mablag‘lari asosiy ulushni tashkil etmoqda.

Bunday holatda nima uchun berilgan soliq imtiyozi fuqorolarni yetarlicha rag‘batlantira olmayapti deb o‘ylaysiz? O‘zbekistonda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimini rivojlantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim deb o‘ylaysiz?

V. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- moyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lif mavzulari:

- Pensiya tizimlarining vujudga kelishi tarixi. Pensiya tizimlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
- Pensiya ta'minotining iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan o'rni.
- Ijtimoiy siyosatning mohiyati va nazariy asoslari.
- Ijtimoiy himoya tizimining zaruriyati va asosiy vazifalari.
- Jahondagi mavjud pensiya tizimlarini isloh etish modellari.
- Pensiya ta'minotida jahon tajribasi va yuzaga kelgan muammolar.
- Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy himoya tizimining tuzilishi va strategik ahamiyati.
- O'zbekistonda mustaqillikdan keyingi o'tish davrida pensiya tizimini rivojlanishi.
- Kuchli ijtimoiy siyosatni tarkibi va amalga oshirish ustuvor yo'naliishlari.
- Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizasiyalashda "Ijtimoiy ish" yo'naliishi mutaxassislarning vazifalari.
- Xorij mamlakatlaridagi ijtimoiy himoya tizimlari.
- Ijtimoiy himoyaning liberal shakli.
- Ijtimoiy himoyaning konservativ modeli.
- Sosial-demokratik (birdamlik) model.
- Pensiya tizimining taqsimot tortiluvchan (avlodlar birdamligi) modeli.
- Pensiya tizimining kapitallashgan modeli.
- Ijtimoiy hamkorlik va aholining barcha qatlamlarining birdamligi.
- Pensiya tizimini moliyalashtirish va rivojlantirishning hozirgi zamon tendensiyalari.
- Davlat pensiya tizimining ko'shimcha korporativ, kollektiv va xususiy turlarini shakllantirish.
- AQShda pensiya ta'minoti tizimidagi islohotlarni amalga oshirilishi.
- AQSH da xususiy pensiya jamg'armalarining faoliyati.
- Germaniyada davlat pensiya ta'minoti tizimi.
- Germaniyada davlat pensiya ta'minotini moliyalashtirish va nazorat qilish.
- Fransiyada pensiya tizimi islohotlari.

- Xitoyda pensiya tizimini tashkil etilishi va rivojlanishi xususiyatlari.
- Xitoyda demografik vaziyatni o‘zgarishi va aholi qarishi.
- Xitoyda pensiya ta’minoti tizimi islohotlari.
- Yaponiya pensiya tizimining xususiyatlari va rivojlanish tendensiyalari.
- Yaponiyada ijtimoiy sug‘urta va joriy qilingan pensiya turlari.
- Yaponiya pensiya ta’minoti va moliyalashtirish mexanizmi.
- Rossiya Federasiyasida davlatning budjetdan tashqari ijtimoiy fondlari.
- Rossiya Federasiyasi Pensiya fondi barqarorligini ta’minlash tajribalari.
- Rossiya Federasiyasida davlat pensiya tizimini tartibga solish tadbirlari.
- Qozog‘iston Respublikasi pensiya ta’minotining nazariy-uslubiy asoslari.
- Qozog‘iston Respublikasi pensiya fondi daromadlarini shakllantirish.
Qozog‘iston Respublikasi pensiya fondi xarajatlari tizimi.

VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
pensiya	uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va meyorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiba to‘lish, nogironlik yoki boquvchisini yo‘qtganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to‘lovi	A pension is a fund into which a sum of money is added during an employee's employment years, and from which payments are drawn to support the person's retirement from work in the form of periodic payments.
pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi turadigan joy	pensiya olish joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi	The regional (city) department of the Off-budgetary Pension Fund under the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan
pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etish	pensiya tayinlash, pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish, pensiyaning bir turidan boshqa turiga o‘tkazish, shuningdek ilgari to‘xtatib qo‘ylgan (to‘xtatilgan) pensiya to‘lashni belgilangan tartibda tiklash (qayta tiklash) to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limiga ariza berish	Apply to the district (city) department of the Off-budgetary Pension Fund under the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan on the appointment of pensions, recalculation of pensions, transfer from one type of pension to another, as well as restoration of previously suspended (suspended)
pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi	ular asosida pensiya so‘rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi	the emblem of the documents assigned to the person applying for a pensions
band shaxs	o‘zini ish bilan mustaqil ta’minlaydigan va ish vaqtini hisobga olish mumkin bo‘lmagan jismoniy shaxs, tadbirkor, shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, bevosita qoramol o‘stiradigan hamda chorvachilik mahsulotlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotadigan shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaligida band bo‘lgan shaxs, shuningdek oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik subekti	a natural person, entrepreneur, including an individual who is engaged in entrepreneurial activity without directly forming a legal entity and is directly involved in livestock breeding and livestock production and other agricultural products, family business and subject of craftsmanship
ish staji	mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o‘qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo‘yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat’i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta’minti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiyl davomiyligi	work record and total duration of labor activity and other activity that gives the right to pension according to the legislation, irrespective of breaks in work, on the basis of other documents issued from work, service, study or archive
maxsus ish staji	xalq xo‘jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya	xalq xo‘jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga

	ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi	muvofig imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi
jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari	shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari	voluntary contributions to personal savings pension accounts
jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari	shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'lari	monetary means, which are subject to compulsory personal pension savings accounts
jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi	jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs	an individual or an employer legal entity that makes contributions to the recipient in the recipient's pension payments
jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti	fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash	provision of monetary funds in addition to state pension funds from personal accumulative pension accounts of citizens
shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i	fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobvaraqla kelib tushadi hamda unda hisobga olinadi.	a personal account with a Holder of "Xalq Bank", and the interest accrued on the accumulative pension contributions and personal savings account of the depositor shall be credited to this account and credited thereon.

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Asosiy adabiyotlar

1. Pensiya tizimini rivojlantirishning xorij tajribasi: Darslik/ A.V. Vaxabov, SH.X. Xajibakiyev, B.B. Baxtiyorov, J.N. Fayzullayev, SH.R. Raxmanov, D.SH. Odinayev; - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 400 b.
2. Vaxabov A.V., Majidov N.M. Jamg‘arib boriladigan pensiya jamg‘armasining O‘zbekistonda investisiya siyosatini amalga oshirishdagi roli. MonografiY. – Toshkent. “Universitet”. 2017 yil. 128 b.
3. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta’minotga kirish: Darslik / A.V. Vaxabov, SH.SH. Zaxidova, B.B. Baxtiyorov, D.SH. Odinayev, J.N.Fayzullayev; - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 168 b.
4. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti: O‘quv qo‘llanma / B.S. Mamatov; - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018. – 168 b.
5. B.S. Mamatov. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 280 bet.
6. Dalimov.R.T. Mirovoy opit reformirovaniya pensionnoy sistemi i yego primeneniya v usloviyax perexodnoy ekonomiki.Tashkent.«Universitet» 2003 g.
7. A.Haitov, M.Ziyadullayev. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorij tajribasi. Toshkent “Adolat” 2009 y.
- 8.Umurzakov B.X. Problemi pensionnogo obespecheniya v usloviyax rinochnix otnosheniy. Tashkent “Fan”, 2005 g.
- 9.Belikova T.N., Minayeva L.N. Pensiya: raschet i poryadok oformleniY. – SPb.: Piter, 2011. – 224 s. (*elektron*)
10. Aktualniye problemi pensionnoy reformi / V.S.Nazarov. – M.: Izdatelstvo «Delo» RANX, 2010. – 144 s. (*elektron*)

Qo‘srimcha adabiyotlar

11. Usmonova M.A. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya: fuqarolik huquqiy jihatlari. MonografiY. T., TDYUI, 2005 ., 198 b.
12. Usanova M.A., Inoyatov A.A., Sarimsakova G.K., Murodova G. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik. -T.: TDYUI, 2005.- 302 b.
13. Usanova M.A., Tursunov Y. Ijtimoiy ta’minot huquqi. O‘quv qo‘llanma.-T.: Moliya, 2004.- 190 b.
14. Tursunov I., Shoyimxonov 3. Ijtimoiy ta’minot huquqi. Darslik.-T.: TDYUI, 2003- 230 b.
15. Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmatini tashkil etish metodik qo‘llanmasi/ M.Karamyan, M. Xasanbayeva, M. Aminova. – Toshkent: Baktria press, 2014. – 100 b.
16. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.: “Universitet”. 2014. 272 b.
17. “Pensiya tizimini moliyalashtirish: xorij tajribasi va uni takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T.:“Universitet”. 2016. 126 b.
18. “O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman tezislari to‘plami. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. -432 b.
19. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlari. Stat. to‘plam. –T.: O‘zbekiston, 2011. -140 b.
20. Doklad po selyami razvitiya tisyacheletiya Uzbekistana 2015 / pod obsh. Red. G.K. Saidovoy. – Tashkent. Sentr ekonomicheskix issledovaniy, 2015. – 100 s.
21. Doklad o chelovecheskom razvitiii 2014. Obespecheniye ustoychivogo progressa chelovechestva: Umensheniye uyazvimosti i formirovaniye jiznestoykosti. PROON. Nyu-York. 2014. -239s.

22. World development report 2014: risk and opportunity - managing risk for development. The World Bank. Washington D.C. 2014. 324 p.
23. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy-uslubiy risola. – T.: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2017 yil. 244 b.

Rahbariy adabiyotlar

24. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq., Toshkent, 2016. 56-b.
25. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
26. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr – Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 48-b.
27. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2015. 304b.
28. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. –T.: O‘zbekiston, 2010. -56 b.

Meyoriy – huquqiy hujjatlar

29. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2013
30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 10.08.2015 yildagi 327-sон qarori.
31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi 09.07.2015 yildagi 185-sон qarori.
32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomilashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2011 yil 8 sentabrdagi 252-sон qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida”gi 10.06.2015 yildagi 153-sон qarori.
33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-sон qarori «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga hamda O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida
34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2015 yil 14 apreldagi PF-4715-sон Farmoni.
35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2016 yil 27 dekabrdagi PQ-2699-sонli Qarori.
36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovni “Keksalarni e’zozlash davlat dasturi to‘g‘risida” 2015 yil 18 fevral PQ-2302 sonli qarori.

37. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag‘i “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
38. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Internet saytlar

39. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining portalı
40. www.mf.uz – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
41. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasi sayti
42. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi sayti
43. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
44. www.pfru.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi sayti
45. www.mehnat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi sayti
46. www.mineconomy.uz - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi sayti